



Odinayev Bekqul Imamqulovich, 1991-yil 11-avgustda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida tugʻilgan. Chiroqchi tuman xalq taʼlimi boʻlimiga qarashli 130-oʻrta maktabda oʻqigan.

2009-yilda Samarqand shahridagi Bogʻishamol sanoat kasb-hunar kollejini, 2014-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining bakalavriat, 2016-yilda magistratura bosqichini tamomlagan.

2021 – 2023-yillarda Samarqand davlat universitetida tayanch doktoranturada tahsil olgan. 2023-yildan beri Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish boʻlimi boshligʻi hamda Oʻzbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

2024-yilda 10.00.01 – Oʻzbek tili ixtisosligidan “Oʻzbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin Aʼzam asarlari misolida)” mavzusida filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 30 dan ortiq ilmiy maqolalari xorij va yurtimizdagi nufuzli ilmiy nashrlarda eʼlon qilingan.

Odinayev Bekqul Imamqulovich oilali, uch nafar farzandi bor.

ISBN 978-9910-9858-6-7




9 7899910 9858 67

OʻZBEK NUTQIY MULOQOTI
LINGVOPRAGMATIKASI

BEKQUL ODINAYEV

OʻZBEK NUTQIY MULOQOTI
LINGVOPRAGMATIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ODINAYEV BEKQUL IMAMQULOVICH

**O‘ZBEK NUTQIY MULOQOTI
LINGVOPRAGMATIKASI**

MONOGRAFIYA

SAMARQAND – 2026

UO‘K 494.3
BBK: 74.200

**Odinayev B.I. O‘zbek nutqiy muloqoti lingvopragmatikasi.
Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2026. – 164 bet.**

Mazkur monografiyada lingvopragmatikaning dolzarb masalalari, nutqiy muloqot, lisoniy shaxs, uslubiy-pragmatik omillar, lingvopragmatik tahlil tamoyillari, sotsiopragmatik tahlil, so‘z qo‘llash mahorati va pragmatik imkoniyat haqida so‘z yuritilib, o‘zbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari Erkin A‘zam asarlari misolida ochib berilgan. Monografiya tilshunos olimlar, ushbu sohada izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, magistrantlar hamda bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan.

В данной монографии рассматриваются актуальные вопросы лингвистопрагматики, речевой коммуникации, языковой личности, методологическо-прагматических факторов, принципов лингвистопрагматического анализа, социопрагматического анализа, лексических навыков и прагматических возможностей, а также раскрываются лингвистопрагматические особенности узбекской речевой коммуникации на примере работ Эркина Аъзама. Монография предназначена для лингвистов, исследователей, проводящих исследования в этой области, аспирантов и студентов.

This monograph discusses current issues of linguopragmatics, speech communication, linguistic personality, methodological-pragmatic factors, principles of linguopragmatic analysis, sociopragmatic analysis, vocabulary skills, and pragmatic possibilities and reveals the linguopragmatic features of Uzbek speech communication using the example of the works of Erkin A‘zam. The monograph is intended for linguists, researchers conducting research in this field, graduate students, and undergraduates.

Mas’ul muharrir:

Pardayev Azamat Baxronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Mahmadiyev Shavkatjon Suyunqulovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

***Monografiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Kengashining 2025-yil 29-dekabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida nashrga tavsiya
etilgan (Bayonnoma № 5)***

ISBN 978-9910-9858-6-7

© Samarqand davlat universiteti, 2026

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. BADIY MATNDA MULOQOT SHAKLLARI LINGVOPRAGMATIKASI	9
1.1. Nutqiy muloqot shakllari va uni pragmatik jihatdan o‘rganish.....	9
1.2. Samarali nutqning uslubiy-pragmatik omillari.....	25
1.3. Badiiy matn – nutqiy muloqotning mukammal shakli.....	29
1.4. Badiiy matnni lingvopragmatik tahlil qilish tamoyillari.....	33
Bob bo‘yicha xulosalar.....	44
II BOB. ERKIN A’ZAM ASARLARIDA “TIL SHAXSI” NAMOYON BO‘LISHINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	47
2.1. Til shaxsining lingvopragmatik tabiati.....	47
2.2. Erkin A’zam asarlarida “lisoniy shaxs” namoyon bo‘lishining pragmatik imkoniyatlari.....	62
2.3. Muloqotning sotsiopragmatik tahlili.....	78
Bob bo‘yicha xulosalar.....	91
III BOB. ERKIN A’ZAM ASARLARIDA NUTQIY MULOQOTNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR LINGVOPRAGMATIKASI	93
3.1. Badiiy matnda so‘z qo‘llash mahorati va pragmatik imkoniyat.....	94
3.2. So‘zning ko‘chma ma’noda ishlatilish imkoniyatlari.....	112
3.3. Dialektizmlarning pragmatik imkoniyatlari.....	129
3.4. Vulgar so‘zlarning nutqiy muloqotdagi pragmatik vazifasi.....	135
Bob bo‘yicha xulosalar.....	143
UMUMIY XULOSA	145
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	148

KIRISH

Jahon tilshunosligida XXI asrning birinchi choragida badiiy asar tilining pragmalingvistik tomonlariga e'tibor qaratish, har bir sath birligining muayyan adib ijodidagi pragmatik xususiyatlarini aniqlash, lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanish shakllarini asoslash, kommunikativ munosabatlarning antroposentrik tamoyillari, lisoniy hodisalar va ularning ifoda imkoniyatlariga qiziqish ortib bormoqda. Dunyo tilshunosligida tilning nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto, sun'iy intellekt bilan uzviy munosabatini tekshirayotgan yangi yo'nalishlarning shakllanishi, til va nutq hodisalarining ongli va izchil farqlanishi asosida lisoniy imkoniyatlarning badiiy voqelanishini tadqiq etuvchi soha sifatida nazariy va amaliy pragmatikani farqlash ehtiyoji kuchaymoqda. Tilshunoslik ilmida pragmalingvistika sohasining yuzaga kelishi mazkur yo'nalishdagi yangi termin va tushunchalar doirasi kengayib borishi, lingvopragmatika qonuniyatlarini ishlab chiqish, muayyan ijodkor asarlarida umumiy lingvopragmatik asoslarning badiiy matnda individual voqelanish holatlari va omillarini ijodkor – til – badiiyat – pragmatik natija mushtarakligi tamoyili asosida o'rganilmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, milliy tilimizga davlat tili maqomi berilishi o'zbek tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlar rivojlanishi uchun zamin yaratmoqda. "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Shu bois, badiiy asar tilini stilistik, lingvopoetik, lingvopragmatik kabi turli ilmiy yo'nalishlar asosida chuqur o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada jadallashmoqda. Natijada o'zbek adiblari asarlarining ijtimoiy-falsafiy, badiiy, lingvistik, lingvostilistik va lingvopragmatik jihatlari, ularni yangi metodologik tamoyil va zamonaviy mezonlar asosida ochib beriladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси// Халқ сўзи, 2017 йил 4 август. – № 153 (6847).

Tilshunoslikda pragmatikaning predmeti aniq belgilab olinmaganligi bois masalaga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi va ushbu sohani tadqiq etish bo'yicha turli yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlar natijasi o'laroq pragmatikaning fanning boshqa sohalari, xususan, umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, leksikologiya, stilistika bilan bog'liq jihatlariga aniqlik kiritildi. Rus tilshunosligida N.D.Arutyunovaning pragmatika manbalari va muammolari, kategoriyalari, lingvistik pragmatikaga², A.G.Baranovning matnni funksional-pragmatik paradigmada o'rganishga³, L.E.Bezmenovaning nutqiy aktlarga doir⁴, V.V.Bogdanovning nutqiy muloqotni pragmatik va semantik yo'nalishda o'rganishga⁵, I.R.Galperinning matnni o'rganishga lingvistik yondashuvi⁶, T.A. van Deykning matn pragmatikasiga⁷, M.M.Dmitriyevaning tilning ekspressiv birliklari pragmatikasiga oid⁸ ishlari so'ngi yillarda amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlarga yo'l ochdi.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda pragmatikaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan darslik va qo'llanmalar⁹ maydonga keldi.

² Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики// Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1985. – Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. – С. 3-42.

³ Баранов А.Г. Текст в функционально-прагматической парадигме. – Краснодар: Кубанский Госуниверситет, 1988. – 90 с.

⁴ Безменова Л.Э. Функционально-семантические и прагматические особенности речевых актов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2001. – 20 с.

⁵ Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. – 88 с.

⁶ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – 144 с.

⁷ Дейк Т.А. ван. Вопросы прагматики текста// Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1978. – Вып. VIII: Лингвистика текста. – С. 259-336.

⁸ Дмитриева М.М. Семантико-прагматические и стилеобразующие характеристики экспрессивных единиц языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2000. – 16 с.

⁹ Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – № 4. – Б. 54-58.; Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.; Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.; Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015. – 123 б.

Sh.Safarovning nutqiy muloqotning etnosotsiopragmatik xususiyatlari¹⁰, A.Nurmonovning pragmatikaning semantikadan ajralib chiqqanligi¹¹, N.Mahmudovning pragmalinqvistikaning asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiya va uning gap mazmunini tushunishdagi ahamiyati¹², M.Hakimovning ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari, matn pragmatikasi¹³, S.Boymirzayevaning o‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar¹⁴, U.Rahimovning yuklamalar presuppozitsiyasi¹⁵, Z.Tohirovning pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga kelishiga¹⁶ oid ishlari yaratildi.

Keyingi yillarda lisoniy hodisalar mohiyatini yoritishga yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. D.Xudayberganovanning badiiy matnlarning, Sh.Maxmaraimovanning metaforalarning antroposentrik talqiniga¹⁷, A.Pardayevning yordamchi so‘z turkumlarining lingvopragmatikasiga¹⁸ bag‘ishlangan monografik ishlari yaratildi. Bu davrda kognitiv va lingvokulturologik, kognitiv-pragmatik¹⁹ yondashuvdagi tadqiqotlar

¹⁰ Сафаров Ш. Этносоциопрагматика речевого общения (принципы сопоставительно-типологического описания): Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Л., 1991. – 33 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 286 б.

¹¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент, 2012. – Б. 245.

¹² Махмудов Н. Пресуппозиция ва gap// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 6. – Б. 26.

¹³ Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

¹⁴ Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 49 б.

¹⁵ Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 24 б.

¹⁶ Тоҳиров З.Т. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага келиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 22 б.

¹⁷ Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.; Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 72 б.

¹⁸ Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 77 б.

¹⁹ Мирсанов Ғ.Қ. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг кognитив-прагматик асослари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 75 б.; Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида кognитив ўзига ҳослик: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Фарғона, 2021. – 223 б.; Хojiyeva M.Y. O‘zbek tili so‘z birikmalarida shaxs tavsifi (substansial va

qatorida nutq shakllarining lingvopragmatik xususiyatlari o'rganildi, o'zbek bolalar nutqi²⁰, dialogik nutq²¹, nutqiy muloqotda sistemaviylik va informativlik²², nutqiy muloqotda fatika²³, masalalari pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etildi, nutqiy aktlarning leksik-grammatik imkoniyatlari tahlil qilindi²⁴. Til birliklarining nutqda turli pragmatik vazifalarni bajarishi ingliz, rus va o'zbek²⁵, fors va o'zbek²⁶, tillarini qiyoslash asosida ochib berildi. Alohida olingan ijodkorlar asarlari²⁷, segment qurilmalar²⁸, diniy matnlar²⁹ tahlilga tortilishi orqali tilimiz pragmatik imkoniyatlari to'g'risida muayyan xulosalarga kelindi.

Tadqiqotlar natijalaridan xulosa qilish mumkinki, til pragmatik imkoniyatlari badiiy matnda namoyon bo'ladi. Har bir til birligining matnda tutgan o'rni, ma'lum vazifa sari yo'naltirilishi asar muallifining kommunikativ maqsadiga bog'liq. Shu bois badiiy asar lingvopragmatik jihatdan tahlilga tortilganda muallif idiolekti ham hisobga olinadi. O'zbek badiiy adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan yozuvchi Erkin A'zam ijodi shu vaqtga qadar faqat lingvopoetik va sotsiopragmatik

sotsiopragmatik aspektlarda): Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 63 b.; Bayjigitov O.I. O'zbek muloqot nutqidagi frazeologik birliklar: kognitiv va lingvokulturologik tamoyillari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 53 b.

²⁰ Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.

²¹ Каримова Ф.С. Ўзбек тилидаги диалогик нутқининг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.

²² Тоирова Г.И. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.

²³ Хамроева Н.Н. Ўзбек нутқий мулоқотида фатика (илтифот мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. – 148 б.

²⁴ Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 63 б.

²⁵ Азимова С.Х. «Рад этиш» нутқий актларининг лингвопрагматик хусусиятлари (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 54 б.

²⁶ Турдиева Ҳ.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 167 б.

²⁷ Кобилов Н.Ў. Тоғай Мурод киссаларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – 140 б.

²⁸ Умурзакова М.Э. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 55 б.

²⁹ Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 52 б.

jihatdan tahlilga tortilganligi³⁰ bu sohada kengroq kuzatishlar olib borishni taqozo qiladi. Yozuvchi asarlarining lingvopragmatik jihatdan o‘rganilishi ijodkorning so‘z qo‘llash va ularga ma’lum pragmatik vazifa yuklash mahorati to‘g‘risida xulosalarga kelishga imkon beradi.

³⁰ Тошхужаева Ш.Г. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтики: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.; Холмуродова М.И. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – 132 б.

I BOB. BADIY MATNDA MULOQOT SHAKLLARI LINGVOPRAGMATIKASI

1.1. Nutqiy muloqot shakllari va uni pragmatik jihatdan o'rganish

Muloqot – insonlar o'rtasida ma'lum bir ehtiyoj tufayli ma'lumotni yetkazish yoki qabul qilish kabi kommunikativ jarayonning ko'p qirrali faoliyati sanaladi. Muloqot (munosabat) o'zaro axborot almashishni o'z ichiga oladi. Muloqot faoliyatini shakllantiruvchi asosiy vositalar nutq tuzilishi (strukturasi) hisoblanadi. Bu o'rinda muloqot tavsifi asosiy elementlarga mos bo'lishi va ularning har birining ichki tuzilishiga taalluqli bo'lishi mumkin. O'zaro kommunikativ faoliyatda subyektlar, lisoniy va nolisoniy vositalar, ehtiyoj, motiv, kommunikativ maqsad, nutqiy strategiya va taktika, o'zaro ta'sirning aloqa jarayonida aks etishi hamda nutqiy samara **muloqotning asosiy komponentlarini** tashkil etadi. Avvalo, bu muloqot til vositasida amalga oshiriladi. Yana bir jihati shundaki, muloqotchilar o'rtasidagi nutq jarayoni (harakati) faqat verbal, ya'ni so'zlar bilan emas, balki noverbal (imo-ishora harakati) vositalar bilan ham fikr almashishdan iborat bo'ladi. Kommunikativ (aloqa quroli, vosita), ekspressiv (fikrni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash hamda farqlash mavjudligi kabi xususiyatlar)³¹ **muloqot vazifalaridir**. Shuningdek, suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish, muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarini almashish, biror harakatni bajarishga undash, o'zaro hamkorlikni tashkil etish, suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish, suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish, suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish kabi omillar ham muloqot vazifalariga kiradi. Bu esa muloqot murakkab polifunksional, ya'ni ko'p vazifali hodisa ekanligini ko'rsatadi. Demak, kishilar o'rtasida amalga oshuvchi aloqa, ya'ni muloqot faoliyatini til ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Bu nutqiy faoliyat og'zaki yoki yozma shaklda namoyon bo'ladi va o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi, ular asosida nutq aloqasi turlari aniqlanadi. Har bir muloqot turi uchun o'ziga xos lisoniy

³¹ Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. – Л., 1975. – С. 44.

vositalar va xatti-harakatlar taktikasi mavjud bo‘lib, ularni amalda o‘zlashtirish og‘zaki muloqot samarasi uchun zarur shartdir.

“Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash hamda ishlatishda bir-birlaridan ma’lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko‘rinishlari paydo bo‘lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko‘rinishlari nutq stillari deb yuritiladi”³². O‘zbek tilshunosligida ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so‘zlashuv uslublari va ularning me‘yoriyligi, lingvistik xususiyatlari maxsus kuzatish obyekti sifatida o‘rganilgan ishlar ancha.

Muloqot shaxslararo aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning ko‘p qirrali murakkab jarayonidir. “Muloqot strukturasi – bu muloqot jarayonini tashkil etuvchi asosiy unsurlar yig‘indisi. Bunda muloqotning tuzilish tavsifi asosiy elementlarga mos bo‘lishi va ulardan har birining ichki tuzilishiga taalluqli bo‘lishi mumkin”³³.

Har bir nutqiy aloqa zamirida so‘zlovchi yoki yozuvchining mo‘ljali yotadi. Demak, yozuvchi fikrlarini kitobxonga yetkazishda o‘z oldiga ma’lum bir maqsad qo‘yadi. Shunga ko‘ra u tomonidan shakllantiriladigan matnda til birliklari turli lingvopragmatik vazifalarni bajarishga xoslangan bo‘ladi.

Zamonaviy tilshunoslik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda muloqotning inson faoliyatida tutgan o‘rni, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, nutq jarayonida uning o‘z maqsadiga erishish uchun qo‘llaydigan taktika va usullari, ana shu maqsadga xizmat qiluvchi til birliklarining voqelanishini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy aktlar, muloqotning qay yo‘sinda tugashi, erishilgan natija, ya’ni pragmatik samara masalalariga qiziqish jiddiy tarzda kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham tilshunoslikda til birliklarining qo‘llanishi birgina uslubiyat sohasining emas, balki inson nutqiy faoliyati bilan aloqador bo‘lgan bir qator fanlarning o‘rganish obyekti

³² Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 9.

³³ Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. – Б. 22.

ekanligi, nutq va nutqiy faoliyat keng ma'noda bu sohalarni tutashtirib turishi, antroposentrik nazariyaga ko'ra mazkur doira markazida inson turishi, har bir voqea-hodisa unga bog'liq holda amalga oshishi fan olamida haqli ravishda e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslik tilni sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, pragmlingvistik aspektlarda o'rganish kabi yo'nalishlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Bu yondashuvlarning o'zaro kesishishi, parallel ravishda lingvistik yoki fanlararo tadqiqotlar olib borish zaruratini ko'rsatmoqda. Bu yo'nalishlarda o'zaro ta'sirning har xil ekanligi til hodisalarining uning turli sathlarida qanday amal qilishini tahlil qilishni taqozo etadi. Ana shu jihatdan qaraganda pragmlingvistika keyingi yillarda ancha taraqqiy qila boshlagan soha hisoblanadi.

Rus tilshunosi Yuriy Sergeyevich Stepanov bu haqda fikr yuritar ekan, semiotizm va pragmatizm asoschisi hisoblangan Ch.Pirsning mazkur masala bo'yicha 1860-yillarda "Yangi davr semiotikasi" kabi tadqiqotlari yuzaga kelishi bilan bog'liqligini qayd qiladi³⁴. Pragmlingvistika bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, zamonaviy lingvopragmatikaning asosi nutqiy aktlar nazariyasi hisoblanadi. Tilshunoslikda "nutqiy akt" tushunchasini dastlab Dj.Ostin qo'llagan edi³⁵. U nutqiy akt tushunchasining mohiyatini ochib berishda uni tashkil qiluvchilar sifatida lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya kabi turlarni ajratib, shu asosda nutqiy aktlarni tasniflashga harakat qilgan. 1969-yilda Dj.Serl tomonidan bu tasnif yanada mukammallashtiriladi, nutqiy aktlar nazariyasi fanlararo turli ilmiy muammolar yechimini topishda qo'llanila boshlaydi³⁶. Kommunikativ strategiya pragmlingvistika nazariyasining asosiy nazariy tushunchalaridan hisoblanadi. K.A.Ivanova aloqaning nutqiy

³⁴ Степанов В.Н. Прагматические способы номинации речевой интенции говорящего: На материале спонтан. публич. речи [Текст]: дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01/ Степанов Валентин Николаевич. – Ярославль, 1998. – С. 28-36.

³⁵ Остин Дж. Слово как действие [Электронный ресурс]/ Дж. Остин// Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. – 1986. – Вып. 17. – С. 122-129. Режим доступа: https://classes.ru/grammar/159.new-in-linguistics17/source/worddocuments/_1.htm

³⁶ Серль Дж. Что такое речевой акт? [Электронный ресурс]/ Дж. Серль// Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. 1986. – Вып. 17. – С. 151-169. Режим доступа: <http://philology.ru/linguistics1/searle-86.htm>

strategiyasini muloqotchilardan birining muammosi hal bo'lishi zanjiri, u yoki bu nutqiy harakat va til birligining kommunikativ tanlanishi sifatida talqin qiladi³⁷. T.M.Grushevskaya va N.Y.Fanyan kommunikativ strategiyani adresant va adresat orasidagi nutqiy vaziyat, ya'ni muloqot jarayonini, dialog misolida qarab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Tadqiqotchilar aynan dialogning pragmatik imkoniyatlarini o'rganish kommunikativ vazifali tadqiqotlar uchun tayanch bo'lishini qayd etadilar³⁸. T.A. van Deyk va V.Kinch strategiyani "tushunish jarayoni haqidagi bilim"ni aks ettirgan "bizning umumiy bilimimiz bo'lagi..." sifatida belgilaydilar va uning turlarini qayd etadilar³⁹.

Oksana Sergeyevna Issers esa nutqiy janrlar kombinatsiyasi nutqiy taktikalarga yaqinlashtirib, pragmatik jihatdan ahamiyatli bo'lishini ta'kidlaydi⁴⁰. Har qanday kommunikativ strategiyani rejalashtirish va amalga oshirish strategiyasiga ajratish mumkin. Shuning uchun, "nutqiy strategiyaning o'ziga xosligi kommunikativ maqsadga erishish uchun lisoniy vositalarning kompleks qo'llanishi hisoblanadi"⁴¹. Shunday ekan, muloqotning samarasini ta'minlash uchun so'zlovchining nutq qaratilgan shaxs yoki shaxslararo munosabatga kirishishi zahirida, albatta, ma'lum bir pragmatik niyat, maqsad yotadi. Ana shu maqsadning qanday ekanligi, nutqiy muloqotning kim bilan, qanday sharoit va vaziyatda amalga oshayotganligiga qarab o'z nutqiy strategiya hamda taktikalarini rejalashtirishi **muloqotning tashqi omillarini** belgilab beradi.

³⁷ Иванова К.А. Стратегии в речевой коммуникации: теоретический аспект [Текст]/ К.А. Иванова// Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. – 2017. – Вып. 1(192). – С. 40.

³⁸ Грушевская Т.М. Модулярный подход к анализу текста/дискурса: вклад женеvской лингвистической школы [Электронный ресурс]/ Т.М.Грушевская, Н.Ю.Фанян// Вестник Адыгейского государственного университета. Сер.: Филология и искусствоведение. Лингвистика. – 2012. – Вып. 3. – С. 199-203.

Режим доступа: http://vestnik.adygnet.ru/files/2012.3/2021/grushevskaya2012_3.pdf

³⁹ Дейк ван Т.А. Стратегии понимания связного текста [Электронный ресурс]/ Т.А. ван Дейк, В. Кинч// Новое в зарубежной лингвистике. Когнитивные аспекты языка. – Вып. 23. – 1988. – С. 164. Режим доступа: <https://www.booksite.ru/fulltext/novoelingv/text.pdf>

⁴⁰ Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи [Текст]/ О.С.Иссерс. – Москва: ЛКИ, 2008. – С.114.

⁴¹ Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи [Текст]/ О.С.Иссерс. – Москва: ЛКИ, 2008. – С.115.

Tilshunoslikda pragmatik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

Nutq subyekti bilan bog‘liq holda o‘rganiladi:

1) ifodaning ochiq va yashirin maqsadi (Ostin bo‘yicha “illokutiv kuchlar”) masalan, ayrim ma’lumotlar haqida xabar yoki munosabat, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va‘da, uzr so‘rash, salomlashish, shikoyat va shu kabilar;

2) nutqiy taktika va nutqiy muloqot tiplari;

3) ...hamkorlik deb ataluvchi prinsipga bo‘ysunuvchi, nutqiy muloqotning qabul qilingan maqsad va so‘zlashuv yo‘nalishiga muvofiq qurilgan so‘zlashuv qoidalari;

4) so‘z qurilishi yoki fikrning pragmatik ma’nosi: ifodaning boshqa ma’nolari, ishoralar, shama, qochirimlar;

5) so‘zlovchining tavsifi, ya’ni so‘zlovchining niyatidan kelib chiqib, lisoniy ifodaning voqelik predmetiga taalluqliligi;

6) pragmatik presuppozitsiya: so‘zlovchining umumiy bilim zaxirasi, aniq ma’lumotga egaligi, qiziqishlari, munosabat va qarashlari, ruhiy holati, adresatni tushunish xarakteri va layoqati xususiyatlari asosida baholashi;

7) so‘zlovchining o‘zi aytayotgan fikriga munosabati:

a) fikr mazmunini baholash (uning rostligi yoki yolg‘onligi, ironiya, ko‘p ma’nolilik, jiddiy emaslik va boshqalar);

b) qiziqish fokusiga so‘zlovchi suhbatlashayotgan shaxslardan birini kiritish yoki empatiya (T.S.Kun termini);

v) fikrni ma’lumotda ko‘proq e’tibor qaratilishiga muvofiq holda tashkillashtirish.

Nutq adresati bilan bog‘liq holda o‘rganiladi:

1) nutq sharhi, jumladan, ifodaning to‘g‘ri ma’nosidan yashirin va qo‘shimcha ma’nolarni chiqarish qoidalari; bu qoidalarda kontekst, pragmatik vaziyat va presuppozitsiya, so‘zlovchi ongli ravishda muloqotdan chekinishi mumkinligidagi maqsadi (masalan, o‘z vaqtidalik tamoyilining buzilishi, adresatga ma’lum bo‘lgan narsalar va shu kabilar haqida ma’lumot berish) hisobga olinadi;

2) fikrning adresatga ta’siri (Ostin bo‘yicha perlokutiv samara):

adresatning xabardorligi kengayishi; adresatning emotsional holatida, qarashlari va baholashida o'zgarish; ular tomonidan qilingan harakatga ta'sir; estetik ta'sir va shu kabilar;

3) olingan omilga nutqiy munosabat bildirish tiplari (to'g'ri va qo'shimcha reaksiyalar, masalan, savolga to'g'ri javob berishdan qochish).

Aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabatga ko'ra o'rganiladi:

1) nutqiy muloqot shakllari (xabar mazmunidagi dialog, do'stona suhbat, bahslashuv va sh.k.);

2) nutqning ijtimoiy-etiketli tomoni (murojaat shakli, muloqot uslubi);

3) u yoki bu nutqiy aktda aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabat (qiyoslang: iltimos va buyruq).

Nutqiy vaziyatga ko'ra o'rganiladi:

1) deytik belgilar (shu yerda, hozir, bu va sh.k.) shuningdek, so'z ma'nosidagi indeksli komponentlar qiyoslang: "kelmoq" va "to'g'ri kelmoq" tipidagi fe'llarga makon va zamon nuqtayi nazaridan mo'ljal olish va sh.k.);

2) nutqiy vaziyatning aloqa mavzusi va shakliga ta'siri (qiyoslang: mehmonda, banketda, kasalxonada, shifokor va advokatlar huzuridagi so'zlashuv shakllari va tipik mavzular)⁴².

Ko'rinadiki, tahlil usullari bevosita matn bilan bog'liq holda amalga oshadi. Matnlar ijtimoiy mohiyati, bajaradigan vazifalariga nisbatan turli ko'rinish va mazmunga ega bo'ladi. Ilmiy matnlarda olamni bilish natijalari haqida ma'lumotlar berish bilan bir qatorda, yangi bilimni o'zlashtirish sari qadam qo'yiladi. Rasmiy hujjatlarda fikr aniq, ravon bayon qilinishi lozim. Badiiy asarlar matni boshqa turdagi matnlardan tamoman farq qiladi. Badiiy matn ham xuddi boshqa turdagi matnlar kabi voqelikni tilda aks ettirish vositasi, ammo uning ma'nosi ko'p qirrali va ko'p o'lchovlidir, chunki unda borliqni his va idrok etayotgan, harakat qilayotgan shaxsning olami tasvirlanadi.

O'zbek tilshunosligida lingvopragmatika muammolariga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar o'tgan asrning 80-90-yillaridan boshlab

⁴² <http://tapemark.narod.ru/les/389e.html>

maydonga keldi. Bu masalani A.Nurmonov, N.Mahmudovlar o'rtaga tashlagan deyishimiz mumkin. A.Nurmonov lingvopragmatika haqida shunday fikr bildiradi: "semantikaning tekshirish ko'lamini g'oyat kengayib ketgani tufayli, uni bir oz yengillashtirishga, ma'noning kontekst bilan bog'liq qismidan xolos qilishga to'g'ri keldi. Natijada pragmatika semantikadan ajralib chiqdi"⁴³. N.Mahmudovning 1986-yil "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida nashr etilgan "Presuppozitsiya va gap" maqolasi pragmalingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiya va uning gap mazmunini tushunishdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Ushbu maqolada presuppozitsiya terminining mohiyati shunday izohlagan: "nutqiy kommunikatsiyaning to'g'ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo'lishi, umumiy vaziyat bilan bog'liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo'lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi"⁴⁴.

1994-yilda tilshunos olimlar U.Rahimov "O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi"⁴⁵, Z.Tohirov "O'zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo'lishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga kelishi"⁴⁶, M.Hakimov "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyalarini⁴⁷ himoya qildilar. M.Hakimov shu sohadagi ilmiy tadqiqotlarini davom ettirib, 2001-yilda "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini⁴⁸ muvaffaqiyatli himoya qilib lingvistik pragmatikaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shdi.

Sh.Safarov haqli ravishda o'zbek tili materiallarida lingvopragmatik muammolarni nazariy jihatdan tahlil etgan dastlabki

⁴³ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент, 2012. – Б. 245.

⁴⁴ Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 6. – Б. 26.

⁴⁵ Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 24 б.

⁴⁶ Тоҳиров З.Т. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага келиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 22 б.

⁴⁷ Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.

⁴⁸ Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

yirik tadqiqotchilardan biri sanaladi. Olimning ilmiy merosida kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika masalalarini tadqiq etish ham alohida o‘rin tutadi. 2008-yil nashr etilgan “Pragmalingvistika” monografiyasi⁴⁹da tilshunoslikning nisbatan yangi yo‘nalishi bo‘lgan lingvistik pragmatikaning bugunga qadar jahon tilshunosligida erishgan yutuqlarini umumlashtirgan va ilmiy-nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etgan holda bu sohaning istiqbollari haqida o‘z mulohazalarini bayon qilgan. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, olimning bu asari o‘zbek tilshunosligida yaratilgan va yaratilayotgan lingvopragmatik tadqiqotlar uchun asosiy manba sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Tilshunos olimi S.Boymirzayeva “O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar” mavzusidagi dissertatsiyasida⁵⁰ matnning kommunikativ-pragmatik mazmun hosil qilinish usullari va idrok etilishini belgilovchi pragmatik omillar, mazmun maydonida modallik va temporallik semantikasi, muloqot birligi sifatida ekspressiv ta’sirchanlikni ifodalash imkoniyatlari va matn hodisasining murakkab kognitiv tabiatini ilmiy-nazariy jihatdan faktik dalillar asosida yoritib bergan.

G.Toirova nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy muloqotning situativ pragmatik tizimi haqida kuzatishlar olib borib, pragmatik va paradigmatic tizimning farqli jihatlarini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, olimi nutqiy birlik va nutqiy muloqotning differensial farqini “nutqiy birlik – bu lisoniy birliklarning (invariantning) moddiy bir shaklda (variantda) voqelanishi bo‘lsa, muloqot birligi shu nutqiy birlik voqelanganda unga hamkorlik qiladigan, juda ko‘p hollarda aynan shu birlikning qo‘llash zaruratini belgilaydigan nolisoniy – shaxsiy individual situativ omillarning majmuasi” deb ko‘rsatadi hamda pragmatikaga izosign terminini kiritib, uni “izosign assotsiativ mohiyatiga ko‘ra turli paradigmalarga mansub, lekin o‘xshash, bir xil ijtimoiy – informativ qiymatga ega bo‘lgan diskret elementlarni bir pragmatik sistemaga birlashtiruvchi va shu birlashuvni grafik aks

⁴⁹ Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.

⁵⁰ Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 49 б.

ettiruvchi chiziqdir”⁵¹, – deb ta’riflaydi. Olima bu boradagi ishlarini davom ettirib 2017-yilda “O‘zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik” nomli falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

D.Xudoyberganova “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida matn yaratilishi va uning mazmuniy persepsiyasida shaxs omili masalasini tadqiq etgan. Tadqiqotda matnlarning yaratilishi va mazmuniy persepsiyasiga xos xususiyatlar kognitiv-semantik, psixolingvistik hamda lingvokulturologik aspektda yoritib berilgan. Tilshunos olim badiiy matn vositasida ifodalangan konsept, asosan, individual badiiy konsept sifatida muayyan tushuncha haqidagi tasavvurga muvofiq kelishi, geshtalt, asosan, shaxsning ichki yoki tashqi qiyofasini tasvirlash, tabiat manzarasi yoki biror predmetning ko‘rinishini o‘quvchi tasavvurida jonlantirish maqsadida yaratilgan matnlarda qo‘llanadi va shaxs ongi va tafakkurida birinchi navbatda psixologik geshtalt yuzaga keladi, individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi, degan xulosaga keladi. Lingvokulturologiyada esa matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlik ekanini qayd etadi. Tarkibida o‘xshatishlar, metaforalar, maqol va frazeologik birliklar, nutqiy etiketlar bo‘lgan badiiy matnlar o‘zida milliy-madaniy qadriyatlarni mujassam etgan lisoniy-madaniy fenomen sifatida qayd etiladi⁵².

A.Pardayev doktorlik dissertatsiyasida⁵³ o‘zbek tili yordamchi so‘zlarining lisoniy tizimdagi o‘rni, ularning paydo bo‘lish sabablari, yordamchi so‘zlar taraqqiyotida darajalanish, grammatikalizatsiya va transpozitsiya hodisalarining ahamiyatini belgilash va substansial-

⁵¹ Тоирова Г. Нутқий мулоқот ситуатив прагматик система сифатида: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 32 б.; Тоирова Г.И. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.

⁵² Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

⁵³ Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 77 б.

pragmatik tavsifi, shuningdek, yordamchi soʻzlar tahlilida sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarni farqlash hamda oʻzaro aloqalari kabi masalalarni yorqin koʻrsatib bergan.

Shuni alohida takidlash lozimki, keyingi oʻn yillikda lingvopragmatik aspektda tadqiqotlar olib borishga qiziqish sezilarli darajada ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Buning isboti sifatida G.Toirova, Sh.Toshxoʻjayeva, M.Qurbonova, F.Karimova, M.Umurzaqova, H.Turdiyeva, N.Qobilov, M.Xolmurodova, Sh.Yusupova, G.Saparbayeva, N.Hamroyeva, S.Azimovalarning lingvopragmatik aspektda bajarilgan dissertatsiyalarini⁵⁴ sanab oʻtish mumkin. Shunday qilib, oʻzbek tilshunosligida lingvistik pragmatika yoʻnalishida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Matnni pragmatik jihatdan oʻrganish bilan bogʻliq har bir ilmiy tadqiqotning oʻziga xosligi, izlanish metodlarining xilma-xilligi koʻzga tashlanadi.

Maʼlumki, inson nutqiy faoliyati uning ijtimoiy hayotdagi barcha faoliyatlari kabi muayyan bir pragmatik maqsad sari yoʻnaltirilgan boʻladi. Soʻzlovchi yoki matn muallifi tomonidan bayon etilayotgan fikr maʼlum pragmatik maqsadni nazarda tutadi: oʻz tuygʻularini,

⁵⁴ Тоирова Г.И. Ўзбек нуткий мулокотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.; Тошхужаева Ш.Г. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.; Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.; Каримова Ф.С. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.; Умурзакова М.Э. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 55 б.; Турдиева Ҳ.К. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 167 б.; Кобилов Н.Ў. Тоғай Мурод қиссаларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – 140 б.; Холмуродова М.И. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – 132 б.; Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 52 б.; Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 63 б.; Ҳамроева Н.Н. Ўзбек нуткий мулокотида фатика (илтифот мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. – 148 б.; Азимова С.Х. «Рад этиш» нуткий актларининг лингвопрагматик хусусиятлари (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 54 б.

munosabatini tinglovchiga bildirish, shuningdek, suhbatdoshni ma'lum kommunikativ harakatga da'vat etish, unga ta'sir ko'rsatish va buning natijasida uni navbatdagi nutq jarayoniga jalb etish bo'lishi mumkin. Matn ijodkori har bir fikrni ma'lum bir pragmatik maqsad bilan bog'laydiki, u kommunikatsiyada shu fikrning pragmatik mazmuni sifatida shakllanadi.

Albatta, badiiy matn yaratish murakkab. Yozuvchi obraz yaratish va personajlar nutqini individuallashtirishda ularning ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi kabi detallarga alohida e'tiborini qaratadi. Chunki shunga xos mavjud til birliklarining tanlovi muhim ahamiyatga ega. "Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilab beradi. Vaziyat uning shaklini va ko'p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo'lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi"⁵⁵.

Badiiy matnda tilning estetik vazifasi va ifoda imkoniyatlari keng. Bu imkoniyatlarning ta'minlanishida semantik-stilistik vositalarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular g'oyaviy pishqlik va estetik ta'sirchanlikning muhim omillaridandir. Ijodkor badiiy matn yaratuvchisi sifatida insonni yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tasvirlaydi. Fikrlovchi, harakat qiluvchi, his qiluvchi, o'z atrofidagi olam, odamlar bilan jonli munosabatda bo'luvchi subyekt tarzida kitobxon ko'z o'ngida gavdalanadi.

Muloqot jarayonida tinglovchi (ta'sir o'tkazilayotgan tomon) axborotni shunchaki, borligicha qabul qiluvchi adresat bo'lib qolmaydi, balki uning faol ishtirokchisi, uzatilayotgan axborotni tahlil qiluvchiga aylanadi. Xuddi shu jarayonda adresat qabul qilinayotgan axborotga, kechayotgan voqelikka baho beradi, uni idrok etadi. Matn ijodkorining bayon qilinayotgan yoki tasvirlanayotgan voqea-hodisa, obyektga munosabatini bilish, uning kitobxon yoki tinglovchi(o'quvchi)ni qanday harakatga undayotganligi, da'vat etayotganligini sezish bir oz murakkablashadi. "Aralashqo'rg'on" hikoyasidan olingan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

⁵⁵ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – Б. 34.

Oqsoqol eran-qaran hovliga chiqib, ayvon chetida pomidor tuzlab o'tirgan kampiridan so'radi:

– Kenjang ko'rinmaydi? Yana biqinib olib she'r to'qiyaptimi? Rostdan ham, boya choyxonadan kelganidan buyon shu bolaga ko'zi tushmadi. Ta'tili boshlangach, qachon qaramang, ayvon devoriga o'rnatilgan ko'zgu oldida qo'qqayib turib sochini taragani taragan. Ota ertalab bog' etagida betartib qalashib yotgan anovi temir-tersakni saranjomlab qo'yishni buyurgan edi. Bari o'sha-o'sha ahvolda turibdi.

– Hali podvalga tushib ketgani, salqin deb. Boshi og'riyotganmish. Sizdan sal oldinroq allatovur bo'lib kirib keldi. Rangi o'chgan. Qaydam (E.A'zam "Aralashqo'rg'on").

Keltirilgan matnda yozuvchi qahramon kayfiyati, his-tuyg'ularini batafsilroq ochish uchun replika(luqma)ning muallif remarkasi bilan o'zaro aloqasini, bayon bilan replika munosabatlarining alohida vazifalarini izlashga urinadi. Ya'ni, dialog jarayonidagi personajlarning nutqiy tavsifi, qiyofasi, ayni vaziyatdagi holatlarini ifodalovchi remarkalarni keltiradi va shu xususiyat hikoya davomidagi quyidagi dialogda yaqqol seziladi:

– Chaqir! Zinapoyada sochi hurpayib ketgan yoqavayron o'g'lini ko'rib oqsoqolning battar jig'ibiyroni chiqdi:

– Nima qilib yotibsiz, shoir?

– Nima qilay? – dedi o'g'il ko'zini ishqab. – Doim masxaraga olaverasiz!

– Bugun sochlari taroq ko'rmaganday?

– Hadeb tarayveradimi, deb urishasiz-ku o'zingiz!

– Davangirdek yigitning bekor shalpayib yurishini qarang!

– Nima qil deysiz, ayting! – O'g'il kutilmagan-da ho'ngillab yubordi.

– Shoir-shoir deysiz, nima, anaqaga o'xshaymanmi? Oqsoqol birdan bo'shashdi, ammo zahrini oxirigacha sochmay qo'ymadi:

– Mana shunday sasib yotaver! Yigit emish! Yigit degani biror ish ko'rsatmasa, yigit ekanmi?! Qoidasi. (Shunchaki, otalarcha bir javrash yo'lida og'zidan chiqib ketgan bu gapiga u keyin rosa pushaymonlar yedi).

Oqsoqolning boshi qotgan, o'zi ham nima qilishini bilmas edi. "Kimki shu kuchuk masalasini bir yoqli qilsa – o'sha bizga oqsoqol!" debdi-ya anovi pismi ko'zoynak! O'rgildim sizday saylovchidan! (E.A'zam "Aralashqo'rg'on").

Agar yuqorida keltirilgan dialogni nutq subyekti bilan bog'liq holda tahlilga tortadigan bo'lsak, bunda ifodaning ochiq va yashirin maqsadiga ko'ra suhbatdoshlar o'rtasidagi muloqotda *nima qil deysiz, ayting!, mana shunday sasib yotaver!, yigit degani biror ish ko'rsatmasa, yigit ekanmi?!, yana biqinib olib she'r to'qiyaptimi?* kabi so'roq, buyruq, iltimos, maslahat kabi nutqiy aktlar so'zlovchilar kommunikativ maqsadi amalga oshishiga xizmat qilmoqda. Nutqiy taktika va nutqiy muloqot turlariga ko'ra, jumla qurilishi yoki fikrning pragmatik ma'nosi *bugun sochlari taroq ko'rmaganday?, davangirdek yigitning bekor shalpayib yurishini qarang!* kabi ifodaning boshqa ma'nolari, ishoralar, shama, qochirimlar vositasida yuzaga chiqmoqda. Matnda pragmatik presuppozitsiya so'zlovchining aniq ma'lumotga egaligi, qiziqishlari, munosabat va qarashlari, ruhiy holati, adresatni tushunish xarakteri va layoqati kabi xususiyatlarini baholashida namoyon bo'lmoqda, so'zlovchining o'zi aytayotgan fikrlariga munosabati subyektiv xarakterga ega. Nutq ishtirokchilari muloqotida fikr mazmunini baholash, ya'ni uning rostligi yoki yolg'onligi, ironiya, ko'p ma'nolilik, jiddiy emaslik va boshqalar nutqni so'zlashuv uslubining dialogik shakliga moslamoqda.

Ekspressiv ta'sirchanlikning til tizimida voqelanishini ta'minlovchi ifoda vositalari keng ko'lamli va miqdoran boy, bu esa lisoniy axborotni ma'lum bir obyektga uzatish adresant shaxsning hissiy kechinmasi orqali yuzaga kelishidan hamda ushbu axborotni qabul qiluvchi adresat ham mavjud hissiyotni yoki emotsional-ekspressiv mazmunni yetarli darajada anglab olishi lozimligidan dalolat beradi. Badiiy matnda kommunikativ maqsadning samarali kechishida til birliklarining pragmatik vazifaga ega bo'lishi, implitsitlik, ironik mazmun kasb etishi quyidagi matnda ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

Jamoatchi muxbir uyiga keliboq, boshini changallab Kattakonning kuchugiga qarshi chora izlamoqqa tushdi. Bu baloyi baddan eng ko'p

*jabr ko'radigan o'zi ekan, o'ylab qarasa. Uyi naqd ro'parada, bir devorni demasa, xuddi o'zining hovlisida vovullayotgandek – chidab ko'ring-chi! Tabiatan tajang emasmi, turib-turib baqirib yuboradi: “Bo'ldi-e, padaringga la'nat!” Jonivorning padari betayin; tayini bo'lganda ham bir tajangning o'shqirig'ini tushunarmidi, parvo qilarmidi! Tushunadigan, parvo qilishi mumkin bo'lgan “dodasi” esa onda-sonda keladi. U keladigan fursatni muxbir yaxshi biladi, bunday mahalda damini ichiga yutadi. Bazo'r. Chidaydi. Lekin bir kuni chidayolmadi, toqati toq bo'ldi – o'tirib olib “Kattakonning kuchugi” degan feletonnamo maqola yozdi-da, o'zi hamkorlik qilib turuvchi sersahifa gazetaga olib bordi. Tanish muharrir uni o'qib ko'rib, “Xabar topsalar, akaxonimiz bizdan xafa bo'ladilar-a! Bunchalik ekan, bir siqim xamirmi yo go'shtga igna tiqib oldiga tashlasangiz-ku, olam guliston. Shunga ham gazetami, E.Safar?! – deya **matohini** qo'liga tutqazdi. Qalamkashlik vijdoni qo'zidimi, keyin sal yumshab, maslahat berdi: – Mayli, mana shu mo'tabar gazetamizni oldiga to'shab qo'ying, roziman. Qorong'i tushishini poylab-da”. “Iya, oldiga yaqinlashtirarmidi u **battol?!**” dedi E.Safar fig'on aralash. Muharrir “bilganingizni qiling” degandek nochorgina yelka qisib qo'ydi. Aftidan, Kattakonning yana bir hovlisi muharririmizning mahallasida, u yerdagi “**xonanda**”si biznikidan ham “**xushovoz**”roq bo'lsa kerak (E.A'zam “Aralashqo'rg'on”).*

Matnda muallif va personaj nutqida uyg'unlik hosil bo'lishida til birliklariga pragmatik vazifa yuklanishi badiiy asar tilining emotsional-ekspressivligini ta'minlaganligi, kommunikativ jarayonning pragmatik samara tomon yo'naltirilganligidan dalolat beradi. Munosabat ifodalashda haqorat, qarg'ish ifodalovchi birliklar “*Bo'ldi-e, **padaringga la'nat!***”, “*Iya, oldiga yaqinlashtirarmidi u **battol?!***”, zo'r ma'nosini ifodalovchi shevaga xos so'zlar “**dodasi**”, hurmat ifodalovchi “**akaxonimiz**”, arzimas ma'nosidagi so'zlar “*Shunga ham gazetami, E.Safar?! – deya **matohini** qo'liga tutqazdi*” qo'llanilgan. Bundan tashqari, matnda so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash bilan ironik mazmun kuchaytirilgan: Aftidan, Kattakonning yana bir hovlisi muharririmizning mahallasida, u yerdagi “**xonanda**”si biznikidan ham

“xushovoz”roq bo‘lsa kerak.

Erkin A’zam asarlari nutq adresati bilan bog‘liq holda lingvopragmatik nuqtayi nazaridan tadqiq etilganda adresant-adresat munosabatlari eksplitsit (ochiq), implitsit (yashirin) shakllar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Muallif bunda personaj individual tavsifini berishda ifodaning to‘g‘ri ma’nosidan yashirin va qo‘shimcha ma’nolarni chiqarish qoidalariga amal qilgan. Masalan, “Guli-guli” qissasida badiiy tavsif voqelikka mos kelmasligi zahirida so‘zlashuvga xos bo‘rttirish va dialogik nutqqa xos xususiyatlar jamlangan:

Sudini o‘zim ko‘rmaganman-u, ammo o‘shandagi biri biridan xunuk shov-shuvlar qulog‘imda qolgan: otuvga hukm qilinibdi, otilarmish; yo‘q, tirik ekan, yigirma besh yilga kesilibdi; Sibirga jo‘natganmish, samolyotda qishloq ustidan o‘tayotib hovlisini mo‘ljallab xat tashlagan ekan, xat to‘ppa-to‘g‘ri kelib chalpapak pishirayotgan Mayram kampirning (onasi) qozoniga tushibdi, unda “Qaytib kelib u g‘arzitning bor urug‘-aymog‘ini pichoqdan o‘tkazmasam, enam xotinim bo‘lsin!” deya qasam ichib yozgan emish; yo‘q-yo‘q, allaqachon otilib ketgan u, xo‘p deng endi, o‘tgan yili ayni mana shunday saraton kunlarida otilgan, a-aniq! Va hokazo (E.A’zam “Guli-guli”).

Matndan ma’lum bo‘ladiki, pragmatik mazmunni implitsit shakllantiruvchi vositalar o‘quvchiga ma’lumot berishdan tashqari matn mazmuniga qo‘shimcha implikatsiya, presuppozitsiya, propozitsiya, referentsiya, eksplikatura kabilarning kiritilishi orqali pragmatik mazmunni kuchaytirishga erishilgan.

Darhaqiqat, implikatsiya (lot. implikatio – yashirin, qog‘ozga o‘ralgan) muloqot jarayonida qo‘llanadigan mantiqiy usul⁵⁶. Demak, implikatsiya so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan muloqot jarayonida ochiq ifoda qilinmaydigan, suhbatdosh yoki kitobxonning o‘zi anglab oladigan (nazarda tutilgan, yashirin) axborotlar tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan “tadqiqotlarda implitsit, implikatsiya, implikativ, tagma’no (podtekst) kabi tushunchalarning aralash qo‘llanib kelayotgani,

⁵⁶ Стариченко В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – С. 213.

ko‘pincha ular turli tipdagi presuppozitsiyalar, semantik murakkab shakllar, turli shakllarda nazarda tutilgan, verbal ifodalanmagan axborot turlari bilan aralash ishlatilib kelinayotganligini ta’kidlash joiz⁵⁷.

Badiiy matnning lingvopragmatik tahlilida aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Bunda, albatta, nutqiy muloqot shakllari va ishtirokchilar subyektiv munosabati, pragmatik vaziyatda sodir bo‘layotgan nutqning ijtimoiy-etiketli tomoni hamda u yoki bu nutqiy aktda aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabat nutqiy strategiya va taktikalarning amalga oshishini ta’minlashdan tashqari matnning pragmatik samarasini belgilab beradi. Lisoniy vositalardan ma’lum bir maqsadda foydalanish jarayonida muayyan voqelikning namoyon bo‘lishi propozitsiya hisoblanadi.

Pragmatika nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o‘rganishi ko‘rsatiladi. Ya’ni, nutqiy ifoda bilan kontekst o‘rtasidagi o‘zaro munosabat pragmatikaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladi. Demak, nutqiy akt bilan kontekst o‘rtasidagi munosabat juda kuchli bo‘lganda, nutqiy akt ma’nosi kontekst bilan bog‘liq holda anglangan o‘rinlarda pragmatikaga ehtiyoj tug‘iladi⁵⁸. Haqiqatdan ham matn tarkibidagi deskriptiv, ya’ni indikativ (denotativ ma’noga ega bo‘lgan, atash vazifasini bajaradigan) so‘zlarni semantika o‘rganadi. Shunday ekan, pragmatikada indikativ bo‘lmagan ma’nosi kontekst bilan bog‘liq ma’lum vaziyatda reallashadigan jihati o‘rganiladi. Masalan:

Kelsam, “tupoy” ilmiy ishi – seminarga tayyorgarlik ko‘rib, allaqachon to‘shakka kiribdi.

*Seni, **tupoy** ekan, dedi. – Kulgim qistaydi. Kim? **Musofirmi?** (Hamid Bo‘riboy akaga shunday deb laqab qo‘ygan.) – U qiziqsingancha yostiqa yonboshlab oladi. – Hi! O‘ziyam mendan qolishmaydi. Ilmiy ish emish! Uylanish taraddudida yuribdi. Topganmish bittasini. Kvartira berishibdi. Yaqinda ko‘chmoqchi bu yerdan – mana, senga ilmiy ish! Qarasam, allaqaydagi savollar bilan boshimni qotiryapti, “Bor-e”, dedim. E, buyam o‘zimizga o‘xshagan bir*

⁵⁷ Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015. – Б. 74-75.

⁵⁸ Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 14

afandi-da. ***Sho‘rlik musofir!*** (E.A’zam “Aralashqo‘rg‘on”).

Yuqorida keltirilgan matnda qo‘llanilgan **tupoy** varvarizmining *hech narsani bilmaydi*, **musofir** so‘zida *o‘zi yashaydigan hududdan boshqa hududda yashaydigan kishilarga nisbatan ishlatiladigan* denotativ ma’nolari aniq. Lekin nima maqsadda Hamidni **tupoy** degani, Hamid esa Bo‘riboy akaga **Musofir** deb laqab qo‘yishi noaniq. Ana shu ma’nolarning matndagi keyingi qo‘llanilgan propozitsiyalar orqali reallashishi pragmatik ma’nosi bo‘ladi. Badiiy matnda shunga o‘xshash metaforik birliklar ko‘p qo‘llanadi. Bu semantik siljish jarayoni bo‘lib, assotsiativ tafakkurga asoslangan bo‘ladi. Aynan ana shu metaforik ma’nosidagi xususiyatlar inson ruhiyatiga ta’sir etadi. Inson xotirasida bu xususiyatlar ma’lumot sifatida saqlanadi. Shu bois metaforani in’ikos etuvchi individ muayyan tushunchalarni kognitiv idrok qiladi. Ekspressiv, assotsiativ maydoniga kiruvchi so‘zlar qo‘llanganda, u kitobxon ruhiyatiga kuchliroq ta’sir etishi mumkin. Badiiy asarda bunday metaforalar ma’lum bir ekspressiv ifoda sifatida eksplitsit yoki implitsit pragmatik vazifalar bajarishi mumkin.

1.2. Samarali nutqning uslubiy-pragmatik omillari

Muloqot muammolarini tadqiq etishda so‘zlash sababi nutq maqsadini aniqlaydi, ko‘zlangan maqsad bo‘lg‘usi nutq mazmunini shakllantiradi, buning uchun qo‘llanuvchi vositalar nutqning og‘zaki yoki yozma shaklini belgilaydi, nutq samarasi qanday bo‘lishi nutqda qo‘yilgan maqsad va tinglovchi yoki o‘quvchining o‘zaro mosligi darajasini ta’minlaydi. Nutqiy muloqot kim tomonidan, qanday maqsadda, qanday vaziyatda, qanday til birliklari vositasida amalga oshishidan qat’i nazar, uning asosida yagona model yotadi. Bu model esa o‘z navbatida so‘zlovchi yoki yozuvchi – axborot, ya’ni matn – tinglovchi yoki o‘quvchi, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali, muloqot a’zolarining maqomi, yoshi kabi a’zolaridan tashkil topadi⁵⁹. Har qanday matn lisoniy faoliyat natijasidir. Lisoniy faoliyat turli maqsad sari yo‘naltirilishi va ushbu faoliyatda til birliklaridan turli uslubda foydalanilganligi uchun yaratilgan matnlar

⁵⁹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 30-31.

ham turli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Badiiy matn boshqalaridan tubdan farq qiladi⁶⁰.

Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining, dilining sirli nuqtalarini yoritishdan iborat bo‘lsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy bo‘lagidir. Matn mazmunida so‘zlovchi yoki muallifning axborot uzatishdan tashqari, uni tinglovchi(o‘quvchi)ga tushuntirish, biror bir harakatga undash maqsadlari ham ifoda topadi. Kommunikativ maqsadning bu turlarining faollashuvi natijasida hosil bo‘ladigan matnlar turli mazmuniy guruhlariga ajraladi. Masalan, adresatni faollashtirish maqsadi ko‘zlanganda, ishontirish, qiziqtirish, biror bir his-tuyg‘u uyg‘otish, harakatga undash kabi mazmundagi nutqiy tuzilmalar yuzaga keladi.

Madaniy nutq samaradorligini ta‘minlashda asosiy tamoyil sifatida quyidagilarni belgilash maqsadga muvofiq: Nutq madaniyati – ma‘lum nutqiy vaziyatda lisoniy vositalarning nutqiy axloq va lisoniy me‘yorlarga amal qilib tanlangan qurilmasi hisoblanadi. U so‘zlovchining nutqning turli ko‘rinishlarida o‘z oldiga qo‘ygan kommunikativ maqsadining samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kommunikativ faoliyatda shaxslararo muloqotning pragmatik samaradorligini oshirishning muhim omillari me‘yoriylik, kommunikativlik, axloqiylik, lisoniy vositalarning tanlanishi va tashkillashtirilishi nutqning kommunikativ mohiyati va axloqiy me‘yoriylikning rivojlanish sharti hamda nutq samaradorligi nutq madaniyatining asosiy maqsadi ekanligi sanaladi. Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, jo‘yaliligi, ifodaviyligi kabi sifatlar muloqot samarasining asosiy omillaridir. Muloqot samaradorligi – bu nutq madaniyati nazariyasini amalda qo‘llashni yengillashtiruvchi omil hisoblanadi. Biz pragmatik samaradorlik deyilganda, o‘z oldimizga qo‘ygan kommunikativ maqsadga erishishning eng maqbul usullarini tushunamiz. Muloqotning kommunikativ maqsadi esa til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalar bilan chambarchas bog‘liq.

So‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan niyatining maqsadga muvofiq tarzda amalga oshishida tilning turli sathlariga oid lisoniy

⁶⁰ Боймирзаева С. Бадий матнда қўшма гап. – Самарқанд, 2008. – Б. 9.

birliklar hamda nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi lingvopragmatik vositalarning tanlanishi, ularning muomalaga kiritilishi bilan funksional-semantik va pragmatik xususiyatlari namoyon bo'lish imkoniyati mavjud joyda mazkur fan mundarijasi shakllanadi. Qachonki, nutq obyektiga ta'sir qilish ko'zda tutilgan, voqelik faktlarini baholash mumkin bo'lsa, muomala jarayonida oddiygina fonetik birlik ham o'ziga "yuk" olishi, o'zni bilan badiiy-estetik vositaga aylanishi mumkin. Kishilarning o'zaro muloqotga kirishishlarida so'zlovchining nutq qaratilgan shaxsga munosabati muhim o'rin tutadi. Mazkur munosabat subyektning subyektga, subyektning obyektga yaqinlik darajasidan kelib chiqadi, baholash vazifasini amalga oshirib, emotsional-ekspressiv leksik birliklarning muomalaga kiritilishiga keng yo'l ochadi. Nutqiy muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, mavzu, nutqiy sharoit, so'zlovchining lisoniy zaxirasi kabilarga bog'liq holda leksik birlik o'rinli qo'llanishi va shaxslararo muloqot samaradorligini oshirishi mumkin. Shundan ham xulosa qilish mumkinki, nutq jarayonida tanlash imkoniyati zaruriy shart sifatida tilning hamma sathlariga oid birliklarning barchasiga birday taalluqlidir. Yuqorida aytilganlardan nutq pragmatikasida til birliklarini tanlashda me'yor hodisasi yotganligi ma'lum bo'ladi. Tilshunoslikda me'yor tushunchasiga berilgan ta'riflarni ko'zdan kechirganda ularning hammasida umumiylik, bir-birini to'ldirish mavjudligi ko'rinadi. Demak, me'yor shaxslararo nutq madaniyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida avvalo, nutqiy faoliyat jarayonida mavjud bo'ladi, davriyligi jihatidan tarixiy yoki zamonaviy birliklarning tanlanishi natijasi hisoblanadi, qo'llanishi jamiyat a'zolari tomonidan belgilab qo'yilgan til vositalari jamlanmasi⁶¹ bo'lib, ijtimoiy ehtiyoj tufayli xalq tomonidan yaratiladi, xalq bilan birga yashaydi, tobora mukammallashib boradi⁶².

Shaxslararo muloqot samaradorligini oshirishda lingvopragmatikada muhim o'rin tutuvchi axloqiy qismning ham o'zni bor. Axloqiy

⁶¹ Ожегов С.И. Очередные вопросы культуры речи. – Основы культуры речи. Хрестоматия. – Москва: Высшая школа, 1984. – С. 200.

⁶² Головин В.Н. Основы культуры речи. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 18-19.

xususiyatlar insonning nutq orqali amalga oshadigan turli aloqalarida uni ma'lum mezonlar asosida ushlab turadi, me'yorga zid so'zlarni qo'llashdan qaytarib turadi. So'zlovchi yoki yozuvchi fikrlarining tinglovchi yoki o'quvchiga aniq va tushunarli yetib borishida, matn yaxlitligini ta'minlashda tanlash imkoniyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, har qanday nutqiy muloqot sodir bo'lishi uchun avvalo, nutq ishtirokchilari bo'lishi talab etiladi. Ikkinchidan, har qanday nutqiy muloqot zahirida so'zlovchining kommunikativ maqsadi yotadi. Uchinchidan, muloqot mazmunini tashkil etuvchi asosiy fikr so'zlovchi yoki yozuvchining tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy ma'lumotidan iborat bo'ladi. Bu esa o'z navbatida so'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishiga yo'naltiriladi. To'rtinchidan, asosiy fikr mohiyatida tezis, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchi g'oyasi yotadi va u ham mazkur g'oyani asoslashga, himoyalashga xizmat qiluvchi dalillarga ega bo'ladi. Shunday qilib, nutqiy muloqot kishilarning o'zaro aloqasi bo'lib, tildagi mavjud birliklar nafaqat kishilarning kundalik faoliyatida so'zlashuv nutqida, balki yozma shaklda munosabatga kirishishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot nutqiy faoliyat jarayonida verbal va nonverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi. Lisoniy nutqiy muloqot o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra to'rt yo'nalishni, ya'ni so'zlash, eshitish, o'qish, yozish kabi yo'nalishlarni birlashtirib turadi. Ana shu vazifadan kelib chiqib, muloqot jarayonida tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lumotni samarali tarzda yetkazish, ma'lumotni samarali tarzda qabul qilish, suhbatdoshni ishontirish yo'li bilan so'zlovchi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va shu orqali suhbatdoshni ma'lum bir xatti-harakatni amalga oshirishga yo'naltirish, suhbatdosh yoki mavzu to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, nutqiy muloqot samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi so'zlash, eshitish, o'qish, yozish kabilar nutqiy faoliyat ko'rinishlari hisoblanadi.

So'zlash ma'lumot yetkazuvchi nutqiy akustik signallarni jo'natish hisoblansa, eshitish esa nutqiy akustik signallarni qabul qilish va ularni mazmunan idrok qilishdir. Yozish esa nutqiy signallarni grafik belgilar

vositasida shifrlash bo‘lib, o‘qish esa grafik belgilarni va ularning ma’nosini tushunish hisoblanadi. Nutqiy faoliyatning mazkur to‘rt ko‘rinishi nutqiy aloqa jarayonining asosida yotadi. Insonning nutqiy malaka va ko‘nikmasi qay darajada ekanligi muloqot natijalari qanday bo‘lishini belgilaydi. Mazkur holatlar lingvopragmatikada til birliklarini tanlash imkoniyati shaxslararo muloqot samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

1.3. Badiiy matn – nutqiy muloqotning mukammal shakli

Samarali muloqot tamoyillarini ishlab chiqish va uning ko‘rinishlarini mukammallashtirish qadim qadimdan ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga daxldor bo‘lgan masalalardan hisoblangan. O‘tmishda o‘z fikrlarini ko‘pchilik oldida aniq va ixcham, tushunarli va ta’sirli ifodalashga alohida e’tibor berilgan. Fikr ifodalashda tildagi mavjud so‘z va iboralar, jummalarni to‘g‘ri tanlay olgan va mahorat bilan qo‘llab, insonlar bilan muloqotga kirishishni san’at darajasiga ko‘tara olgan kishilar notiq hisoblangan. Shuning uchun ilgari davrlardan beri nutq madaniyati hamda pragmatika biri ikkinchisini taqozo etadigan hamda o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.

So‘zlovchi yoki yozuvchining kommunikatsiya jarayonida o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi, nutqiy vaziyat, nutq qaratilgan shaxsning ijtimoiy nufuzi, o‘ziga nisbatan yaqinlik darajasi, yoshi, kasbi kabi jihatlarni e’tiborga olgan holda kommunikativ maqsadiga mos keluvchi lingvopragmatik vositalarni tanlay olishi hamda ularni samarali muloqotni ta’minlovchi birliklar sifatida ifodalanayotgan fikrlar mazmuniga singdirib yuborishi nutq madaniyatini hosil qiladi. Kishining til birliklarini pragmatik maqsadda qo‘llay olishni qay darajada egallagani kommunikatsiya jarayonida xususan, badiiy matnda o‘z fikrlarini tinglovchilarga ta’sirchan va jozibador tarzda yetkazishida o‘z aksini topadi.

Matn turlari o‘z mazmun-mohiyati, tuzilishi va hajmiga ko‘ra birbiridan farq qilsada, so‘zlovchi kommunikativ maqsadi, nutq qaratilgan shaxsning matn mazmunini idrok etishi va qabul qilib olishiga mos bo‘lishi lozim. Demak, inson nutqiy faoliyatida uning hayotiy tajribasi,

til birliklaridan foydalanish qobiliyati o'z aksini topadi. Inson nutqiy faoliyati esa o'z navbatida tadqiqotchini pragmatika tomon yetaklaydi. Chunki inson nutqiy faoliyatining turli sharoit va vaziyatlarda o'rinli va maqbul tarzda amalga oshishini nutqiy ifodaning illokutiv maqsadiga bog'liq holda tadqiq etish, muloqotning lisoniy tuzilishini, uning har xil tiplari va turlariga kiruvchi qoida hamda usullarni ishlab chiqish, har xil ifodalarning turli kontekstlarda namoyon bo'lishini o'rganish pragmalingsvistikaning dolzarb muammolari sanaladi.

Ma'lum bir kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi matn so'zlovchi nutqiy faoliyati mahsuli hisoblanadi. Til birliklari so'zlovchi tomonidan qanday maqsadda qo'llanilganligi, qanday vazifa bajarganligiga ko'ra nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun xoslanadi. Maqsadlar va vazifalar rang-barangligi matnlarning ham turlicha bo'lishiga olib keladi. Matnlarga kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi nutqiy vaziyatdan kelib chiqib obyektiv va subyektiv mazmun ifodalovchi hamda ma'lum bir lisoniy shaklga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida qarash mumkin. Matnning har bir turi til birliklarini qamrab olish doirasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, emotsional-ekspressivlik, estetik ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lgan badiiy matnlar alohida ajralib turadi.

Badiiy uslub doirasida qaraluvchi matnlar, avvalo, kitobxonga ma'lum bir voqea-hodisa to'g'risida ma'lumot beribgina qolmay, uning ruhiyatiga ham ta'sir o'tkazadi. Har bir badiiy matnni shakllantirishda badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlash ko'zda tutiladi. Badiiy asar ijodkorlari til birliklaridan foydalanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ijodkorning lisoniy vositalarni tanlash va qo'llay olish mahorati uning individual uslubini belgilab beradi. "Individual uslubni o'rganish asar matnini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan batafsil tahlil qilish hamda muallifning xususiy lisoniy faoliyatini aniqlash uchun muhimdir"⁶³. Bu turdagi tahlil har bir muallifning tildan foydalanish uslubini aniqlash, uning asar g'oyaviy mazmunini

⁶³ Иванцова Е.В. О термине «языковая личность»: истоки, проблемы, перспективы использования// Филология. Вестник Томского государственного университета. – Томск, 2010. – № 4 (12). – С. 24-32.

yoritishda, voqelikni badiiy bayon qilishda til vositalarini qo'llash mahoratini o'rganish uchun xizmat qiladi. Shu o'rinda badiiy personajlar o'rtasidagi muloqot matnida foydalanilgan lisoniy vositalar, ularning o'ziga xos shevasi va o'zgacha ohang, talaffuz, so'zlarni ishlatish xususiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutqni muallif nutqidan alohida ajratib olib o'rganib bo'lmaydi. Hikoyachi (so'zlovchi) nutqi uning o'zini o'rab turgan obyektiv voqelik to'g'risidagi tasavvurlari, voqelik hodisalari yuzaga kelish jarayonlarini o'z tafakkuri taxayyulidan o'tkazib, aniq tahlillarga asoslangan xulosalarga kelishiga bog'liq. Shu ma'noda hozirgi zamonaviy tilshunoslikda ma'lum bir muallif asarlarida muloqot matnining lingvopragmatik imkoniyatlarini o'rganishda, muallifning matn yaratishi, badiiy matn – til – nutq, yozuvchining ongi faoliyati – nutqiy faoliyat – matn – qabul qiluvchining ongi faoliyati kabi lingvopsixologik nuqtayi nazardan yondashiladi. Har qanday matn, u qaysi uslub yoki janrda bo'lishidan qat'i nazar, nutqiy faoliyat natijasi sifatida atrof-muhitni muallif ongida mental va lisoniy strukturalar shaklida aks ettiradi⁶⁴.

Lisoniy ijodkorlik markazida doimo “ong – til – olam” uchburchagi doirasida yozma va o'qiladigan fikrlar nuqtayi nazaridan “faoliyatdagi odam” turadi.

Muallifning idiolekti, ya'ni individual uslubi – bu so'zlovchi yoki yozuvchi mavjudligining namoyon bo'lishidir. Vazifaviy uslublarda ko'plab soha vakillarining nutqiy tajribalari shakllanadi, bunda nutqiy shaxs madaniy fikrlari aniq va anglangan lisoniy vositalar yordamida individual uslub sifatida namoyon bo'ladi. Bunda kishi olam yaralishi manzarasini qay darajada tasavvur qilsa, buni lisoniy birliklar yordamida tasvirlashi imkoni shunchalik keng bo'ladi.

Badiiy matnda estetik vazifa va yozuvchining lisoniy shaxs sifatida asar g'oyasi maqsadidan kelib chiqib muayyan o'ziga xos uslub shakllanadi. Bu o'ziga xoslik muallifning ijodiy shaxs sifatidagi uslubiy betakrorligidan darak beradi. Bilamizki, har bir shaxs o'ziga xos (betakror) xarakter va o'ziga xos olam manzarasiga ega. Bu olam

⁶⁴ Исупова М.М., Коптелова И.Е. Концептуальные метафоры в корпоративном праве// Вестник университета имени О.Е.Кутафина (МГЮА). – Москва, 2018. – № 11. – С. 59-67.

manzarasi va personajlarning dunyoqarashi imkoniyatlarini ochib bera olish yozuvchidan katta ijodiy mahoratni talab etadi.

Badiiy ijod – obrazli tafakkur mahsuli. Badiiy nutqning obrazli bo‘lishi lisoniy vositalarni to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llash bilan bog‘liq. Badiiy matn tahlilida asarning g‘oyaviy maqsadi, estetik mazmuni va matn tilini kognitiv-pragmatik jihatdan o‘rganish muhimdir. Chunki, ijtimoiy-psixologik xususiyat yozuvchi yoki shoirning idrok va tafakkur shaxsi sifatida ichki dunyosi va hayotni badiiy tasvirlash qobiliyatiga bog‘liq.

Badiiy matn murakkab diskursiv-muloqot jarayoni hisoblanadi. Badiiy matnni shakllantirishda yozuvchi asarning mavzusi, mazmun-mohiyati, obraz va personajlarning xarakteriga qarab so‘z, frazeologik birliklar va maqollarni tanlaydi, sintaktik qurilish, leksik-grammatik va semantik usul hamda presuppozitsiyalardan unumli foydalanadi. Shuningdek, badiiy matnda adabiy til me‘yorlariga amal qilinadi va shu bilan bir qatorda jonli muloqotdagi lisoniy unsur imkoniyatlari ham keng qo‘llaniladi. Obraz, personaj tilini individuallashtirish maqsadida vulgar va jargon iboralar ham ishlatiladi.

Inson ma‘lum matnni idrok qilishida yoki uni yaratishida o‘ziga xos bo‘lgan fikrlar tizimidan foydalanadi, bunda turli xil bilim va ishonch, tuzilgan aniq sxemalar, vaziyat ssenariysi, stereotiplar ham ishtirok etadi.

Har bir so‘z ma‘nosi doimo umumlashma xulosalar natijasi hisoblanadi. So‘z, xulosa va muloqot, fikr va aloqa birlashmasidir. Shuning uchun “agar tushuncha tayyor bo‘lsa, so‘z deyarli tayyor” bo‘ladi.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida matn va uning asosiy masalalarini tadqiq etish borasida ham ma‘lum bir ishlar amalga oshirildi. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining hozirgi davrida matn tilshunosligiga, til birliklarining matndagi funksional-semantik, pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda.

E’tirof etish lozimki, matn mohiyatini, uning lisoniy tabiatini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarda tadqiqotchilarning e’tibori asosan, uslubiy masalalarga, til birliklarining matnda tutgan o‘rni,

ularning funksional-stilistik xususiyatlarini aniqlashga qaratildi, uning sof lingvistik talqini, pragmatik imkoniyatlari esa ayrim tadqiqotlarda endigina tilga olinmoqda, kun tartibiga qo'yilmoqda.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili⁶⁵, alohida olingan ijodkorlar individual uslubi⁶⁶, matnni o'rganishning nazariy masalalariga⁶⁷ bag'ishlangan ma'lum ishlar amalga oshirilgan.

Matn yaratishda til birliklarini qo'llash bilan so'zlovchi yoki yozuvchining o'z kommunikativ maqsadiga erishishga harakat qilishi lingvopragmatikaning asosiy tushuncha va vazifalari bo'lgan nutqiy strategiyalarni qo'llashga yo'l ochadi. Bu nutqiy taktika va strategiyalarning amal qilish maydoni esa to'g'ridan to'g'ri badiiy matn hisoblanadi. Bu badiiy matn tahliliga pragmatik yondashuv to'g'ri ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

1.4. Badiiy matnni lingvopragmatik tahlil qilish tamoyillari

Badiiy matnning lingvopragmatik xususiyatlari, bu imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish, tilning ijtimoiy mohiyatini

⁶⁵ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 87 б.; Қиличев Э. Ўзбек тили практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 104 б.; Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 114 б.; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 60 б.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – 200 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

⁶⁶ Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.; Боймирзаева С.Ў. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 124 б.

⁶⁷ Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2003. – 86 б.; Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2005. – 60 б.; Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 96 б.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989. – 42 б.; Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000. – 36 б.; Шаҳобиддинова Ш., Исоқов З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 6. – Б. 75-76.; Мухаммедова Д. Микроматн кўринишида кесимларнинг тенг алоқага киришуви// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 6. – Б. 90-91.; Мухаммедова Д. Матн ва унинг турлари// Истиқлол ва тил. 3-қисм. – Тошкент, 2007. – Б. 17-19.; Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослигида матн ва уни ўрганиш муаммолари// Лингвопoeтика, структур филология ва когнитив таълим муаммолари (халқаро илмий анжуман материаллари). 2-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – Б. 24-28.; Йўлдошев М. Бадий матн лингвопoeтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопoeтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 124 б.; Йўлдошев М. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2008. – 120 б.

aniqlash uchun muhimdir. U badiiy matnning ijtimoiy, ruhiy-psixologik qonuniyat va tamoyillar asosida ro'yobga chiqishini, shuningdek, til tizimi semantik rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Shu o'rinda pragmalingsvistika ilmi bilimdoni Sh.Safarovning "Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi"⁶⁸ – degan fikriga to'liq qo'shilish mumkin. Zero, til birinchi navbatda so'zlovchining shaxsiy kommunikativ maqsadi, niyati, istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun tildan foydalanishda badiiy matn ijodkori (til shaxsi) bilan bog'liq tomonlarini o'rganish ham muhim. Chunki, badiiy matn yaratish – muallif nutqi, personaj nutqini individuallashtirish, portret, peyzaj va poetik obraz yaratish, leksik-frazeologik resurslar, ifoda-tasvir vositalari, xalq tili elementlaridan unumli foydalanish – yozuvchining mahoratiga, iqtidoriga bog'liq. Ammo nutq fikrning oynada aks etishi emas. L.S.Vigotskiy bu haqda quyidagicha yozadi: "Nutq fikrga ko'ynak singari kiyilishi mumkin emas... Fikr nutqqa aylanar ekan, qaytadan tuziladi va shakli o'zgaradi. Fikr aks etmaydi, balki so'zda ifodalanadi"⁶⁹. Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari kiradi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi.

Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingsvistik yondashuvning poydevoridir.

Pragmalingsvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi.

⁶⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 40.

⁶⁹ Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 1999. – С. 286.

Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o‘z “ichki” sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o‘rganilishida namoyon bo‘ladi⁷⁰.

Lingvistik pragmatikaning tadqiq doirasi keng bo‘lib, bu yo‘nalishda til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq jihatlari, kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, ifodaning subyektiv modal aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so‘z va vositalar, insonning ichki subyektiv ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozitsiya hodisasini o‘rganish maqsad qilib belgilandi⁷¹.

Nutqiy aktlar badiiy matn mazmunini voqelantiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, pragmatika termini mazmun-mohiyatiga ko‘ra faoliyat tushunchasi bilan bog‘liq. Shuning uchun uning lug‘aviy ma‘nosi amaliy ish mazmuni bilan aniqlashadi. Shunday ekan, lingvopragmatika til belgilarining nutqda bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi, uning mazmuni esa muloqotchilar o‘rtasidagi munosabat jarayoniga xos ifoda usuli va anglash mezonlari asosida namoyon bo‘lishidadir.

Pragmatikaga gapiruvchi subyekt, eshituvchi subyekt, so‘zlovchi – adresant, tinglovchi – adresat, ularning kommunikatsiyada o‘zaro bog‘lanishi, munosabatlari, aloqa qilish, suhbat qurish vaziyatlari bilan bog‘liq masalalar kompleksi ham kiritilgan. Shu tufayli lingvistik pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida mulohaza, fikr bildirishning eksplitsit (oshkora) va implitsit (yashirin) maqsadlari, so‘zlashuv taktikasi va so‘zlashuv fe‘l-atvori, pragmatik mazmuni (ko‘chma ma‘nolar, ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hokazo) adresatga nisbatan ta’siri namoyon bo‘ladi.

Matnning nutqiy asar sifatida yuzaga kelishi niyatga olib boruvchi

⁷⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 76.

⁷¹ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 15-17.

sababdan boshlanadi. Keyin esa soʻzlovchining ifodalashni koʻzda tutgan shaxsiy fikrlari shakllanishi yuz beradi.

Nutqiy faoliyatda uch muhim jihat dolzarb hisoblanadi:

1) chuqur semantik-sintaktik shakllarning semantik jarayonlari va shakllanishi;

2) leksik birliklar va ularning grammatik shakllarini tanlash;

3) nutq tiplariga asoslangan chuqur sxemalarni ishlab chiqish.

Har bir bosqich oʻz qoidalariga ega, har bir davrda alohida harakatlanish imkoniyati mavjud, butun sistema yaxlit. Harakatlar xarakteri individual. Tabiiyki, aynan shu holat soʻzlovchining nutqiy asarda individual uslubini namoyon qiladi.

Muallif obrazi va badiiy matn tahlili semantika va pragmatikada nutqiy asarni tashkillashtiruvchi asosiy markaz hisoblanadi.

Har bir tugallangan nutqiy asar doimo quyidagilar toʻgʻrisida maʼlumot beradi:

- asar yaratuvchisining fikrlash jarayoni haqida;
- uning nutqidagi maʼno, tushunchalar munosabati va xarakteri haqida;
- bu maʼnolarni oʻzlashtirish sifati haqida;
- fikrlarning ifodalanish usullari haqida;
- aniq nutqiy tafakkurning murakkab dinamik yaxlitlik sifatidagi xususiyatlari haqida;
- soʻz boyligi tarkibi haqida;
- maʼno ifodalovchi belgilarni tanlash haqida⁷².

Insonning serqirra ijtimoiy faoliyati toʻgʻridan toʻgʻri til bilan aloqador. Inson faoliyatini oʻrganish va uni turli nuqtayi nazardan tadqiq etuvchi fanlar u yoki bu darajada tilshunoslik fani bilan bogʻliq hisoblanadi.

Tilshunoslik oʻz taraqqiyoti davomida turli oʻzgarishlarga uchraganligi maʼlum. Shubhasiz, til jamiyat hayotida sodir boʻlgan har bir oʻzgarishni oʻzida aks ettiradi. Tadrijiy taraqqiyot natijasida til tinimsiz oʻzgarishlarga uchrab, mukammallashib borgan. Yozuvchi har bir davr kishisi obrazini yaratar ekan, soʻzlar tanlovida ham shu

⁷² <https://proza.ru/2014/11/07/1722>

jihatlarga e'tiborini qaratadi. Bu yozuvchidan alohida bilim, tajribani talab etadi. Tanlangan lisoniy birlikka pragmatik vazifa yuklanadi. Badiiy matnning xilma-xil janrlari mavjudligi, eng muhimi til bajaradigan muhim ijtimoiy vazifalardan biri – estetik ta'sirchanlikni ta'milashi bilan ajralib turadi.

Insonlar qadimdan tildan foydalanish va badiiy ijod namunalarini yaratishga alohida san'at darajasida munosabatda bo'lganlar. Darhaqiqat, har qanday badiiy ijod namunasi ma'lum bir xalqning ma'naviy xazinasini hisoblangan. Chunki unda shu xalqlarning orzu-armonlari, turmush tarzi, dini, urf-odatlarini, odobi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari to'g'risida ma'lumotlar aks etadi. Badiiy asar o'qigan kitobxon nafaqat ma'lumot olish bilan chegaralanadi, balki uning ruhiyatiga ta'sir etib, qalbida vatanga bo'lgan muhabbat, insonlarga bo'lgan hurmat kabi tuyg'ular rivojlanadi. Albatta, bunda badiiy asar uchun tanlangan lisoniy vositalarning semantik ma'nosi, stilistik tanlovi uning pragmatik qiymatini belgilab beradi. Shundagina yozuvchining "til shaxsi", ya'ni so'z qo'llash mahorati yaqqol seziladi.

"Ma'lumki, nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o'quvchi). To'g'ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot a'zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g'ayrilisoniy vositalarning ham o'rni benihoya muhim, hatto ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasiz muloqot jarayoni voqe bo'lolmaydi"⁷³.

Tilshunoslikdagi antroposentrik nazariyada tilni o'rganishga inson va uning faoliyatining kiritilishi psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika kabi tilshunoslik bilan bog'liq yangidan yangi yondashuvlar va sohalarning vujudga kelishi, rivojlanishiga zamin yaratdi. Til tufayli fikrlar shakllanish jarayoni ilmiy tadqiqotlarga yo'l ochdi: "Inson allaqachon dastlabki falsafiy, mantiqiy va psixologik tahlilni amalga oshirdi va uning natijalari tilda aks etdi hamda

⁷³ Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 30-31.

mustahkamlandi”⁷⁴. Bu holat, ayniqsa tilshunoslarning diqqat-e’tiborlarini matnga va uning lisoniy tabiatini o’rganishga ko’proq qaratayotganliklarida ham seziladi. Chunki matnning lisoniy xususiyatlarini o’rganish ma’lum bir badiiy asar tili hamda ijodkorning individual uslubi to’g’risida ham aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi. Matn va uning o’ziga xos xususiyatlari filologiya ilmi bilan u yoki bu darajada bog’lanuvchi pragmatika, uslubiyat, psixolingvistika, etika, estetika kabi soha tadqiqotchilarini ham birday qiziqtirib kelishi tilshunoslikning alohida sohasi bo’lgan matn tilshunosligining shakllanishiga turtki berdi. Alohida olingan badiiy asarning tili va uslubi tadqiq etilganda, avvalo, asarning g’oyasi, mavzu mohiyatini tasvirlashda qo’llanilgan lisoniy birliklar, so’zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishiga xizmat qiluvchi leksik-frazeologik vositalarning badiiy asar tilidagi o’rni belgilab olinadi. Ma’lumki, badiiy asarda inson hayotining turli tomonlari qamrab olinadi va unda har xil masalalar to’g’risida so’z boradi. Muallif asarda personajlar nutqi orqali turli insoniy munosabatlarni yoritib beradi, voqelik faktlarini ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi. Asar personajlarining turli xil ruhiy holati, quvonchi, qahr-g’azabi, tanbehi, tahdidi, haqorati, maslahati kabilar tilda mavjud bo’lgan lisoniy vositalar yordamida voqelanadi.

Badiiy asar yaratish uchun yozuvchining tafakkurdagi idroki (matnni shakllantirish motivi, strategiya va taktikalari) ham lisoniy voqelanishi murakkab kognitiv, stilistik, semantik va pragmatik doirada yuzaga keladi. Xuddi shu sababga ko’ra **pragmatika** – semantika, stilistika va sintaksis sohalarida o’rganiladigan masalalarni qamrab oladi hamda o’ziga xos umumlashtiruvchi soha vazifasini o’taydi. Darhaqiqat, pragmatika uchun inson belgidan qanday, qachon, nima uchun (qanday maqsadda) foydalanadi, bu qanday (qay yo’sinda) bajariladi kabi masalalar muhim bo’lsa, unda belgilarning o’zaro birikib, lisoniy struktura tuzishi (**sintaksis**) hamda ushbu belgilar hosilasi bo’lmish **matn** (muloqot) strukturasi, ulardan foydalanuvchilar istagidagi ma’noni

⁷⁴ Шатуновский И.Б. Семантика предложения и нереферентные слова. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С. 21.

ifodalash mumkinligi (**semantika**), soʻz, soʻz shakllari va uslubiy vositalarni tanlash hamda qoʻllash (**stilistika**) haqidagi savollar ham pragmatik tahlil qamroviga oʻta boshlaydi. Shunday ekan, matnning pragmatik tadqiqida yuqoridagi (semantika, stilistika kabi) sohalardan ayro tahlil qilishning iloji yoʻq. Lingvopragmatika muloqotning real sharoitda mavjudligi va vazifa bajarishi bilan bogʻliq masalalar toʻgʻrisida bahs yuritadi, boshqacha aytganda, pragmatika kontekst tarkibidagi maʼnoni tadqiq etish bilan shugʻullanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, matn bilan bogʻliq masalalarni zamonaviy tilshunoslik talablari asosida tadqiq etgan tilshunoslardan biri Muhammadjon Hakimov hisoblanadi. Olim oʻzining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasida mavzu mohiyatini va matn bilan bogʻliq tomonlarni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilishga intilgan. U jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlarga tayangan holda tilshunoslikda hozirga qadar munozarali hisoblangan nutqiy akt nazariyasiga eʼtiborni qaratib, matnda ochiq (eksplitsit) va yashirin (implitsit) fikr ifodalash usullarining oʻziga xos xususiyatlari, fikr ifodalashda tagmaʼnoning oʻrni kabi masalalarga oydinlik kiritgan. M.Hakimovning tadqiqotlari oʻzbek tilshunosligida mazkur yoʻnalishda yaratilgan ishlardan keng qamrovli ekanligi, mukammalligi bilan ajralib turadi. Olim “maʼno” tushunchasini matn yoki nutq tarkibidan xususiy maʼno koʻrinishlariga xos illokutiv akt sifatida ajratib olish asosida izohlaydi. Soʻzlovchi matn yoki nutqni talaffuz qilish orqali nimanidir aytishni niyat qiladi. Ana shu niyat illokutiv akt ekanligini toʻgʻri koʻrsatadi. Kishilar oʻrtasidagi aloqa-aralashuvning bosh lisoniy birligi sifatida illokutiv aktning ajratib olinishi bu nazariyaning muhim jihati hisoblanadi.

Nutqiy akt tushunchasi insonlar oʻrtasidagi muloqot jarayonida sodir etiluvchi oʻzaro maʼno aktlari munosabatining bayonidir⁷⁵.

Mavjud lingvistik adabiyotlarda koʻrsatilishicha, nutqiy akt tasnifi jarayonida quyidagi lisoniy mezonlarni hisobga olish tasnifning toʻgʻri yakunlanishi uchun asos boʻladi. Jumladan, nutqiy akt mohiyatini koʻrsatib turuvchi illokutiv akt bosh lingvistik mezon sanaladi. Shu

⁷⁵ Бу ҳақда қаранг: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 318 б.

ma'noda so'zlovchi va tinglovchining psixologik holatini e'tiborga olish tasnif mohiyatining to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, so'zlovchi va tinglovchi qiziqishlari munosabati ham muhim hisoblanadi.

Propozitsional mazmun bilan munosabat yo'nalishi o'zaro muvofiq yoki nomuvofiqligi ham nutqiy akt uchun ma'lum qimmatga ega. Umuman, matn semantik tuzilishi tahlilida propozitsiya, yashirin ma'no komponentlari tagma'no, allyuziyaning chegarasizligi kabi mazmun elementlarining hisobga olinishi nutqiy akt tasnifi uchun mezon bo'la oladi.

M.Hakimov nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Reprezentativ yoki xabar akti (asosan tasdiq akti sodir etiladi).
2. Undash aktlari (buyruq, taklif, iltimos, so'roq, maslahat).
3. Majburiyat yoki komissiv aktlari (va'da, qasamyod, tasdiq, xabar).
4. Ekspressiv aktlar (minnatdorchilik, tabrik, kechirim so'ramoq, his qilmoq, afsuslanmoq, salomlashmoq).
5. Deklerativ akt (deklerativ akti sodir etish huquqi faqat ma'lum ijtimoiy mavqe faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxsga beriladi)⁷⁶.

Ko'rinadiki, nutq tushunchasi so'zlovchining idrok qilish va ifodalash faoliyatining mahsuli sifatida qator yangi yo'nalishlarning obyekti bo'lishi mumkin. Nutq hodisasi so'zlovchining nutqiy faoliyati bilan bog'liq bo'lganligi uchun nutq jarayonini sodir etayotgan shaxs faoliyatini to'liq ifodalash ma'nosida **nutqiy akt** terminidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu termin tilshunoslik fanining alohida yangi yo'nalishi nomi sifatida ilmiy tadqiqotlarda va lingvistik lug'atlarda qayd etilgan.

Biz ishimizda, lingvistik tadqiqotning pragmatik tashkiliy, tarkibiy qismi haqida so'z ochib, quyidagi tushunchalar bilan ish olib boramiz: "pragmatik mazmun", "pragmatik vazifa", "pragmatik samara", "pragmatik imkoniyat", "kommunikativ maqsad", "kommunikativ situatsiya", "kommunikativ strategiya".

"Pragmatik mazmun" konfiguratsion yoki semantik-pragmatik

⁷⁶ ҲАКИМОВ М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 с.

rejaga kiradi va semantik referensiyani birlashtiradi – matnning ayrim tematik negiz bilan munosabatdorlik; “fikr bildiruvchanlik” – predikativ (kesimlik) – modal tavsiflari; shuningdek, “argumentlangan (dalillar bilan isbotlangan) dastur” – matnning illokutiv tavsifini “makrofikr bildirish” singari, boshqacha aytganda, uning kommunikativ mazmunini anglatadi.

“Pragmatik vazifa” deganda biz turli kommunikativ maqsadlarga erishish uchun nutqda (so‘zlashuvda) lingvistik birliklarning potensial kommunikativ-pragmatik xususiyatlaridan foydalanishni tushunamiz. Baholash hodisasining “pragmatik vazifalari” ostida bizlar undan nutqda (so‘zlashuvda) foydalanishning maqsad va mohiyati, uning dolzarb, juda muhim muammoligini anglaymiz.

“Pragmatik samara” deganda biz so‘zlovchi o‘z nutqida baholash so‘zlaridan foydalanib, eshituvchiga ta’sir o‘tkazish natijasini tushunamiz. Pragmatik samara o‘z tarkibiga faqat pragmatik ta’sir mexanizmlarini qo‘shib qolmasdan, balki kommunikatsiya jarayonida muayyan ekstralingvistik samaraga erishish imkoniyatini ham kiritgan.

Kommunikativ maqsadga erishish uchun so‘zlashuvchi o‘z jumlasini shunday qilib tuzadiki, u uchun eng muhim bo‘lgan informatsiyani ta’kidlashi birinchi navbatda turishi lozim. Shu bilan so‘zlashuvchi hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo‘zg‘atib, unga ta’sir o‘tkazadi. Bunda ta’sirning quyidagi ko‘rinishlarini qayd qilish mumkin:

- hamsuhbatning xabardorligi darajasi kengayishini;
- uning emotsional holatidagi, nuqtayi nazarlari va baholashdagi o‘zgarishlarini;
- u bajargan harakatlarga ta’siri, estetik samara.

Badiiy matn haqida fikr yuritar ekanmiz, yirik tilshunos olim N.Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash noo‘rin bo‘lmaydi: “So‘zni ham so‘ylatgan, ham o‘ylatgan va shuning barobarida ming bir ishva bilan hech bir iddaosiz o‘ynatgan, tilning tafakkur va taxayyul bobidagi imkoniyatlariga favqulodda ko‘lam va qamrov baxsh etib, uni betakror badiiyat deyiladigan arshi a’loga ko‘tarmoqday muntazam mashaqqatdan hamisha huzur va hayrat tuygan, butun hayotining mazmunini ana shu hayrat va huzurni boshqalar bilan bo‘lishmoq,

baham ko‘rmoqdan iborat deb bilgan ijodkorning umri boqiydir. Chunki hayrat va huzur, insoniyat paydo bo‘libdiki, dunyoning hamma mintaqalarida hamma zamonlarda yurakning yumushi, qalbning qa‘ridagi qadri baland to‘lqin va tiniqish sifatida namoyon bo‘ladi. Demakki, ayni shu hayrat va huzur o‘zining ijodkori uchun ham insonlar qalbidan joy hozirlaydi, bu joy esa minnatsiz, ammo minnatdor qalbning eng muhtasham va mahram nuqtasidir”⁷⁷.

Muayyan kommunikativ vaziyatda bo‘la turib, so‘zlashuvchi, ma’lum bir kommunikativ maqsadni ko‘zlab, to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita hamsuhbatiga ta’sir o‘tkazadi va qo‘yilgan kommunikativ maqsad, shuningdek, munosabat, aloqada bo‘lish, kommunikativ vaziyatning o‘zi ham tilga oid vositalarni adekvat tanlashga, kommunikatsiyaning mavzusi va shakliga doimo ta’sir qiladi. Boshqacha aytganda, so‘zlashuvchi maksimal effektga erishish uchun qat’iy kommunikativ strategiyaga rioya qilishi lozim. Shunda so‘zlashuvchi tanlab olgan tilga oid vositalar juda muhim ma’naviy yuklamaga ega bo‘ladi.

Modomiki, baholovchi so‘zlardan foydalanish hisobiga mulohaza, fikr bildirishning ta’sir kuchi oshsa, bir qator kommunikativ strategiyalarni ishlatishda baho ottenkali lisoniy vositalardan foydalanish esa samarali bo‘lsa, biz mazkur lingvistik hodisaning muayyan pragmatik potentsiali haqida bemaol gapirishimiz mumkin. Shunday qilib, baholash munosabatining **“pragmatik imkoniyati”** deganda biz kommunikativ intensiyalarni ifodalashda baho ifodalovchi birliklarning potentsial imkoniyatlarini tushunamiz.

Umuman, nutqiy akt nazariyasiga oid ma’lumotlarni o‘rganish pragmatika, va uslubshunoslik sohalarining to‘ldirilishiga, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham shaxsning ichki ma’naviy qiyofasi bilan aloqador holatlarni uning nutqi asosida tahlil qilishning yana bir imkoniyati borligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Demak, badiiy asar matni boshqa turdagi matnlardan lisoniy shakli, mazmun ifodasi jihatidan tubdan farq qiladi. Bu farq, birinchi navbatda, lisoniy shaklda, ya’ni matn shakllanishida til birliklari

⁷⁷ Ўша маҳба. – Б. 30.

ishtirokida namoyon bo‘ladi. “O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida qayd etilganidek, “badiiy nutq stilida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy nutq o‘zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funksional stillaridan ajralib turadi”⁷⁸.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlarni ilk bor o‘rgangan M.Hakimov nutqiy aktning mazmuniy va shakliy tuzilish xususiyatlari asosida uning quyidagi masalalari ajratilishini ta’kidlaydi⁷⁹.

1. Nutqiy akt faoliyat sifatida shakliy tuzilmaga ega bo‘ladi. Nutqiy aktning shakliy tomoniga til birliklari (modellari), intonatsiya va kinesika kiradi. Bular ma’lum axborot ko‘rinishini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Ana shu axborot mazmuni esa so‘zlovchining maqsadini yuzaga chiqaradi. Nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi kommunikasiya jarayonida verbal ifodalar semantik qatoriga noverbal ma’no ifodalash shakllaridan biri bo‘lgan so‘zlashuvchilarning xatti-harakatlari vositasi bilan fikr bayon qilishlari ham nutqiy akt doirasiga kiritiladi. Shuning uchun ham ifodaning noverbal ko‘rinishlari nutqiy aktning asosiy masalasi hisoblanadi. Kommunikatsiya jarayonidagi bunday fikr ifodalash so‘zlovchining harakat faoliyati bilan amalga oshiriladi. U o‘zining munosabatini nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, obyektiv borliqqa hamda o‘zi ifodalagan verbal axborot mazmuniga faqat harakatlar vositasi orqali ham ifoda etadi. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, ifodaning noverbal ko‘rinishlari nutqiy aktning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Ifodaning talaffuz akti bilan bog‘liq bo‘lgan ohang vositasida ma’noning farqlanishi ham nutqiy akt masalalaridan biridir.

2. Nutqiy aktning mazmuniy yo‘nalishi. Bu yo‘nalishda pragma-semantik komponentlar ishtirok etganligi uchun bular nutqiy aktning asosiy yo‘nalishi deb qaraladi:

a) bayon qilingan ifodada propozitsiya (ifoda diktumi) masalalari.

Propozitsiya, propozitsional munosabat xususida ma’lumot bermay turib, nutqiy akt muammolarini hal etib bo‘lmaydi. Nutqiy akt har

⁷⁸ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 30.

⁷⁹ ҲАКИМОВ М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

qanday ifoda orqali bayon qilingan nutq predmeti haqidagi axborotning semantik tuzilishida joylashadi hamda soʻzlashuvchilar shaxsi bilan uzviy bogʻliq boʻladi. Masalan, *“Bugun adabiyot darsi boʻladi”* degan oddiy propozitsiya *“Avval adabiyot darsi boʻlmaganligi”* xususidagi presuppozitsion axborotning *“tasdigʻi”* hisoblanadi. Nutqiy akt ifoda propozitsiyasi taʼsirida namoyon boʻluvchi soʻzlashuvchilarning xususiy munosabatlarini koʻrsatuvchi minimal va maksimal maʼnolardir;

b) adresatga taʼsir etish usuli – illokutiv funksiya, motiv, maqsadning ifoda semantik tuzilishidagi oʻrni. Nutq ishtirokchilarining kommunikatsiya jarayonidagi nutqiy faoliyati bilan bogʻliq ravishda nutq parchasida bayon qilingan xabarning haqiqiyliги xususidagi tasdiq mazmunidir. Soʻzlovchi mavjud propozitsiyani berish, uning haqiqiyligini tasdiqlash asosida oʻzining kommunikativ (illokutiv) maqsadini bayon etadi. Soʻzlovchi biror voqelik toʻgʻrisidagi propozitsiyani bayon etish bilan birga butunlay boshqa voqelik xususidagi axborotga ishora qilish, unga tinglovchi diqqatini jalb qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi.

Xullas, nutqiy akt tushunchasi uning semiologik plan asosida ajratilgan lokutsiya, propozitsiya, illokutsiya hamda perlokutsion aktlar tahlilida oʻzining aniq lisoniy mezoniga ega boʻladi. Badiiy matnning bu masalalarini oʻrganish lingvistik pragmatika va uslubshunoslik sohalarining nazariy jihatdan toʻldirilishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matn va tagmaʼno masalalarini oʻzaro farqlash uchun ham nazariy mezon boʻlib xizmat qiladi.

Birinchi bob boʻyicha xulosalar

Muloqot shakllarining oʻrganilishi va pragmatik ahamiyati tahlili jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oʻzaro kommunikativ faoliyatda subyektlar, lisoniy va nolisoniy vositalar, ehtiyoj, motiv, kommunikativ maqsad, nutqiy strategiya va taktika, oʻzaro taʼsirning aloqa jarayonida aks etishi hamda nutqiy samara muloqotning asosiy komponentlaridir. Badiiy matn ana shu komponentlarning lingvopragmatik imkoniyatlarini yoritishda muhim vosita hisoblanadi.

2. Kommunikativ (aloqa quroli, vosita), ekspressiv (fikrni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash hamda farqlash mavjudligi) kabi xususiyatlar muloqot vazifalariga kiradi.

3. Nutq pragmatik jihatdan nutq subyekti bilan bog'liq holda o'rganilganda ifodaning ochiq va yashirin maqsadi, nutqiy taktika va nutqiy muloqot tiplari; hamkorlik deb ataluvchi prinsipga bo'ysunuvchi, nutqiy muloqotning qabul qilingan maqsad va so'zlashuv yo'nalishiga muvofiq qurilgan so'zlashuv qoidalari; so'zlovchi qurilishi yoki fikrning pragmatik ma'nosi: ifodaning boshqa ma'nolari, ishoralar, shama, qochirimlar; so'zlovchining tavsifi, ya'ni so'zlovchining niyatidan kelib chiqib, lisoniy ifodaning voqelik predmetiga taalluqliligi, pragmatik presuppozitsiya: so'zlovchining umumiy bilim zahirasi, aniq ma'lumotga egaligi, qiziqishlari, munosabat va qarashlari, ruhiy holati, adresatni tushunish xarakteri va layoqati xususiyatlari asosida baholashi; so'zlovchining o'zi aytayotgan fikrlariga munosabati: a) fikr mazmunini baholash (uning rostligi yoki yolg'onligi, ironiya, ko'p ma'nolilik, jiddiy emaslik va boshqalar); b) qiziqish fokusiga so'zlovchi suhbatlashayotgan shaxslardan birini kiritish yoki empatiya (S.Kun termini); v) fikrni ma'lumotda ko'proq e'tibor qaratilishiga muvofiq holda tashkillashtirish kabilarga tayaniladi.

4. Nutq adresati bilan bog'liq holda o'rganilganda nutq sharhi, jumladan, ifodaning to'g'ri ma'nosidan yashirin va qo'shimcha ma'nolarni chiqarish qoidalari; bu qoidalarda kontekst, pragmatik vaziyat va presuppozitsiya, so'zlovchi ongli ravishda muloqotdan chekinishi mumkinligidagi maqsadi (masalan, o'z vaqtidalik tamoyilining buzilishi, adresatga ma'lum bo'lgan narsalar va shu kabilar haqida ma'lumot berish) hisobga olinadi; fikrning adresatga ta'siri (Ostin bo'yicha perlokutiv samara): adresatning xabardorligi kengayishi; adresatning emotsional holatida, qarashlari va baholashida o'zgarish; ular tomonidan qilingan harakatga ta'sir; estetik ta'sir va shu kabilar; olingan omilga nutqiy munosabat bildirish tiplari (to'g'ri va qo'shimcha reaksiyalar, masalan, savolga to'g'ri javob berishdan qochish)ga e'tibor beriladi.

5. Aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabatga ko'ra o'rganilganda nutqiy muloqot shakllari (xabar mazmunidagi dialog, do'stona suhbat, bahslashuv va sh.k.); nutqning ijtimoiy-etiketli tomoni (murojaat shakli, muloqot uslubi); u yoki bu nutqiy aktda aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabat (qiyoslang: iltimos va buyruq) hisobga olinadi.

6. Nutqiy vaziyatga ko'ra o'rganilganda deydik belgilar, nutqiy vaziyatning aloqa mavzusi va shakliga ta'siri muhim pragmatik omil sifatida namoyon bo'ladi.

II BOB. ERKIN A'ZAM ASARLARIDA "TIL SHAXSI" NAMOYON BO'lishining lingvopragmatik XUSUSIYATLARI

2.1. Til shaxsining lingvopragmatik tabiati

Ma'lumki, kommunikatsiya jarayonida adresat o'z fikrlarini nutq yo'naltirilgan shaxsga yetkazishda o'z oldiga ma'lum bir maqsadni qo'yadi. Maqsadning qanday bo'lishi va adresat ongida uni amalga oshirish yo'llarining taxminiy tarzda shakllanishi nutqiy muloqot samaradorligini ta'minlash uchun tanlangan til birliklarining funksional-pragmatik tabiatini belgilab beradi. Shunga ko'ra, u tomonidan shakllantiriladigan matnda til birliklari turli lingvopragmatik vazifalarni bajarishga uslubiy xoslangan bo'ladi.

Har qanday badiiy asar matnida muallif lisoniy shaxsi va personaj lisoniy shaxsi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Lisoniy shaxsning lingvopragmatik tabiati deyilganda avvalo, lisoniy shaxs amal qilishida til birliklari ishtirok etishi, so'zlovchi nutqiy harakatida so'zlarning faoliyatga kirishuvchi, ya'ni o'zida til bajaradigan ijtimoiy vazifalarni aks ettirish bilan adresatga ta'sir o'tkazishi va bularning barchasi birgalikda lisoniy shaxsni tavsiflashini tushunish mumkin. Albatta, bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, yozuvchi (so'zlovchi) obraz yaratishda personaj nutqi shaxsining ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi, o'ziga yaqinlik darajasi, kasbi, nutqiy muloqot bo'lib o'tayotgan vaziyat, joy kabilarni hisobga olib, tilda mavjud bo'lgan birliklarni tanlaydi va o'z kommunikativ maqsadidan kelib chiqib ularni qo'llaydi. Bu jarayonda ishtirok etuvchi barcha komponentlar, verbal va noverbal vositalarning qo'llanishi bevosita pragmatik maqsadga bog'liq. So'zlovchi yoki yozuvchi ana shu maqsaddan kelib chiqib, til birliklarini tanlaydi, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, noverbal harakatlarni amalga oshiradi. Professor Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "...muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko'p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo'lgan lisoniy va nolisoniy omillar

tabiati va turlarini belgilaydi”⁸⁰. Tanlash imkoniyatining mavjudligi bir tomondan til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishi uchun xoslab qo‘ysa, ikkinchidan ularni ma’lum vazifalar bilan qurollantirib faoliyat sari yo‘naltiradi. Bu til birliklarining lingvopragmatik funksional ko‘lamini belgilab beradi. Tilning ijtimoiy vazifasi faqat til birliklari vositasidagina namoyon bo‘ladi. Mazkur birliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, faoliyat birligi, ma’lumot yetkazish vositasi sifatida qo‘llanish imkoniyatlari matnda to‘la-to‘kis amalga oshadi. Matn inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil qiluvchi markaziy tushunchalardan biri sifatida ushbu faoliyatning boshqa qismlari bilan doimiy munosabatda bo‘ladi. Uning mavjudligi esa bevosita inson tushunchasi bilan bog‘liq. Inson tushunchasi esa tadqiqotlarda **“lisoniy shaxs”** atamasida voqelanadi. Shu o‘rinda lisoniy shaxs deganda nimani tushunamiz, uning o‘ziga xos xususiyatlari nima degan savollar mazkur tushuncha mohiyatini birmuncha yoritishni taqozo qiladi.

Ma’lumki, bugungi kunda “lisoniy shaxs” tushunchasi zamonaviy tilshunoslikning markaziy fenomen hodisasi sifatida kategorial maqomini egallamoqda. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu tushunchani tilshunoslikning yangi yo‘nalishi – antropolingvistika rivojlanishi uchun dastlabki bosqichiga xizmat qiluvchi obyekt sifatida baholamoqda⁸¹. Bu terminning psixolingvistika, lingvodidaktika, badiiy nutq stilistikasi, lingvokulturologiya, kommunikativ lingvistika kabi bir qator ilmiy yo‘nalishlarda qo‘llanilayotganligining guvohi bo‘lyapmiz.

Tadqiqotlarda keng diapazonda qo‘llanilayotgan “lisoniy shaxs” atamasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, xarakterli belgilarini umumlashtirish – gumanitar fanlar integratsiyasida, shuningdek, lingvistikaning ichki, uning turli bo‘limlarining o‘zaro rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishda muhim omil hisoblanadi.

Milliy-madaniy qatlam turlari – bu makon, zamon, vaqt, taqdir, huquq, vijdon, o‘lim va hokazolar. Bu milliy-madaniy turlar ma’lum bir qadriyatlarning mavjud tizimining o‘ziga xos tomonlarini namoyon

⁸⁰ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – Б. 34.

⁸¹ Кочеткова Т.В. Проблема изучения языковой личности носителя элитарной речевой культуры (обзор)// Вопросы стилистики. – Саратов, 1996. Вып. 26. – С. 14-24.

qiladi va ijtimoiy xatti-harakatlar va olamni idrok qilish obrazlarini belgilab beradi. Bu shunday o'ziga xos belgilar tizimiki, u faqatgina shaxsni shakllantiribgina qolmasdan, til shaxsining ham shakllanishiga sabab bo'ladi.

Lisoniy shaxs tushunchasi birinchi navbatda nemis olimi Y.Vaysberger nomi bilan aloqador. Bu borada rus tilshunosligida V.V.Vinogradov ilk qadamlarni qo'ygan. Lisoniy shaxs tushunchasining o'zini esa G.I.Bogin qo'llay boshlagan: u lisoniy shaxs modelini yaratgan va uning fikriga ko'ra inson "nutqiy muomalaga kirishish, nutq hosilalarini shakllantirish va qabul qila olishga tayyor" mavjudot sifatida qaraladi. Bu tushunchani ilmiy hayotga keng darajada Y.N.Karaulov olib kirgan. Uning fikricha, lisoniy shaxs – bu matnlarni vujudga keltirish va uni o'zi qabul qila olish darajasida o'zlashtira olish qobiliyatiga ega va u quyidagicha farqlanadi: strukturaviy-lisoniy murakkablik darajasiga ko'ra; voqelikni aks ettirish chuqurligi va aniqligiga ko'ra; ma'lum bir maqsadga yo'nalganlikka ko'ra.

Y.N.Karaulovning fikricha, lisoniy shaxs uch bosqichli strukturaviy darajaga ega:

1. Kundalik tilga egalik darajasini aks ettiruvchi og'zaki-semantik daraja.

2. Sotsium (lisoniy shaxs)ga xos relevant bilimlar va tushuncha qabul qilib, saqlash, kengaytirishlarning dolzarblashuvi va identifikatsiyasi yuz beruvchi bilish darajasi. Bu daraja shaxs dunyosining til modeli, uning milliy madaniyatini, o'zligini aks ettirishni taqozo etadi.

3. Pragmatik (oliy) daraja. Bunda lisoniy shaxsning takomillashuviga olib chiquvchi motivlar hamda maqsadlarni aniqlash va unga o'z fikr-mulohazalarini bildirib, tavsifini o'z ichiga oladi. Binobarin, axborotlarni kodlashtirish va koddan ochish jarayoni "shaxs kommunikativ makoni"ning barcha uch bosqichi hamjihatligida olib boriladi⁸².

O'tgan asrning oxirlariga kelib nafaqat tilshunoslikda, balki inson nutqiy faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa sohalarda ham shaxs

⁸² Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 89-90.

omilining kommunikatsiya jarayonida tutgan o'rnini aniqlashga qiziqish sezilarli darajada oshdi va bu masala mazkur fanlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy muloqotda inson omili muhim ekanligini ta'kidlab, "nutqiy muloqotda inson faktori muhim rol o'ynaydi va bu faktor muloqot faoliyatini rejalashtirish, uni voqelantirish, uning strategiyasini amalga oshirish kabi amallarini boshqaruvchi ko'rsatkichlardan biridir"⁸³ degan fikrni keltiradi.

Nutq faoliyatida shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, o'ziga xos dunyoqarashi, olamni anglashi haqida bahs yurituvchi mazkur fanlar asosida inson omilining turlicha nomlanishi tufayli tadqiqotlarda "lisoniy shaxs", "kommunikativ shaxs", "so'zlovchi shaxs", "til shaxsi" kabi atamalar faol qo'llanilmoqda. Bu atamalar yaxlit bir holatda shaxs tushunchasini ifodalasa-da, u yoki bu ayrim xususiyati bilan farqlanadi. O.L.Ariskina, Y.A.Dryanginalar bugungi kunda tilshunoslikda bu tushunchaga aloqador bo'lgan uch yondashuv mavjudligini ko'rsatadilar⁸⁴.

1. Lisoniy shaxs tushunchasi kommunikativ shaxs tushunchasidan nisbatan kengroq ma'noga ega (S.G.Vorkachev, V.V.Sokolova, S.S.Galstyan). Bu nuqtayi nazarga ko'ra lisoniy shaxs to'rt ko'rinishga – fikriy, lisoniy, nutqiy, kommunikativ ko'rinishga ega va "super kategoriya" sifatida talqin qilinadi⁸⁵.

2. Lisoniy shaxs va kommunikativ shaxs tushunchalari bir-biridan farq qilmaydi. V.I.Karasikning ta'kidlashicha, lisoniy shaxs muloqot jarayonida kommunikativ shaxs sifatida qaralishi mumkin⁸⁶.

3. Kommunikativ shaxs tushunchasi lisoniy shaxs tushunchasiga nisbatan keng ma'no ifodalaydi. P.Koneskaya kommunikativ shaxs

⁸³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 153.

⁸⁴ Арискина О.Л., Дрянгина Е.А. Языковая и коммуникативная личность: различные подходы к исследованию// Вестник Челябинского государственного университета. Вып. 58. – Челябинск, 2011. – С. 15-18.

⁸⁵ Галстян С.С. Языковая личность – основа телевизионной коммуникации/ С.С. Галстян// Вестник электронных и печатных СМИ: научно-теоретический журнал. – Вып. – № 3. Режим доступа: <http://vestnik.ipk.ru/index.php?id=1544> (дата обращения 04.08. 2016).

⁸⁶ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

tushunchasi muloqotning faqat verbal kodlarini tanlashni emas, balki inson va mashina aloqadorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kommunikatsiyaning sun'iy va qorishma kodlari qo'llaniluvchi noverbal kodlar tavsifini ham taqozo etadi⁸⁷.

Tilning ijtimoiy mohiyati shu bilan xarakterlanadiki, u lisoniy ongda – jamoaviy yoki individual ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shunga asoslanib tildagi madaniyat egasini lisoniy jamoa yoki individ, deb bilish mumkin. Jamoa etnos va individ sifatida lisoniy ongning shartli shkalasida eng chekka nuqtani tashkil qiladi.

Til ongning ajralmas a'zosi hisoblanadi. U inson va dunyo manzarasi o'rtasida ularni lisoniy shakllarda ifodalovchi vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Bu insoning tilda obrazlar va tushunchalar sifatida saqlanib qolgan dunyo manzarasi bilan bog'liqligidir. Alohida olingan shaxsning tili o'z-o'zicha mavjud bo'lmaydi. U bir xalqqa, bir umumiy madaniyat va an'analarga mansub bo'lgan boshqa kishilar tillarida shakllanadi.

Tilshunoslikda lisoniy shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha kuzatishlar olib borgan V.V.Naumov fikriga ko'ra, bu tushuncha ostida nutq faoliyati davomida mazkur davrlar oralig'idagi belgilangan lisoniy jamoani tavsiflaydigan qandaydir til vositalarini qo'llay oladigan til egasi tushuniladi⁸⁸. Olim olib borgan o'z tadqiqotlarida lisoniy shaxs tushunchasini ifodalovchi psixoemotiv tashkil qiluvchilar, lisoniy shaxsning ijtimoiy tavsifi, lisoniy shaxsning yoshga oid va gender xususiyatlari, lisoniy shaxsning milliy mansubligi, lisoniy shaxsning nolisoniy xarakteristikasi kabi beshta mezon mavjudligini ko'rsatib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga intilgan.

So'zlovchining nutqiy vaziyat va o'z nutqi qaratilgan shaxsga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatidan kelib chiqib til birliklaridan foydalanish qobiliyati tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum bir narsa-predmet, voqea-hodisa haqida xabar berishdan tashqari o'zi haqida, ya'ni yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqei, ijtimoiy nufuzi,

⁸⁷ Конечкая В. П. Социологии коммуникации. URL: <http://www.i-ru/biblio/archive>

⁸⁸ Наумов В.В. Лингвистическая идентификация личности. – Москва, 2006. – 240 с.

dunyoqarashi to‘g‘risida ham ma‘lumot beradi.

Hozirgi kunda tilshunoslikda “lisoniy shaxs” tuzilishining verbal-semantik, lingvokognitiv, pragmatik darajalari mavjudligi qayd etiladi⁸⁹. Matn tuzishda bu darajalar nutq jarayonini tasniflash qobiliyati va vaziyat komponentlariga mos kelishi qo‘llanilish doirasi, muloqotchilar saviyasi, muloqot maqsadi orqali amalga oshadi. Yuqorida qayd etilgan pragmatik darajada lisoniy shaxs kommunikativ shaxsga aylanadi.

Ma‘lumki, badiiy adabiyotda Orol fojiasiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar yaratilgan. Shunday asarlardan biri iste‘dodli nosir Erkin A‘zamning “Tanho qayiq” qissasidir. Asar masala mohiyatini yoritishdagi yangicha yondashuv, o‘ziga xos uslubi, talqini bilan kitobxonlar e‘tiborini tortmasdan iloji yo‘q. Badiiy asarning estetik jozibasini ko‘rsatuvchi asosiy omil, bu – matnning tasviriyligi, yorqinligi va ekspressivligi bilan belgilanadi:

Orol bobomiz!

Tom ustiga chiqib olgach, u bir muddat nari-beri borib keladi. Osmonlarga qaraydi, oy-u yulduzlarni tomosha qilgan bo‘ladi. So‘ng asta kelib qayig‘iga o‘rnashib o‘tiradi-da, tevarak-atrofni yana bir qur ko‘zdan kechirgach, ikki yondagi eshkaklarni qo‘lga oladi. Eshkak esha boshlaydi. Avvaliga sustroq, bir maromda, keyin esa navqiron bir g‘ayrat bilan. Shamol uvullashi-yu chiyabo‘rilarning “hi-hi”lashi nogahon suv shovqiniga – mavj-u to‘lqinlar sasiga aylanib-qorishib ketadi. Shalop-shulup, shalop-shulup... Oy yog‘dusida charx etayotgan dengiz qushlari – chag‘alay-u oqchorloqlarning suvga to‘sh urib uchishlari, kumush qanotlari nimqorong‘ilikda yalt-yult akslanib ko‘zga chalinadi... Chol bir zamon eshkak eshishdan tinib, timirskilay-timirskilay qayiq ichidan uzun allanimani oladi-yu uzoqni chamalab uni havoga – “suv”ga uloqtiradi. Shalop-shulup... “Baliqchi” kaftlarini quloqpana qilib pastga engashgan – nimadir sasni eshitmoqchi...

Sukunat, sukunat... Bir payt qayiq chetida ko‘ndalang yotgan egma xoda qimirlab ketib, shalop-shulup tovush chiqaradi. “Baliqchi” shosha-pisha xodani “suv”dan ko‘taradi. Naqd tumshug‘idan ilingan

⁸⁹ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 89-90.

laqqa oy yorug'ida bilanglab turibdi!..

Orol bobo (uni zavq bilan aylantirib tomosha qilarkan, shodon). Berganingga shukr! Berganingga shukr, tangrim!.. (E.A'zam "Tanho qayiq").

Muallif nutqi orqali berilayotgan bu tasvirda mavhum, yo'q narsani aniq, bordek aks ettirilyapti. Yozuvchining poetik mahorati ham aynan shunda yorqin namoyon bo'lgan. Asli Orol dengiziga suv kelmasligini Orol boboning o'zi ham yaxshi anglaydi. Bu o'rinda Orol shunchaki vosita, xolos. Adibning asl pragmatik maqsadi Orol bahona inson ruhiyatidagi g'oyat murakkab masalalarga javob izlaganday bo'ladi. Pragmatik natija sifatida Orol bobo timsolida vijdonli, e'tiqodli murakkab qahramon obrazini yaratadi:

Mana, keldi! Axiyri keldi! Suv, suv!.. Orolimiz suvga to'ldi, odamlar! Yashasin, dod! Shu kunni ko'rdim-a! Endi o'lsam armonim yo'q... (Qo'llarini ko'kka cho'zib) Omonating ol, egam! Roziman, bariga roziman! Shukr, shukr...

Yuqoridagi parchada eksperienser subyekt Orol bobo hisoblanadi. Matnda ifodalangan eksperienser tilidan uning his-tuyg'ulariga asoslanib, yangragan shu so'zlar haqiqat bo'lishiga kitobxonning ham ishongisi keladi. Shu tarzda subyekt patsiens sifatida ham namoyon bo'ladi. Eksperienser – aktant, hissiy idrok subyekti sifatida. Qoida tariqasida, eksperienser nutqida sevmok, eshitmok, ko'rmok, bilmok kabi fe'llar ishlatiladi⁹⁰.

Shunday qilib, lisoniy shaxs – nutqiy shaxslarning ko'p qatlamli paradigmasidir. Bu holatda nutqiy shaxs – real muloqot, faoliyat paradigmasidagi lisoniy shaxsdir. Aynan nutqiy shaxs bosqichida lisoniy shaxsning milliy-madaniy o'ziga xosligi, dunyoqarashi, shuningdek, muloqotning ham milliy-maddaniy o'ziga xosligi namoyon bo'ladi.

Badiiy matn o'zining birgina obrazliligi bilan cheklanib qolmaydi. "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan,

⁹⁰ Стариченко В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – С. 705.

kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi"⁹¹. Yuqorida keltirilgan fikrlarda tilning badiiy-estetik vazifasiga urg'u berilganligi seziladi. Aslida til birligining o'rinli tanlanishi ijodkorning uslubiy mahoratidan dalolat beradi. Tanlangan til birligining badiiy matnda o'quvchiga ta'sir o'tkazishi uning faoliyatga kirishganini ko'rsatadi. Shu bois tadqiqotlarda til birliklarining matnda tutgan o'rni va vazifasini lingvopragmatik nuqtayi nazardan izohlashga intilish kuchli.

Badiiy uslub doirasida qaraluvchi matnlar, avvalo, kitobxonga ma'lum bir voqea-hodisa to'g'risida ma'lumot beradi, uning ruhiyatiga ta'sir ham o'tkazadi va eng asosiysi ma'lum shaxsni harakatga keltiradi. Bu muallif maqsadining pragmatik samarasini belgilaydi. Har bir badiiy matnni shakllantirishda badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlash orqali adresantni ma'lum xatti-harakatlarga undash ko'zda tutiladi. Badiiy asar ijodkorlari til birliklaridan foydalanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu bois muallif uslubini o'rganishda u tomonidan qo'llanilgan til birliklarining matnda qanday vazifani bajarganligini pragmatik jihatdan tahlilga tortish aniq xulosalarga kelishga imkon beradi. Ijodkorning lisoniy vositalarni tanlash va qo'llay olish mahorati – uning individual uslubini belgilab beradi. Tilshunos olimi Saodat Boymirzayeva to'g'ri ta'kidlaganidek, “Shaxsning til birliklaridan foydalanish mahorati zahirasi uning idiolekti, ya'ni individual lisoniy faoliyat zahirasi yotadi. Idiolekt u yoki bu shaxsning, yozuvchining individual til xususiyatlari yig'indisini umumlashtiradi. Yozuvchi idiolektini, lisoniy birliklarni turli guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin va bunda har bir qatlamga oid guruhning tizimiy va vazifaviy xususiyatlariga ahamiyat beriladi"⁹².

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili, alohida olingan shoir yoki yozuvchilar individual uslubini o'rganish bo'yicha salmoqli yutuqlarning qo'lga kiritilganligi e'tiborga molik. Darhaqiqat, o'tgan davr mobaynida o'zbek tilining vazifaviy uslublari to'liq o'rganib chiqildi, lisoniy birliklarning tilning turli sathlarida nozik ma'nolarni

⁹¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 35.

⁹² Боймирзаева С. Бадий матнда қўшма гап. – Самарқанд, 2008. – Б. 6.

ifodalash xususiyatlari tahlil etildi. Bu albatta, tilshunosligimizning mazkur sohada ancha ilgari ketganligini ko'rsatadi.

Muloqot jarayonida har bir til birligi muayyan vazifani bajaradi. So'zlovchi yoki yozuvchi kommunikativ maqsadiga bog'liq holda u uslubiy vositaga aylanadi. Shuning uchun nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini, tasviriyligni ta'minlashga xizmat qiluvchi bunday vositalarni o'rganish uslubiyatning asosiy vazifalaridan biri. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida matn va uning asosiy masalalarini tadqiq etish borasida ham ma'lum bir ishlar amalga oshirilmoqda. Buni o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining hozirgi davrida matn tilshunosligiga, til birliklarining matndagi funksional-semantik, pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish tobora ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslikda jamiyat taraqqiyotiga bog'liq holda inson nutqiy faoliyatini turli nuqtayi nazardan tadqiq etuvchi bir qator yangi sohalar yuzaga kelmoqda va rivojlanmoqda.

Matn tilshunosligi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki turkiyshunoslik va rus tilshunosligida ham matn tushunchasining mohiyati hamda ta'rifi masalasida turli qarashlar mavjud bo'lib, hozirga qadar yakdil va barqaror fikr yo'q.

Fikr ifodalashda doimo qulaylikka intilish til birliklarini nutqning ma'lum bir ko'rinishlari uchun xoslab qo'yishi nutqning turli ko'rinishlarini hamda ularning yozma ifodasi bo'lgan matn turlarini vujudga keltirgan. Tilimizda matnning ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy matn kabi turlari ham mavjud bo'lib, bular ichida badiiy matn bo'yoqdor va ta'sirchan vositalarga boyligi, xilma-xil janrlari mavjudligi, eng muhimi til bajaradigan muhim ijtimoiy vazifalardan biri – estetik ta'sirchanlikni namoyon qila olishi bilan ajralib turadi. Inson kommunikativ maqsadiga xizmat qiluvchi til birliklari nutqning turli ko'rinishlarida amal qilishi jihatidan farqlanadi. Boshqacha aytganda, rasmiy matnlarda buyruq, rasmiy ma'lumot yetkazish kabi vazifalarga xoslansa, ilmiy matnda u faqat xabar bilan cheklanadi. Publitsistik matnlar esa ijtimoiy-siyosiy xarakter kasb etadi. Til birligining lingvopragmatik tabiati badiiy matnda yaqqol namoyon bo'ladi.

Insoniyat o'z tarixi davomida tildan foydalanishga hamda u vositasida badiiy ijod namunalarini yaratishga alohida san'at sifatida munosabatda bo'lganlar. Haqiqatdan ham, badiiy matn ma'lum bir xalqning til boyligi, uning ma'naviy-axloqiy tomonlari, turmush darajasi, urf-odatlari, qadriyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. O'quvchi badiiy matn mutolaa qilish orqali ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bunda badiiy matn nafaqat ma'lumot yetkazish bilan chegaralanadi, balki o'quvchi ongiga ta'sir etib, uni turli xil ruhiy holatlarga soladi. Badiiy matnning ta'sirchanlik kuchi nafaqat unda qo'llanilgan lisoniy vositalarning anglatgan ma'nosiga, balki muallifning fikr ifodalash uslubiga ham bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, til birligining badiiy matndagi faoliyati, uning ta'sir qilish jarayoni, muallif maqsadiga erishish yo'llari lingvopragmatikaning asosiy mavzulari hisoblanadi.

Inson obyektga nisbatan o'z munosabatini bildirar, uni baholar ekan, o'z kommunikativ maqsadiga erishishiga xizmat qiluvchi til birliklarini qo'llaydi. So'zlovchi va uning nutqi qaratilgan aniq shaxsning mavjudligi kommunikatsiya jarayonini yuzaga keltiradi. Aloqa jarayonida nolisoniy vositalarning tutgan o'rni haqida tilshunos olim N.Mahmudov shunday fikrlaydi: "Odatda, kommunikativ vaziyatning uch asosiy unsuri mavjud bo'ladi, ya'ni so'zlovchi, tinglovchi va mavzu yoki axborot. So'zlovchi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish uchun, albatta, vosita – tegishli kanalni tanlaydi. Tabiiyki, asosiy kanal tilning o'zidir"⁹³.

Ko'rinadiki, so'zlovchi munosabatining ifodalanishida har bir lisoniy birlikning o'ziga xos o'rni bor. Lisoniy va nolisoniy vositalarning o'zaro uyg'unlashuvi esa so'zlovchi kommunikativ maqsadining to'la va aniq amalga oshishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muloqot jarayonida ifodalangan pragmatik ma'nolarning ifodalanish yo'llari ustida olib borilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, vaziyatga qarab so'z ma'nosining maqbuli tanlanishi kerak. Og'zaki nutqqa xos bo'lgan so'z va uning ma'nolarining muloqotda qo'llanilishiga asosan pragmatik ma'noni aniqlashning ustunligi shundaki, u muloqot jarayonida kontekstdan kelib chiqib vaziyat

⁹³ Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. – Б. 40.

mazmuniga mos bo'lgan so'zlardan foydalanish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, adresat ongida voqelikni aks ettirib, mazmunni anglashga ko'maklashadi. Pragmatik ma'noni ifodalash vositalaridan biri metafora hisoblanadi.

O'tgan asrning so'nggi choragiga qadar metaforalar tilning ifoda va tasvir vositalari tizimida "muallif obrazi" – individual uslubning lisoniy xususiyatlari haqidagi ta'limot sifatida badiiy matn uslubi doirasida tadqiq etildi. Hozirda metaforalarning kognitiv hosila sifatida zamonaviy paradigma asosida konseptual tahlili keng amalga oshirilmoqda.

Metafora xuddi bir vaqtning o'zida nominativ va kommunikativ maqsadlarni yaqinlashtiradigan boshqa lisoniy birliklar singari, olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vositadir. Biroq, ushbu vosita boshqalardan farqli o'laroq til tizimida oldindan mavjud bo'lgan ma'nolardan foydalanib, yangi konseptlarni yaratish uchun xizmat qiladi. Demak, metafora faqat ma'noning mavjudligini ta'minlash uchun xizmat qilibgina qolmasdan, balki ushbu ma'noni shakllantirish mexanizmi va uni kommunikatsiya sharoitida uzatish vositasi hamdir⁹⁴.

Til – bu inson ongi va tafakkurining namoyoni. Inson ongi esa tabiat o'zining ko'p asrlar davomidagi taraqqiyoti natijasida yuzaga keltirgan oliy mahsulidir. Bu jihatdan tilni "ongning va ongimiz orqali dilimizning ifodasi sifatida" borliqdagi boshqa hech bir narsa, voqea, hodisa, jarayonlar va bosqichlar bilan qiyoslab bo'lmaydi. Ammo har bir ijtimoiy hodisa va voqea singari, til ham turli qarashlar, nuqtayi nazarlar kurashi jarayonida takomillashib boradi.

Til dunyo manzarasini o'zlashtirishda shaxs pragmatik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslik ilmi darg'alaridan biri akademik Azim Hojiyev aytganidek, "til nutqda fikr, his-tuyg'u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi, kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli bo'lib xizmat qiladigan

⁹⁴ Сафаров Ш. Метафора ходисаси талқинига янгича ёндашув имкониятлари// Хорижий филология. – Самарқанд, 2020. – № 1. – Б. 7-11.

ijtimoiy hodisa”⁹⁵dir. Inson til orqali olam manzarasining real belgilari, o‘ziga xos xususiyatlarini anglaydi, shuningdek ularni ma’lum qarashlar, ehtiyojlar, istak, niyat va turli maqsadlar nuqtayi nazaridan baholash, fazilat va nuqsonlarini aniqlaydi.

Til insonning jismoniy va ruhiy tabiati, turmushi va his-tuyg‘ulari bilan belgilanadi hamda tafakkuri va faoliyatini, kishilarga, voqelik predmetlariga munosabatini, san’atni idrok etishini belgilab beradi. Shunday ekan, inson nutqiy faoliyati, uning voqelikka munosabati tufayli yuzaga keladigan fikr ifodalash jarayoni bilan aloqador bo‘lgan umumnazariy masalalarni pragmatik jihatdan tahlilga tortish doimo ilmfan ahlining e’tiborini tortib kelgan. Inson olam manzarasini aql-idroki, tafakkuri va sezgilari yordamida o‘zlashtirar ekan, yangidan yangi ma’lumotlar hisobiga o‘z bilimlarini tobora oshirib boradi. Albatta, inson voqelik faktlariga o‘zining munosabatini bildirishi va baholashida tildan eng muhim aloqa vositasi sifatida foydalanadi. So‘zlovchi shaxs pragmatik maqsadini amalga oshirish uchun til vositasida adresatni ma’lum bir yangiliklardan xabardor qiladi, undan nima haqdadir so‘raydi, qandaydir harakatni bajarishga undaydi yoki ichki kechinmalari, ruhiy holati, his-tuyg‘ularini ifodalaydi, shuningdek, narsalarning belgi-xususiyati, kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatiga baho beradi. Aytish mumkinki, “til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo‘lmaganidek, til ham tafakkursiz bo‘lmaydi”⁹⁶.

Tafakkur inson ruhiy hayotining, aql-idrokining, ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli bo‘lib predmetlarni, voqea-hodisalarni bilish vositasi hamda inson shaxsining keng ko‘lamli faoliyatini ro‘yobga chiqarishning pragmatik imkoniyatlarini namoyon qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Til pragmatik, ya’ni tafakkur mahsuli bo‘lgan fikrlash asosida

⁹⁵ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 89.

⁹⁶ Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б. 20.

kommunikativ vazifani bajaradi. Muloqot, nutqiy harakat jarayonida tabiiy ravishda uning imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi. Bu til birliklarining pragmatik nuqtayi nazardan faoliyatga kirishuviga ishora. Albatta, til va nutqning vazifasiga nimalar kiradi? – deganda, bu ikki tushunchaning o‘zaro farqli xususiyatlarini ko‘rsatish qiyin bo‘ladi. Gap shundaki, har qanday fikr yoki mulohaza bildirish (og‘zaki yoki yozma bo‘lishidan qat’i nazar) bu – nutq hisoblanadi.

Til imkoniyat tarzida inson ongida xazina sifatida yashaydi. Nutq esa o‘sha imkoniyatning yuzaga chiqishidir. Boshqacha aytganda: “bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan “til – til qobiliyati – nutq” zanjirida faqat nutqqina tashqi (moddiy) formada (og‘zaki, yozma, turli shartli belgilar vositasida) namoyon bo‘ladi”⁹⁷.

Nutq faoliyatida til vositalarining potensial imkoniyatlaridan turli maqsadlarda foydalanishda uning vazifalarining quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

a) kommunikativ vazifa (insonlar o‘rtasidagi aloqa almashuv vazifasi);

b) nominativ vazifa (obyektiv olamdagi predmet, voqea-hodisalarni nomlash, atash);

v) xabar vazifasi (voqea, faktlar to‘g‘risida biror logik mazmunni yetkazish, bildirish);

g) bilim olish vazifasi (obyektiv olam voqeliklari to‘g‘risida turli bilimlarni to‘plash, o‘rganish, yig‘ish, saqlash);

d) pragmatik vazifasi (nutqning intellektual, iroda va emotsional vositalari bilan adresatga ta’sir etish);

e) konnotativ vazifasi (so‘zlovchi yoki muallifning voqelik hodisalarini tasvirlashda, munosabatini ifodalashda til vositalarining qo‘shimcha ma’no ottenkalaridan foydalanish);

j) fatiklik vazifasi (suhbatdoshga ruhiy ta’sir etish);

z) estetik vazifasi (nutqiy faoliyatda turli his-emotsiya,

⁹⁷ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 9.

ta'sirchanlik ifodalash)⁹⁸.

Har bir til tarixiy taraqqiyoti davomida kishilarning nutq yordamida aloqa bog'lash jarayonida vujudga kelgan, rivojlangan va takomillashib borgan. Demak, har qanday tilning mavjud bo'lishi, takomillashib borishi odamlarning o'sha tilda doimiy gaplashib turishiga bog'liq.

Lison – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar (til xotiradagi boylik) va ularni ishlatish qoidalari. Nutq – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi (nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi)⁹⁹.

Nutq faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasigina bo'lib qolmasdan, balki tafakkur qilishning zaruriy vositasi, muloqotda qo'llanilgan so'z va jumalarga pragmatik vazifa yuklab, nutq yo'naltirilgan shaxsga ta'sir etish va shu orqali unda turli ruhiy holatlarni yuzaga keltirish, ma'lum harakatga undash ma'nolarini qamrab oladi. Chunki biz fikr qilish uchun so'zdan foydalanamiz, fikrimizni so'z bilan ifoda qilamiz va o'zgalarning fikrini bilib olamiz. Tafakkur bilan nutq turli hodisa bo'lsa ham, lekin ular bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lanib ketgan. Har bir kishidagi tafakkurning o'sishi shu kishi nutqining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lganidek, kishi nutqining rivojlanishi ham undagi tafakkurning o'sishiga bog'liq.

Istiqlol davrida struktur tilshunoslikning kirib kelishi o'zbek tilining ichki tuzilish birliklarini tadqiq qilishda katta imkoniyat yaratib berdi. F.de Sossyurning til-nutq dixotomiyasi haqidagi qarashi asosida o'zbek tilining barcha sathlarida imkoniyat, mohiyat sifatidagi til birliklari bilan ularning nutqiy jarayonda bevosita moddiylashuvi o'rtasidagi munosabatga jiddiy e'tibor berila boshladi. Ayni paytda, struktur tilshunoslik tilni transsendent hodisalardan xoli ravishda immanent o'rganishga asosiy e'tibor qaratganligi tufayli lisoniy faoliyatning subyektlari bo'lgan so'zlovchi va tinglovchi shaxs tadqiqotchilar

⁹⁸ Стариченко В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – С. 689.

⁹⁹ Рахматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 2.

e'tiboridan chetda qoldi. Vaholanki, hech bir tilni "til egasi"dan ajratgan holda to'g'ri va to'liq o'rganib bo'lmaydi. Chunki har bir nutqiy aktda so'zlovchi shaxsning izi sezilib turadi. Struktur tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonini bartaraf qilish uchun hozirgi kunda antropolingvistika rivojlana boshladi. Antropolingvistika jahon tilshunoslari tomonidan tilshunoslikning yangi davri deb baholanmoqda va u lingvistik semantika, pragmalingvistika, kognitolingvistika singari tilning ichki tuzilishini so'zlovchi va tinglovchi shaxs bilan bog'lab o'rganuvchi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi e'tirof etilmoqda. Mustaqillik sharoitida o'zbek tilshunoslarining diqqat-e'tibori struktur tilshunoslik bilan birga antropolingvistika yo'nalishlariga qaratilganligi tahsinga loyiqdir¹⁰⁰.

Zamonaviy kognitiv paradigmada lisoniy faoliyat – kognitsiya turlaridan biri (subyektning bilish, idrok qilish, ta'riflash qobiliyati) sifatida qaraladi¹⁰¹. Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslik uchun inson omili va xususan, muayyan "lisoniy shaxs" masalasi ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Lisoniy shaxs bu – "nutq egasi bo'lib, nutqiy harakatni sodir etish, nutqni tuzish va qabul qilish uchun tayyorligi nuqtayi nazaridan qaraladigan kishi, u lisoniy tizimdan to'lig'icha foydalanish layoqatiga ega bo'lgan shaxs"¹⁰².

Emotsiyalar ekspressiv va kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular motivlar va ushbu motivlarga javob beruvchi voqeliklarning namoyon bo'lishi o'rtasidagi munosabatni bevosita ifodalaydi. Albatta, emotsiyalarni shaxsdan ajratib bo'lmaydi.

Lisoniy shaxs namoyon bo'lishida emotsiyaning asosiy vazifasi – bu shaxsning qadriyat maqsadlarini aniqlash imkoniyati bilan bog'liq. Badiiy matnda shaxsning ruhiy-emotsional holatini ifodalash personajning xarakteri turi va individual qirralariga bog'liq bo'ladi. Har

¹⁰⁰ Нурмонов А., Мадвалиев А., Махкамов Н. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 5.

¹⁰¹ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода// Вопросы языкознания. 1994. – № 4. – С. 26.

¹⁰² Кубиц Г.В. Профессионализация языковой личности (на примере юридического дискурса): дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2005. – 258 с.

bir emotsiya ma'lum bir ifodalanish shakllariga ega bo'ladi. Badiiy matn uchun emotsional taassurot yoki kognitiv obraz mazmunini singdirish yozuvchi uchun atrofdagi shaxslar, predmetlar, hodisa va voqealarning o'zlashtirilishi ahamiyati muhim hisoblanadi. Badiiy matnda tasvirlangan jamiki emotsional kechinmalar jamlangan ifodasi emotsional holatlar bo'ladi. Insonning, o'zining ichki olami, atrofini o'rab turgan voqelik haqidagi tasavvurlari emotsional maydonni tashkil etadi. Bu maydon emotsiyalarning individual muallif tomonidan idrok etilishini badiiy asarda personajlar his-tuyg'ulari orqali aks ettiradi.

2.2. Erkin A'zam asarlarida "lisoniy shaxs" namoyon bo'lishining pragmatik imkoniyatlari

Subyektning baholanuvchi obyektga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati doirasida emotsionallik mazmuni yuzaga keladi. Ma'lum nutq shart-sharoiti, mavzusi so'zlovchi munosabatiga bog'liq holda tildagi har bir so'z his-tuyg'u ifodalash vositasiga aylanishi mumkin. O'zbek adabiyotida inson ruhiyati tavsifiga bag'ishlangan asarlar ko'p. Har bir ijodkor uslubi, til birliklarini tanlash mahorati, bilim zahirasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu farqlarni aniqlash esa ijodkor asarlarini lingvopragmatik jihatdan tahlilga tortishni taqozo etadi. Badiiy matnlarda ishtirok etuvchining nutqiy faoliyati, fikr ifodalash imkoniyatlari uning lisoniy shaxs sifatidagi xususiyatlarini ochib berish sari yo'naltirilgan bo'ladi. Asardagi lisoniy shaxs yoki matn muallifi tomonidan bayon etilayotgan fikr ma'lum maqsadni nazarda tutadi: personaj o'z tuyg'ularini, munosabatini tinglovchiga bildiradi va shu orqali unda ham ma'lum bir his-tuyg'ularning uyg'onishiga sabab bo'ladi, shuningdek, suhbatdoshni ma'lum kommunikativ harakatga da'vat etadi, unga o'z hayoti va faoliyati, ichki kechinmalari bilan bog'liq holatlarni yetkazish orqali ta'sir ko'rsatish natijasida uni navbatdagi nutq jarayoniga jalb etadi.

Ma'lumki, nutq subyektining kommunikativ o'zini tutish xususiyatlari bevosita modus bilan bog'liq bo'ladi. A.V.Zelenshikovning fikrlariga ko'ra, modus mental va psixik holatni o'zida mujassam etib, "fikr mazmunining transpozitsional bahosi (keng

ma'noda)ning" mazmunini tashkil qiladi va asoslovchi dalillardan biri sifatida kelib, nutqiy fikr samarasining negizini hosil qiladi¹⁰³. Ko'p holatda muloqot jarayonidagi fikr baholovchi ifoda bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Baholash (lisoniy vositalar bilan) yordamida gapda so'zlovchi subyektning real voqelikka modallik kategoriyasi orqali munosabati o'rnatiladi. Shunday qilib, fikrlovchi shaxsning diskursda modal baholash turi quyidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi:

- 1) subyektiv (o'z-o'zini baholash);
- 2) aspektual (so'zlashuvdagi sherik kommunikativ o'zini tutishi va real kommunikatsiya sharoitida muhitni baholash);
- 3) modal (so'zlashuv vaziyati oqimining baholanishi, kommunikativ orasidagi munosabatni baholash).

Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasidagi Zabarjad shaxsini hayotning turmush azoblari, g'am-g'ussalari, o'z fojiasini-da shaddodlik ortiga yashirgani va eng asosiysi, sharq ayollariga xos e'tiqod xususiyatlarini saqlab qololgani quyidagi diskurs parchasida aniq aks ettirilgan:

U duoga qo'l ochganida Zabarjad xuddi nogahon hushdan ketgandek gup etib qabrning ustiga o'zini tashlaydi-da, faryod chekib yuboradi: – Dada! Dadajonim! Nega bizni tashlab ketdingiz, nega? Qo'ying edi, men cho'kib ketay edi o'shanda! Men o'lib ketay edi! Birga cho'ksak ham mayli edi! Birga o'lsak ham mayli edi! Joningizga zomin bo'lib, sizga badal qolib men nima qildim bu dunyoda, dadajon?! Shuncha yildan beri bu kasofatingizni nega yer yutmaydi, dada?! Dadajo-on! (E.A'zam "Zabarjad").

Turli xil his-tuyg'u ifodalashning muhim vositasi hisoblangan til birliklari, so'roq gap tuzilishidagi propozitsiyalar orqali yozuvchi lisoniy shaxs tushunchasining o'ziga xos pragmatik xususiyatlari, mazkur tushuncha ostida birlashuvchi semantik qirralarning ochib berilganligi kitobxon e'tiborini o'ziga jalb qilishi tabiiy. Erkin A'zamning individual o'ziga xosligi shundaki, muallif lisoniy shaxs qiyofasini yaratishda to'g'ridan to'g'ri bayonchilikdan qochib, pragmatik yondashuvga

¹⁰³ Зеленщиков А.В. Пропозиция и модальность. – СПб.: Изд-во Санк-Петербург. ун-та, 1997. – 141 с.

murojaat qiladi. Lisoniy shaxsga xos xususiyatlar lingvopragmatikaning asosiy tayanchi bo'lgan nutqiy aktlar vositasida ochib beriladi. Yozuvchi asarlaridagi inson ruhiyati bilan bog'liq holatlar ifodasini obrazli qilib nutqiy aktlar galereyasi deyish mumkin. O'zbek tilida o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra nutq obyektni baholash vazifasini bajaruvchi lisoniy birliklar, ifoda-tasvir vositalari ko'p. Ular so'zlovchi yoki yozuvchi kommunikativ maqsadiga bog'liq holda subyektiv munosabat ifodalash, emotsional-ekspressivlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Lisoniy shaxs xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi bu vositalarda asl lisoniy vazifasidan tashqari, hissiy-ta'sirchanlikni ta'minlash imkoniyati ham mavjud bo'lib, ular lisoniy shaxs psixoemotiv xususiyatlarini ochishda yetakchilik qiladi.

Yozuvchining "Turmush" hikoyasida personajning ruhiy holatidan bir ko'rinish – **qo'rquv nutqiy akti** tanlab olingan. Muallif bu o'rinda qo'rqish holatini ifodalovchi birliklar vositasida emas, balki personajning shu holatdagi xatti-harakati orqali tasvirlagan:

Ursa – o'ldirib qo'yishini o'ylarmidi yoki Malikaning allaqanday qat'iyat bilan aytadigan gapi – butunlay ketib qolishidan cho'chirmidi, xullas, Tilak unga qo'l tekkizmas edi. Bu gal urdi, bir tarsaki urdi. Necha yillardan buyon bir kimsaga qo'l ko'tarmagan odam, xotiniga qanday tarsaki tortib yuborganini o'zi bilmay qoldi. Malika ham nimanidir sezgan, shunga tayyor turgan ekanmi, yiqilmadi, zarbdan ilkis bir chayqaldi-yu, divanga o'tirib qoldi, baravar yumib olgan kipriklari pirpirab, ikki tomchi yosh sizdi. Tilak birdan bo'shashib ketdi, shart burildi-da, xonasiga kirib, pastak yog'och karavotga cho'zildi. G'azabdanmi, o'kinchdanmi titrardi. "Endi nima bo'ladi?" (E.A'zam "Turmush").

Muallif tasvirning ishonarli chiqishi uchun e'tiborni personajning ichki holatiga emas, balki uning shu holga tushishiga turtki beruvchi boshqa detalga qaratadi. Bunda Tilak obrazini harakatga keltiradi. Tilakning tarsaki urishi Malikada emotsional holatning yuzaga kelishiga va shu orqali o'z holatini ko'rsatishiga urg'u beradi. Tashqi harakatlar personajning "Endi nima bo'ladi?" deb g'azabdanmi, o'kinchdanmi titrashi bilan uyg'unlashadi. Xulosa qilish mumkinki, badiiy matnda

personajning umidsizlik, voqealar natijasidan qoʻrquvga tushishini kuzatish mumkin. Chunki personajning har qanday xatti-harakati, emotsional taʼsiri badiiy matnning umumiy mazmun-mohiyati uchun muhimdir.

Yuqoridagi matnda personajning oʻy-kechinmalari qoʻrquv maʼnosini aks ettiradi. Bunda personaj kommunikantiga nisbatan eʼtiborsizligini bildirib, boshidan oʻtkazgan voqeani ichdan tahlil qilmoqda. Ushbu holatda kommunikatsiya samarasiz kechgan.

Asarning nomlanishida ham muallifning pragmatik yondashuvi yaqqol seziladi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da berilishicha, turmush soʻzi insonning, millat va xalqning yashash, kun kechirish tarzi, kundalik hayoti; biror xalq, ijtimoiy guruh va shu kabilarga xos hayot tarzi, urf-odatlar, rasm-taomillar majmui; jamiyatning oddiy hayot shart-sharoitlari majmui, obyektiv reallik; nikoh asosida yuzaga keladigan hayot, er-xotinlik holati, shu holatdagi hayoti maʼnolarini ifodalaydi¹⁰⁴. Koʻrinadiki, **turmush** soʻzi semantik jihatdan keng qamrovli. Hikoyada shunga koʻra boshqa nutqiy aktlarni ham uchratish mumkin. Quyidagi parchada lisoniy shaxs soʻzlashuvga xos dialogik vaziyatda **kechirim soʻrash nutqiy aktida** namoyon boʻladi:

Bultur ishxonasidagi bir majlisda munozara payti qizishib ketganidan direktorning muoviniga tippa-tik qarab: “Munofiqlik qilmang!” deb yubordi. Muovin jizzakiroq odam edi, sapchib joyidan. turdi: “Meni haqorat qildingiz, hoziroq kechirim soʻrang!” “Balki unaqa emasdirsiz, – dedi Tilak sovuqqonlik bilan, – lekin men siz haqingizda nimani oʻylagan boʻlsam, ochiq aytdim, qaytib oladigan soʻzim yoʻq!” “Qaytib olasiz!” “Qaytib olmayman!” “Sunnat Mahmudovich! – dedi muovin titragancha, koʻmak soʻragandek qoʻllarini direktor tomon choʻzib. – Yoshimni hurmat qilmay... Men, men... qaytib olmasa... ishdan ketaman!” Majlis borayotgan xona suv quygandek jimib, hamma Tilakka qaradi: “Uzr, de-qoʻy, sendan nima ketdi?” Toʻrda oʻtirgan Sunnat Mahmudovich boyagi gapdan keyin

¹⁰⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Тўртинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «Оʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий наشريёти, 2020. – Б. 199-200.

peshonasini mushtlari ustiga qo'yib olgan, ichida kulyaptimi, jahli chiqqanmi – bilib bo'lmaz edi. "Tilakvoy, yoshsiz, yaxshi emas, – dedi u nihoyat mushtlari orasidan ming'irlab. – Bu kishining yoshlarini hurmat qiling, bo'lmasa, ishdan ketaman, deyaptilar..." "Yoshlarini hurmat qilaman, ammo boyagi gapim – gap! – dedi Tilak pinak buzmay. – Bu kishi hech qayoqqa ketmaydilar, Sunnat –Mahmudovich! Ketsalar, men ham ketishim kerak bo'ladi. Men esa ketmoqchi emasman!" Bu gapdan hamma kulib yubordi. Direktor ham boshini ko'tardi, kulgiga bajonidil qo'shildi – ichida kulib o'tirgan ekan... (E.A'zam "Turmush").

Matnda til birliklarining pragmatik imkoniyatlari avvalo, dialogik shaklning tanlanishi, personajlarning kontrast joylashuvi, fikrlarning ham shu asosda berilishi, buyruq va inkor gaplarning qo'llanishi, gaplarning grammatik jihatdan so'zlashuvga xos bo'lishi kabilarda ko'rinadi. Psixologiya ilmida tan olingan uchta ko'rsatkich – o'ziga o'zi baho berish, kutilgan baho, ma'lum bir jamoaning alohida bir shaxsga bergan bahosi – shaxsning tuzilishiga kiradi va bu shaxsning istagiga bog'liq bo'lmagan holda u o'zining faoliyati natijasida kelib chiqadigan guruhdagi kayfiyatini, o'zining kommunikativ maqsadiga yetishi uchun qilgan xatti-harakatlari natijalari pragmatik samarasini o'ziga va u bilan bog'liq bo'lgan, munosabatga kirishuvchi kishilarning unga nisbatan nuqtayi nazarlarini belgilaydigan subyektiv vositalarni e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Badiiy matnlarda lisoniy shaxs psixoemotiv xususiyatlarining aks etishi to'g'ridan to'g'ri milliy mentalitetga, xalqimizning milliy tuyg'ulari, ma'naviy qadriyatlariga aloqadordir. Yuqorida keltirilgan matnda ikki obraz – muovin va Tilak o'zaro kontrast qo'yilgan. Bundan badiiy matnda lisoniy shaxs tavsifida kontrast, ya'ni ziddiyatning pragmatik maqomi yuqori degan xulosaga kelish mumkin. Lisoniy shaxs psixoemotiv tabiati ziddiyat hodisasi yordamida namoyon bo'lgan. B.Husanov va V.G'ulomovlar o'z kuzatishlarida mazkur tushuncha tabiatini birmuncha kengroq ochib berganlar. Ularning ko'rsatishicha, ziddiyat psixologiyada – bir-biriga qarama-qarshi fikrlarning alohida individlar, guruhlar hamda shaxslararo munosabatlaridagi ruhiy kechinmalar bilan bog'liq hodisalar deb ta'riflanadi. Ziddiyat mantiqda – muhokama yuritishda, matnda va

nazariyada biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi tushuniladi. Ziddiyat dialektikada – predmet va hodislarga obyektiv ravishda xos bo‘lgan bir butunning qarama-qarshi tomonlari, belgilari, yo‘nalishlari o‘rtasidagi muhim munosabatlardan iborat. Ziddiyat badiiy asarda turkum qahramonlarning intilish va xolatlaridan, alohida qahramonlar to‘qnashuvidan, shuningdek, aniq bir qahramonning o‘zida kechadigan psixik holatda maydonga keladi. Shuning uchun ziddiyat hayotdagi real qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa u syujetni harakatga soluvchi kuch, rivoj beruvchi asosdir.

Yuqoridagilardan ayon bo‘ladiki, ziddiyat – muomalada, insonlar o‘rtasidagi muloqotlarda – so‘zlashish, fikr almashish, muzokara olib borish hamda bahslashish jarayonida biri ikkinchisini inkor etadigan ikkita muomala natijasida vujudga keladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ziddiyatli vaziyatlar asosida alohida shaxslar va guruhlarining qarama-qarshi fikrlari, maqsadlari hamda shu maqsadlarga erishishning vositalari yotadi¹⁰⁵.

Erkin A’zamning boshqa hikoyalarida ham lisoniy shaxs turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Muallif asarda lisoniy shaxsini mufassal tavsiflashga urinmaydi, balki bir jihatni tanlab oladi va shu orqali personajning lisoniy shaxs sifatidagi qiyofasi haqida o‘quvchida muayyan tasavvur uyg‘otishning uddasidan chiqadi. Masalan, yozuvchi bir hikoyasini “Fideldan salom” deb nomlagan. Hikoya nomlanishidayoq Kubaning sobiq rahbari Fidel Kastroga ishora qilmoqda. Muallif hikoyada personajni lisoniy shaxs sifatida tavsiflar ekan, uning xarakter-xususiyatini ko‘rsatish uchun maqtanchoqlik nutqiy aktidan o‘rinli foydalanadi. Quyidagi parchani o‘qigan o‘quvchi bunga amin bo‘ladi: *Shu-shu, bobomiz Fidel Kastroga tengdoshgina emas, baayni safdosh bo‘ldi-qoldi. Uncha-muncha omiroq odam duch kelganida, “Anuv Kubaning podshosi bor-ku, soqolli, zo‘r, o‘sha bilan bir kunda (“bir yilda”si qolib) tug‘ilganmiz! – deya shishinib ketardi. – Bizga salom ham yuborib turadi. Ishonmasangiz, ana, Baxtidan so‘rang”. Shu gap bilan yo‘q guvohni topmoqchidek yon-veriga*

¹⁰⁵ Хусанов Б., Фуломов В. Муомала маданияти. – Тошкент, 2007. – Б.11.

qidirib ham qarardi (E.A'zam "Fideldan salom").

Ma'lumki, tilda illokutiv aktning amalga oshishida emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi vositalar ko'p bo'lib, ulardan biri ironiya hisoblanadi. "Ironiya – grekcha eironeia (bilib bilmaganga olish) so'zidan olingan. Ba'zan avtor voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu, ammo so'zlarni o'z asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatiq bilan, masxaraomuz yashirin kuladi. So'zlar va iboralarning kesatiq va piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi ironiya (kinoya) priyomi deyiladi"¹⁰⁶. Erkin A'zam o'zining "Arbob Qulov Parijga boradi" hikoyasida lisoniy shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish uchun aynan shu usulni tanlaydi va pragmatik samarani yuzaga keltiradi. Quyida keltirilgan matnda kinoya nutqiy akti quyidagicha aks etgan:

Jiydalining quramaligini ko'p aytdik, bu yer bobomdan qolgan, meniki, sen esa begonasan, ket bundan deydigan mol egasi kam topiladi – bari kelgindiligini biladi, bari shu yurt-go'sha o'ziniki ekanini ham biladi. Shunday bo'lsa-da, soyning ikki tarafi unda-munda "seniki-meniki" qilib turadi. Bunga o'rtadagi suv ne'mati misol Xudo ulashgan lahja ham bir sabab – narigi tomon "shumo-shumo"lab gapirsa, berigi tomon "uytding-buytding"dan oladi. Soyning nariyog'idagilar bisyor seriltifot, sermulozamat kelsa, biz tomon birmuncha errayim, to'poriroq – tuman markazidanmiz-da! Ajoyibi shundaki, oraga ishq savdosi aralashib, kelin u yoqdan bo'lsa – hamma "shumo-shumo"ga, bu yoqdan borganda esa o'sha xonadon chor-nochor "uytib-buytib"ga o'tmoqqa majbur. Berigi tomon goho bilar-bilmas "shumo-shumo"lay boshlasa, "Qo'ying-qo'ying, oshino, o'zingizning zabonda suxan qilabering, tushunamiz" deydi sipo tomon tantilik bilan. U o'zining shevasida gapirganida esa, baloni anglab turgan bo'lsak-da, bizga birmuncha mullayona tuyuladigan so'z ohangini masxaralab kulamiz (E.A'zam "Arbob Qulov Parijga boradi").

E'tibor berilsa, matnda *"Bunga o'rtadagi suv ne'mati misol Xudo*

¹⁰⁶ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 241.

ulashgan lahja ham bir sabab – narigi tomon “shumo-shumo”lab gapirsa, berigi tomon “uytding-buytding”dan oladi” gapi keltirilgan. Bu avvalo, personajning bilingvizm amal qiladigan hududda yashashiga ishora qiladi. Muallif lisoniy shaxs – personajning ikki til – o‘zbek va tojik tilida birday gapirishidan tashqari xulq-atvori, kishilar bilan munosabatida ham ikkiyoqlama xarakter egasi ekanligini ko‘rsatishni maqsad qilgan. Bu o‘rinda “shumo-shumo” va “uytding-buytding” pragmatik vazifa bajarmoqda. Hikoyaning keyingi o‘rinlarida ham muallif bu birliklarni takroran qo‘llash bilan ma’no kuchayishini ta’minlashga muvaffaq bo‘lgan:

Beg‘amroq elimizning o‘zi ham Beg‘amboy ismli bittasi yaylovda tug‘ilgan o‘g‘liga guvohnoma so‘rab shuning oldiga keladi. Anvar mirzo hujjatni raso xushxati bilan bezayturib, bir nuqtaga kelganda yosh otadan so‘raydi: “Qoniy, Beg‘amboy uka, mana, bachamizning otlarini Boyqobilboy deduk, millatlarini ne deyluk: qo‘ng‘irotmi, chag‘ataymi, yo “shumo-shumo” bo‘lsunlarmu?” “Eng zo‘rini yozaberasiz-da endi, mirzo bobo!” deydi dala kezmoqdan o‘zgasiga no‘noq qo‘ychivonimiz. “Shunday bo‘lsunmu? – deydi mug‘ombir mirzo mug‘ombirona iljayib. – O‘zimning elatimni yozib bersammi yo – dunyoda eng zo‘r elat?! ” “E, shundan keling, bobojon, bizdan ham zo‘r chiqsin-da! – deydi Beg‘amboy og‘zi qulog‘iga yetib. – Bir sovliq bizdan! Qo‘zisi bilan!” Boyqobilboyning nasl-nasabi oradan talay yillar o‘tib, zamon bir aylangach, sandiqda chang bosib yotgan hujjat qo‘lga olingachgina ma’lum bo‘ldi. Bu orada dunyo darvozalari lang ochilib, ketgani – ketgan, qolgani qolgan edi. Kechagi Anvar mirzomiz Avner Isxakka do‘nib, Isroilga surib ulgurgan, agar tirik bo‘lsa, hozir Quddusning bozorida tovuq sotib o‘tirgandir. Endi kimning yoqasidan olmoqni bilmaysiz. Bu yoqda esa Beg‘amboyning o‘g‘liga hatto qarindoshlari qiz bermayapti – Boyqobilboy juhud atalib qolgan, qaysi musulmon uni kuyov qilardi?! Teng-to‘shlari esa tegishgani tegishgan: “Ke, o‘zgartirib nima qilasan shuni? Qaytaga zo‘r-ku, burning qonasa ham butun dunyo himoyaga yugurib keladi. Erta bir kun narigi dunyoga ketganingda ham maza! Ana, qara, shahardan chiqaverishdagi yo‘l bo‘yida do‘mpaygan mozorotini qandoq obod qilib qo‘yibdi! Odam

yollab, o‘sh-sha yoqdan pul jo‘natib turarmish-a? O‘lganingdan keyin qayerda yotishniyam o‘ylagin-da, lodon!” (E.A‘zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Erkin A‘zam o‘zining “Bir daqiqa ko‘zingni yum” hikoyasida **haqorat nutqiy aktiga** xos so‘zlarni qo‘llash bilan personajlar orasidagi munosabatlarni yoritib berishga harakat qilgan: *Shu kechasi bilan o‘tirib samarqandlikmi, andijonlik Mansurmi, Mardon – mardikorning go‘riga g‘isht qalab chiqdik. Yakkash muhokama, yakkash munozara.*

– Ablah, tovlamachi!

– O‘g‘ri, kazzob!

– Ko‘zlari bejo edi o‘zi. Firibgarlik bilan ichimizga kirib olganini qaranglar yaramasning! Xo‘jayinga ham hech qanaqa qarindosh-parindosh emas ekan, boplab laqillatibdi bizni!

– Men boshdayoq sezuvdim, – dedi “xalq artisti” tantana qilib. – Aytgan edim sizlarga...

– Ammo-lekin juda bilimdon edi-da, – deb qo‘ydi “boburshunos”.

– Bilimdon, bilimdon! Mana senga bilimdon! O‘g‘ri! Ja-a inoq edinglar! Menga qolsa... Keyin uchovlashib menga hujumga o‘tishdi:

– Birinchi bo‘lib sen gaplashgansan! O‘shandayoq haydab yuborish kerak edi: Hammasiga sen aybdor!

– Iye! – dedim jahlim chiqib. – Sizlar-chi, sizlar nega haydamadinglar? Sizlar mendan kattasizlar-ku!

– Lekin bu yerda xo‘jayin – sen-da! – deyishdi bir ovozdan. – Sen haydashing kerak edi.

– Endi, bugunga kelib xo‘jayin men bo‘lib qoldimmi?! – dedim ko‘zimdan yosh chiqib. Yaxshilikka yomonlikni qarang! – Xo‘jayin men bo‘lsam... Xayriyat, “boburshunos” oraga tushib, kitob ko‘rgan donishmandlarga xos vazminlik, donishmandlarga xos odillik bilan masalani ajrim qilmoqchi bo‘ldi:

– O‘rtoqlar, bu yerda hammamiz birday aybdormiz yoki hammamiz birday begunohmiz. Mardikorga kelsak, u chindan ham... Rostini aytsam, o‘rtoqlar, mening sira ishongim kelmayapti bu ishga... (E.A‘zam “Bir daqiqa ko‘zingni yum”).

Keltirilgan matnda “ablah, tovlamachi, o‘g‘ri, kazzob” birliklari

vositasida muallif kommunikativ maqsadiga erishgan, ya'ni bu birliklar munosabat ifodasiga aylangan. Demak, salbiylik xarakteriga ega bo'lgan emotsiyaning yana bir ko'rinishi haqorat hisoblanadi.

“Manana” hikoyasida **tabrik nutqiy akti** qo'llanilgan:

Necha marta qadah ko'tarildi, kimlar sha'niga, nimalarga bag'ishlab alyor aytilmadi... Gruzin xalqi, gruzin dasturxoni, gruzin madaniyati, xalqlar do'stligi, Armaniston-u Belorussiya, Ozarboyjon-u O'zbekiston, oilaviy baxt, qahramonlarimiz, vatanparvarlik tuyg'usi, onalarimiz, ayol nazokati, muhabbat, ostonada turgan Yangi yil... Goho bunday madh-u sanolar senga, bir o'zingga qarata ham aytilaveradi... Sen – dunyodagi eng olijanob yigitsan. Chunki seni dunyoga keltirgan odam – otang ajoyib inson. Seni tuqqan ona – dunyoda eng mehribon, eng mo'tabar zot. Xotining – seni baxtiyor qilmoq uchun dunyoga kelgan suluv sanamlarning tanhosi. Jujuqlaring – dunyodagi eng shirin, eng asil bolalar. Negaki, ular sening pushtikamaringdan bunyod bo'lgan, senga o'xshaydi. Senga, do'sti aziz, muhtaram ota-onangga, vafodor xotiningga, shirin-shakar bolalaringga uzoq umr, shu umrga barobar saodat ato etsin! (E.A'zam “Manana”).

Matn balandparvoz uslubda, adresatni madh etish tarzida keltirilgan. Matndagi alyor, madh-u sano, olijanob, suluv, sanam, tanho kabi leksemalar muallif maqsadi amalga oshishini ta'minlagan.

Erkin A'zam asarlarida lisoniy shaxs bilan bog'liq nutqiy aktlardan biri **maqtanchoqlik nutqiy aktidir**. Ma'lumki, insonning har xil munosabatlarni aks ettiruvchi lisoniy faoliyati nutqiy aktning turli ko'rinishlarini yuzaga keltiradi. Baholash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nutqiy akt turlaridan biri maqtanchoqlikdir. Maqtanchoqlik – o'zini maqtash, maqtanishni yaxshi ko'rish kabi ma'nolarni ifodalaydi¹⁰⁷. Bu nutqiy aktda subyektning kommunikativ maqsadi adresat oldida o'z mavqeini baland ko'tarish, aqliy, jismoniy, moddiy, ma'naviy jihatdan imkoniyatlarining boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini namoyon etishdan iboratdir.

Ma'lumki, maqtanchoqlikning asosiy farqlovchi belgisi – o'zining

¹⁰⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Иккинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «О'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 570.

qadr-qimmatini oshirib ko'rsatish, real faktlar ongli ravishda noto'g'ri izohlanadi, obyektiv voqelikka mos kelmaydi, so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun mavjud axloqiy qoidalarga rioya qilmaydi, o'zining shaxsi bilan bog'liq haqiqiy faktlarni buzib, noto'g'ri talqin qilish orqali aynan shu nutqiy akt doirasida amal qiluvchi o'ziga xos mezonlar yaratadi. O'z xulq-atvoridagi kamchiliklarni boshqalar oldida imkon qadar yashirib, yutuqlarini esa orttirib ko'rsatishga harakat qiladilar¹⁰⁸. Maqtanchoqlik nutqiy akti asosan, dialogik nutqqa xos bo'lib, norasmiy hisoblanadi. "Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, berilayotgan axborot kimga qaratilgan, bir kishigami yoki ko'p kishigami, erkakkami yoki ayolga, kattagami yoki kichikka, jamiyatdagi ijtimoiy mavqei so'zlovchi bilan teng kishigami yoki farqli odamga va shu kabi jihatlar ham muloqot jarayonida nutq shaklini tanlashda juda-juda muhimdir"¹⁰⁹. Maqtanchoqlik aktining yuzaga kelishi va unda zaruriy unsurlar ishtirokini "Hulo'l" hikoyasi misolida quyidagi parcha asosida tahlil qilamiz:

Burchakda turgan daroz konditsioner behisht nasimini purkab, allaqanday xush bo'y taratadi. O'sha yoqqa tikilib qolganingni ko'rgan Boybichcha beozor izoh beradi:

– Yaxshi-ya? Mushki anbar. Bir tomchigina tomizib qo'ysangiz bas. Tepasida tuynukchasi bor. Dubaydan kelgan. Dubayda bo'lganmisiz? Voy, bir magaziniga kirdiik – shahar deysiz, shahar! Jazirama yoz ham shunda, qahraton qish ham shunda. Bir yoq sahro, bir yog'i oppoq qor qoplagan tepaliklar. Pastrog'-u, lekin xuddi o'zimizning Jiydali adirlarini eslatadi. Ishonsangiz, bitta-yarim erinmagani po'stin kiyib chang'i uchib ham yuribdi! Voqjab deb yoqamni ushlab qolibman. Bo'lmasa – to'rt tomon sahro! Arabiston-da! – Sayohatini ta'riflay-ta'riflay, Boybichcha tuyqus odatdagidek o'tkir tikilib qaraydi. – Dubaychi xotinlardan bo'p ketibdi deb o'ylamang tag'in. Boshimga uramanmi! Shunchaki tomoshaga boruvdik. Xo'jayin bilan. Kelasi yil hajga opketmoqchilar. Men... hoji ona

¹⁰⁸ Пардаев З.Н. Мақтанчоқлик нуткий актида баҳо// Хабаршысы. Вестник. – Нукус, 2010. – № 2. – Б. 74-78.

¹⁰⁹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 78.

bo‘lamanmi? Hozirdanoq! Yo‘q... Rosa maqtandim-a? – U bir soniya allanechuk mungli qiyofaga kiradi; yarashmas ekan. – Nimamgayam maqtanardim, do‘stim! Yuring, yaxshisi, maqtanadigan narsalarimni ko‘rsatay sizga... Kamxo‘r ekansiz-a, dasturxonga ham qaramadingiz tuzuk... (E.A‘zam “Hulo‘l”).

Inson xarakter-xususiyati Erkin A‘zamning “Bemorlik, binafsharang dori va “ijodiy” xayollar” avtofeletonida yorqin namoyon bo‘ladi. Feletonda inson ruhiyati bilan bog‘liq holatlar turli xil emotsional ma‘nolarni ifodalaydi. Bu ma‘nolar matn va ohang bilan bog‘liq ravishda reallashadi. Masalan, quyidagi parchada tanbeh nutqiy akti so‘zlovchining o‘ziga qaratiladi va sodda, so‘zlashuv nutqiga xos uslubda namoyon bo‘ladi:

Ammo u... Tolstoy edi-da! Sen-chi, sen kim bo‘libsan? Nima yozding, nima ish qilib qoyillatding-ki, cheksang? Chekib nima karomat ko‘rsatding? O‘zingni o‘zing qitiqlab, chetdan kuzatib kulasan, mag‘rurlanasan. To‘rt jumlanı tuzib-tuzmay mahliyo bo‘lasan, so‘zlarnı joylashtirishni o‘ylab tong ottirasan. Chekib! O‘sha jimjimador to‘rt jumlanı deb oshqozoning teshilishiga oz qoldi. Ana, sen tengi ba‘zilar tongda turib, chekmasdan ham, orqa-oldiga qaramay bir talay “yostiq”ni yozib tashladi. Sen esa hamon so‘zlar jimjimasiga mahliyo bo‘lib o‘tiribsan. Oqibati ma‘lum: uni “Sermahsul ijodkor, xalqimizning dardini topib yozdi”, deya ko‘kka ko‘tarishadi. Bu orada uning dolzarb mavzudagi yangi romani qappayaveradi, sening – kasalxonadagi bemorlik varaqang. Raqibingning har bir jumlasidan kamchilik topasan. Hasaddanmi? Balki. Axir, Tolstoy ham uncha-munchasiga parvo qilmay yozib ketavergan. Chekmay yozgan!

Demak, hech nimaga qaramasdan... Soat jiringlab qoladi. Eh, la‘nati, ijodiy xayollarnı tuzitib yubordi-ya! (E.A‘zam “Bemorlik, binafsharang dori va “ijodiy” xayollar”).

Yuqoridagi parchada yozuvchining til shaxsini namoyon qiluvchi “Sen-chi, sen kim bo‘libsan? Nima yozding, nima ish qilib qoyillatding-ki, cheksang? Chekib nima karomat ko‘rsatding?” kabi ritorik so‘roq mazmunli propozitsiyalar, “O‘zingni o‘zing qitiqlab, chetdan kuzatib kulasan, mag‘rurlanasan. To‘rt jumlanı tuzib-tuzmay mahliyo bo‘lasan,

so‘zlarni joylashtirishni o‘ylab tong ottirasan. Chekib!” propozitsiyalarida esa tasdiqlash akti bilan o‘z-o‘zini koyish, tanbeh mazmuni reallashtirilganini ko‘rish mumkin. *“O‘sha jimjimador to‘rt jumlaning deb oshqozoning teshilishiga oz qoldi”* propozitsiyasi orqali “kasallikni orttirmoq” tagma’nosi “chekishni tashla” **maslahat** mazmuni sizdirilgan. Nutqiy vaziyat va ohangga bog‘liq holda emotsionallik kuchli tarzda ifodalangan. Shu o‘rinda ham sintaktik vositalar o‘z nominativ funksiyasidan tashqari qo‘shimcha vazifalarni, ya’ni so‘zlovchining armonlari va orzularini, qayg‘u va hayratlanish holatlarini o‘zida aks ettirgan. Shu bilan birga hikoyada **afsus nutqiy akti** ma’nosi bilan uyg‘unlashishi o‘ziga xos tarzda berilgan. Bu nutqiy akt nutq so‘zlanib turgan vaqtdan ilgari sodir bo‘lgan voqea-hodisa, shaxslarga ishora qiladi. Buni “Shoirning to‘yi” qissasida kuzatamiz:

– *Mening unutilmas do‘stim Otashqalb hozir hayot bo‘lganida roppa-rosa sakson yoshga to‘lardi, – deya ma’nodorona gap boshladi Oqsoqol shoir. – Biz e’jod bo‘stoniga unutilmas do‘stim bilan bir paytda qadam qo‘yganmiz. Jo‘shqin komsomol yoshligimiz birga o‘tdi, shonli o‘ttizinchi yillarning qahramonona voqeligini birga tarannum etdik. Oldingi qatordan kimdir atayin hammaga eshittirib uh tortib yubordi. Hay’atda o‘tirgan bir necha kishining qulog‘i ding bo‘lib, ko‘zlari aybdorni qidirib qoldi* (E.A’zam “Shoirning to‘yi”).

Matnda quyidagi gaplar ham afsus mazmunini kuchaytirgan:

– *Azizlar, bir lahzagina tasavvur qiling-a, – deb boshladi u so‘zini odatdagicha suxandonlik va chechanlik bilan, – qani edi, ul ajoyib Otashqalb, isyondil shoirimiz bir damgina tirilib kelib, mana shu muazzam qasri oliyda bazmi nafis qurmoqda bo‘lgan siz-u bizning ko‘ngillarimizni, ko‘ngillarimiz barobari davramiz to‘rini-da to‘ldirib o‘ltirsalar, ofarin-u tasannolarga ko‘milib davron sursalar ne baxt-u saodat bo‘lur edi!.. Bu yaltiroq so‘zlar tizimidan sehrlangan gustohroq kimdir nihoyatda ulug‘ bir gap aytili, deb o‘yladi shekilli, qo‘qqisdan chapak chalib yubordi, boshqalar ham bilib-bilmay qo‘shildi* (E.A’zam “Shoirning to‘yi”).

Quyidagi parchada esa maqtoov nutqiy akti berilgan:

– *Bu safga men ajoyib singlimiz, Otashqalb shoirimizning jondek*

jigari, uning hayoti va e'jodini mehnatkash xalqimizga yetkazishdek mashaqqatli ishda zo'r g'ayrat namunasini ko'rsatgan latofatli va nazokatli Jiyanbekani qo'shgan bo'lur edim.

Hay'at stolining etakrog'ida o'tirgan ko'hlikkina, ma'ruzachi bilib aytgan "latofatli va nazokatli" Jiyanbeka istig'no bilan bir to'lg'anib qo'ydi: e'tiboringiz uchun tashakkur, bizga hali gal keladi, o'shanda ko'rasiz! – Vanihoyat, – dedi Ajoyib domla jo'shib, – Otashqalb shoirimizning safdoshi bo'lmish kaminai kamtarinni-da ushbu safga qo'shmoqqa jur'at qilgali ruxsat etgaysiz, muhtaram ahli anjuman! (E.A'zam "Shoirning to'yi").

Erkin A'zam ijodida maslahat nutqiy aktining ham o'ziga xos o'rni bor. Adabiyotlarda qayd qilinishicha, maslahatda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

– nutq muloqotchilarining o'zaro bog'liqligi tanish-bilishlik, kasbiy, oilaviy jihatdan yaqinlik ko'rinishida bo'lishi mumkin;

– nutqiy akt jarayonida tinglovchining emotsional holati hisobga olinishi kerak. Axborot qabul qilishga ruhiy jihatdan tayyor bo'lmagan kishiga berilgan maslahat ijobiy natija bermaydi. Shuning uchun, uning maslahat olishga moyilligi, so'zlovchi fikrlarining to'g'ri ekanligiga to'liq ishonishi kabi holatlar muhim o'rin tutadi;

– so'zlovchining odob-axloq borasidagi mavqei adresatga nisbatan ustunligi maslahat ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi;

– baholash maslahatning to'g'ri tushunilishini ta'minlashda, ekspressivlikni oshirishda nutqiy aktning asosiy komponenti sifatida ishtirok etadi. Bunda so'zlovchi fikrlari obrazli, emotsional so'zlar vositasida tinglovchiga yetkazilib, tinglovchining noto'g'ri xatti-harakatlari baholash orqali tushuntirib beriladi;

– maslahat nutqiy aktining yuzaga chiqishini ta'minlovchi asosiy elementlardan biri dalillar hisoblanadi. Dalillar so'zlovchi fikrlarining to'g'ri ekanligini isbotlashga xizmat qiladi¹¹⁰.

Bu nutqiy aktga xos xususiyatlarni biz Erkin A'zamning "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasida uchratamiz:

¹¹⁰ Пардаев З. Маслаҳат нутқий актида баҳо// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 72-76.

– Uka, sen endi uylanishing kerak ekan. Qachongacha bunday yurasan? Ke, bir ish qilaylik. O‘zingga mos, chiroylikkina bir armankani topib beray. Senga aytsam: armankalardan zo‘r xotin chiqadi. Mehnatkash, pazanda, uddaburon. Sizlar aytganday – yozda ko‘rpa, qishda ko‘rpacha. Pushaymon qilmaysan ammo!

– O‘sha chiroyli armankangiz menga tegishga rozi bo‘larmikan? – dedi Pakana bir cheti ermak, bir cheti pinhona o‘kinch bilan.

– Ko‘ndiramiz-da, nima deyapsan! Sizlar-ku begona millatga ko‘pam xaridor emassizlar, bilaman. Yo o‘zbechkasidan bo‘lsinmi?

– E, unga uy kerak, joy kerak. Teatr...

– Teatringni qo‘yib tur. Uy-joy masalasini o‘zimiz bir yoqli qilamiz, ishing bo‘lmasin, Pakana bir qop go‘shni alohida hafsala bilan uqalay boshladi. Bilib bo‘ladimi, juda ishbilarmon odamga o‘xshaydi...

– Uylanardim-u, yaxshirog‘i uchramayapti-da, – dedi u battar tarang qilib. Ko‘nglining tubida miltillagan bir ilinj yo‘q emasdi.

– Iya, shahar to‘la qiz-ku! – dedi Levon amaki jig‘ibiyron bo‘lgandek va shu yerdagi ko‘zni qamashtirib yurguvchi hamshira qizlarni misol qila ketdi:

– Mana, o‘zimizda qancha! Salima, Ra‘no, Gavhar, Arofat... hammasi yaxshi qizlar. O‘zim gaplashib beraman, agar xo‘p desang. Ayt, qaysisini? (E.A‘zam “Pakananing oshiq ko‘ngli”).

Keltirilgan parchada personajni uylanishga tayyorlash, tanlangan nomzodni muhokama qilish aks etgan. Quyida esa mazkur jarayonni tashkil qilish, pragmatik maqsadga erishish taktikalari sodda uslubda bayon qilingan:

– To‘g‘ri, Ra‘no erga tegayotganmish, eshitishimcha, – dedi Xizr bobo Levon amakiga aylanib. – Gavhar ham tuzug-u, lekin... “...senga to‘g‘ri kelmaydi. Bo‘yi baland”.

– Yaxshi ular hammasi. Ammo ko‘ngildagi emas-da.

– A, bunday de. Konechno, rassomsan, poeziya, fantaziya! – Levon amaki yana tadbir qidirib o‘yga toldi, so‘ng astoydil hafsala bilan yostiqqa yonboshlab oldi. – Ke, bunday qilamiz. Shulardan birortasi bilan nikohdan o‘tasan, keyin...

– Nikoh?

– Soxta nikoh-da.

– Soxta nikoh?! – *Pakananing yuragi yorilgudek bo‘ldi.*

– *Shoshmay tursang-chi! Keyin sizlarni, yosh kelin-kuyovni biror joyga ro‘yxatga tirkab, uy olib beramiz. Ikki-uch oy birga yashagandek bo‘lasizlar. Shoshmagin-da, nomiga, qog‘ozda. Qizni butkul ko‘rmasliging ham mumkin, pasporti bo‘lsa bas. Pasport nima, besh-o‘n so‘mga yangilab beradi. Qotiramiz. Keyin esa rasman ajrashasizlar. Bahonada uyli bo‘lib qolasan, xumpar. Ana u yog‘i xohlaganingga... Uy-joyli odamga lyubboyi jon deydi. Qarasam, bu yurishda, bir boshing bilan hech kim senga uy bermaydi. Tem bolee, teatring. Bersa, yotoq-potoq berar. Senga to‘g‘ri kelmaydi. Yaxshi yigit ekansan, menga yoqib qolding. Barmoqlaring shifobaxsh, biotoking bor sen bolaning, jonimga ora kirdi (Aslida, gavdasi nozikroq bo‘lgani bilan Pakananing qo‘llari chayir, sirtidan ozoda ko‘rinadigan rassomchilikning qora ishlarida pishib, pay boylab ketgan, xolos). Senga shunday bir yaxshilik qilmasam, nomardlikka kiradi. Qalay, ma‘qulmi reja?*

– *Ma‘qul-u, qiyin ishmi deyman-da. Aql bovar qilmaydi, – dedi afsunlanib qolgan Pakana.*

– *Lanjlikni qo‘y. Ishning osoni bor ekanmi? Albatta, sovg‘a-povg‘a berib qizni rozi qilish kerak bo‘ladi. Mayli, bu yog‘ini menga qo‘yib ber, o‘zim gaplashaman. Qaysisi tuzuk? Arofat, a? Mehnatkash, kamtar, yuvosh. Vdrug, a?..*

– *Levon amaki sho‘xlik bilan ko‘z qisib qo‘ydi. – Sen ko‘nsang bas, ishni boshlayveramiz. Qotiramiz! Pakana indamadi (E.A‘zam “Pakananing oshiq ko‘ngli”).*

Yuqoridagi misollar tahlilidan badiiy matnda personajning lisoniy shaxs sifatida ruhiy holati orqali xarakteri, o‘y-kechinmalarini anglash mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Parchada taklif, hayrat, afsus nutqiy aktlari qorishiq holda namoyon bo‘lgan.

Matn yaratilish jarayonida lisoniy shaxs ongi va tafakkurida avvalambor psixologik holat kuzatiladi. Misollar tahlilidan ma‘lum bo‘layaptiki, badiiy matnda personajlar nutqini kuzatganimizda so‘zlovchi shaxsning nutqi orqali uning dunyo qarashi, ko‘rinishi, ijtimoiy hayoti, qanday shaxs ekanligi yaqqol gavdalanadi.

Badiiy asarda badiiylilikni ta'minlovchi element sifatida emotsionallik ham muhim ahamiyatga ega. Yozuvchining asarda asar motivini belgilashida, personajlar portretini chizishida, ularning xatti-harakatlarini tasvirlashida, baholanuvchi obyektga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati doirasida emotsional mazmun yuzaga keladi. Muayyan nutq shart-sharoiti, mavzusi so'zlovchi munosabatiga bog'liq holda tildagi "har bir so'z" his-tuyg'u, zavq, estetik vazifa ifodalash vositasiga aylanishi mumkin. Turli xil his-tuyg'u ifodalashning muhim vositasi hisoblangan so'zlar zavqlanish, quvonch, xursandchilik, koyish, qo'rqish, afsuslanish, norozilik, e'tiroz, jirkanish, nafratlanish, g'azab, xo'rlik, o'kinch, alam, pushaymon, g'am, qayg'u, musibat, kulfat, dard, g'am-g'ussa, mamnunlik, yig'i, maslahat kabi turli xil emotsional ma'nolarni ifodalaydi. Bu ma'nolar matn va ohang bilan bog'liq ravishda reallashadi. Buni biz yuqorida tahlil qilgan matnlar dalillaydi.

2.3. Muloqotning sotsiopragsmatik tahlili

Muloqot faoliyati nutq orqali o'zaro aloqa va ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki inson faoliyati davomida o'zaro bir-birlari bilan doimo munosabatda bo'ladi. Bu jarayon ma'lumotlarni uzatish, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini, muvaffaqiyati, obro'si, avvalo uning muloqotga kirisha olish qobiliyati, verbal shakllardan o'rinli foydalana olishi bilan bevosita bog'liqdir.

O'zaro shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, inson uni hayoti davomida ijtimoiy-madaniy omillarga bog'liq holda o'zlashtiradi hamda shakllantirib boradi. Bir qarashda sodda ko'ringan va ayni paytda o'ta murakkab bu muloqot harakati verbal va noverbal vositalar orqali amalga oshiriladi. Muloqotning verbal shakli shaxslararo axborot almashinuvining asosiy vositasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida suhbatdoshiga ma'lumotning oson yetkazilishi va tushunilish imkoniyatini beradi. Real muloqot jarayonida so'zlovchi tomonidan sodir etiladigan harakatlar: gavda qismlari, qo'l harakatlari, ovoz ohangi, imo-ishora, yuzidagi tabassum va boshqa usullar orqali ma'lumotlar uzatish yoki qabul qilish noverbal vositalarga kiradi. Bu esa axborotni

tez, qulay, ravshan va aniq ifodalash yoki tushunishga hamda muloqot maqsadining samarali amalga oshishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, tilshunos Sh.Safarov ta'kidlaganidek, “nutqni jarayon sifatida o‘rganish faqat muloqot – so‘zlovchi va tinglovchi orasida o‘zaro diskurs (fikir almashtirish), savolga yarasha javob berish holatidagina tadqiq etilishi mumkin”¹¹¹.

Biz mazkur sotsiopragmatik tahlil uchun yozuvchining “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasini tanladik. Hikoya kinoyaviy munosabatlar asosida o‘ziga xos uslubda yozilgan bo‘lsa-da, nutqiy aktlarga oid xususiyatlarni o‘zida namoyon etgan.

U har yili xuddi bir paytda – yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko‘klam kunlarida kelardi; shamollarga qo‘shilib, shamoldek to‘polon bilan kirib kelardi. To‘satdan. Yelkasida – ha, qo‘lida emas, yelkasida – ikki tarafga ham “Barnaul” deb yozilgan pachoq chamadon, chap ko‘zini qisinqiragancha qarshingizda beo‘xshov tirjayi-ib turadi. So‘ng, chamadonni harakatsiz buyumdek bir chetga uloqtiradi-da, qulochlarini keng yozib, bolaligingizni yodga soladigan, bolaligingizdek sho‘x, bolaligingizdek beg‘am ovozda hayqiradi:

– Chantrimore-e!

Siz esa – uni ko‘rganingiz zahoti g‘am bosib, tashvishga cho‘masiz: xayr endi, osuda kunlarim! U hali shunday g‘ala-g‘ovurga ko‘mib yuboradiki! Biroq ayni damda, har ikkalangiz uchun qadrli, shartli bu g‘alati taomilni buzishga haqqingiz yo‘q.

Matn boshlanishidayoq hamkorlar orasidagi masofa do‘stlarga tegishli ekanligi anglashiladi va bu navbatdagi bosqichga – iyerarxiyaga – ijtimoiy kelib chiqishga bog‘lanib ketadi. Matndagi “**tentak shamol**”, “**to‘polon bilan krib kelmoq**”, “**ikki tarafga ham “Barnaul” deb yozilgan pachoq chamadon**” kabi birliklar so‘zlovchining qishloqda yashovchi ijtimoiy qatlamga mansubligiga ishora qilib turadi. Shunisi xarakterliki, suhbatning keyingi bosqichida matnda ifodalangan ma’no noverbal vositalar yordamida yana-da kuchaytiriladi:

¹¹¹ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2007. – Б. 15.

– *Kalamakatore, – deysiz istar-istamas.*

– *Yana keldingmi? Yana o‘qishgami?*

– *Senginaning jonginangga tegishga! – deydi u va battar g‘ashingizni qo‘zg‘amoqchidek, **belingizdan mahkam ko‘taradi, aylantiradi.***

– *Ha, jo‘ramdan-da, jurajonimdan-da!*

Erkin A‘zam ijodida inson xulq-atvori, ruhiyati, ichki kechinmalarini tasvirlash hikoyalarning bosh mazmuni sanaladi. Hikoya matnining muhim diskursiv xususiyatlari hamda ifoda usullarining umumbahoviy vositalar tuzishdagi ishtirokini aniqlash ko‘zda tutiladi. Matnda bayon qilingan muloqot akti nutq ishtirokchilari uchun turli darajadagi ta‘sir kuchiga ega. U ruhiy ta‘sir ko‘rinishi sifatida perlokutiv akt xususiyatlaridan iborat bo‘ladi. Suhbatdoshlar nutqidagi *chantrimore-e, kalamakatore, jo‘ramdan-da, jo‘rajonimdan-da* kabi lisoniy birliklarning qo‘llanilishi suhbatdoshlarning yoshi teng ekanligi, bu so‘zlarning ma‘nosidan yaqin do‘st ekanligini bilish mumkin. Muloqot jarayonidan keltirilgan “*chap ko‘zini qisingiragancha qarshingizda beo‘xshov tirjayi-ib turadi*”, “*qulochlarini keng yozib*” noverbal harakatlardan shuni anglash mumkinki, suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei jihatida teng, bir-biriga tobe emas. Shu uchun ham ularning nutqida “samimiylilik” ma‘no yuki kuchli ifodasini topgan. Hikoya davomidagi matnda ham bu holat yaqqol tasvirlangan:

*Uyga kirilgach, **egasidek betayin – qulflansa ochilmaydigan, ochilsa qulflanmaydigan antiqa chamadon** ming bir amal-taqal bilan ochiladi. Xona **kuzaki olmalarning** hidiga burkanadi. **Bir yog‘i qirmizi, bir yog‘i xol-xol, bandining tubi qizil qumga to‘lgan olmalar; ko‘rimsiz, jaydari olmalar. Bolaligingiz olmalari, bolaligingiz hidlari.** Boshingiz aylanib ketadi. Ko‘p narsa birdan esingizga tushadi, entikasiz. Shu tobda uni quchoqlab olgingiz, “Jo‘rajon!” degingiz keladi. Ammo, nimadir, – boyagi g‘ashlikmi, g‘ururmi yo‘l bermaydi, ijirg‘anib so‘raysiz:*

– *Nimaga kelding, Ramazon? Bari bir kirolmaysan-ku?!*

– *Kirsam-chi? – deydi u yana chap ko‘zini qisingiragancha tirjayib. – Kirsam-chi? – Kirolmaysan! Xudoga ham, bandasiga ham*

ayon!

– Mayli, jo‘ra, buyam bir gap-da. Mana, sen o‘qiyapsan-ku, bo‘ladi-da menga shu. Qo‘y-e, manavi olmalarga qarasang-chi! Bunaqasi Bog‘i Eramda ham bitmaydi!

Nutq faqat o‘zining mazmuni bilan emas, balki so‘zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta’sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin. Muloqot orqali ifodalangan so‘z kishiga ta’sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. “Matn semantikasining modus komponenti voqelik rejasi – emotsional yoki ratsional jihatlarni tashkil etadi. Matn semantikasining pragmatik komponenti – matnning illokutiv va perlokutiv kuchlari, uning faoliyat kuchi hamda adresatga ta’sirini tashkil etadi. Matnning illokutiv kuchi ifoda – gap kabi muallif fikri, motivi sifatida asarning u yoki bu janr shaklini tanlab oladi. Ta’sir etuvchi (perlokutiv) kuchlar tanlangan janr xususiyatlariga ko‘ra aniqlanadi”¹¹².

Tahlilga tortilgan asarning bosh qahramoni Ramazon. Asardagi voqealar syujeti shu obraz xatti-harakati, faoliyati asosiga qurilgan va bu voqeaga ijtimoiylik nuqtayi nazardan baho berilib, til birliklarining sotsiopragmatik imkoniyatlari ochib berilgan. Ramazonning jamiyatning bir a’zosi, ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qishloq hududiga mansubligi uning fikr ifodalashida, til birliklarini qo‘llashida ko‘rinadi. Obyektiv olamdagi voqea, hodisa va predmet haqidagi ma’lumotlarni qabul qilish va uni qayta aks ettirish darajasi so‘zlovchining olam haqidagi bilimlari bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘zlovchining o‘z fikrini aniq, lo‘nda va to‘g‘ri ifodalashi uchun uning olam haqidagi bilimlari mukammal bo‘lishi lozim. So‘zlovchining nutqi uning o‘zligi haqida to‘liq ma’lumot beradi¹¹³.

Darhaqiqat, bu fikr isbotini asarda muallif tavsifida va Ramazon nutqida kuzatamiz. Asar muallifi voqealar rivojini keskin tazda kuchaytirmaydi. Balki personaj xarakter-xususiyatlari bilan o‘quvchini xabardor qilishda uning o‘zini so‘zlatadi. Bu o‘rinda obrazning o‘zini

¹¹² Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 84.

¹¹³ Данияров Б.Х. Ўзбек тилида лексик синонимларининг лингвопрагматик хусусиятлари// Илм sarchashmalari. – Urganch, 2019. – № 10. – Б. 52.

o‘zi tanishtirish roli kuchaya boradi:

Ramazonning hangamalarini tinglarkansiz, Boysun oralab yurgandek, ajabtovur odamlar to‘dasiga kirib qolgandek bo‘lasiz. – **Tur endi, ko‘cha aylanaylik**, – deydi u “yangiliklari”ni aytib tugatgach. – **Seni bi-ir lag‘monga to‘ydiray, to‘rt tiyinlik “dumba-jigar” somsadan yeyaverib oshqozoning kalla-pochaga to‘lib ketgandir. Menga qara, to‘rt tiyin-to‘rt tiyin yig‘ib, shu somsachiga bir haykal qo‘ysalaring-chi, a? Maslahat-da buyam. Beshyog‘ochning o‘-o‘rtasiga! Tatigan tuzingga tovon-da.** Ramazon turish-turmushi bilan shaharga yarashmaydi, shaharga sig‘maydi. Unga qo‘shilib ko‘chaga chiqqani ham uyalasiz. Yurgan yo‘lida lakalov qiliqlar qilib, hammani o‘ziga qaratib, shang‘illagancha allanimalarni vaysab ketaveradi. Lug‘ati ham antiqa: tramvayni **“uch tiyinlik”** deydi, taksini – **“pulyutar”**, restoranni – **“registron”**.

Badiiy adabiyotda yozuvchining individual uslubi bilan bog‘liq ravishda obrazning xarakterini ochish uchun uslubiy vosita sifatida pragmatik to‘siq hodisasidan ham foydalaniladi. Yuqorida keltirilgan matnda yozuvchi Ramazonning o‘ziga xos nutqi orqali uning xarakterini ochib berish maqsadida pragmatik to‘siqdan mahorat bilan foydalanganligini ko‘rish mumkin: *“Menga qara, to‘rt tiyin-to‘rt tiyin yig‘ib, shu somsachiga bir haykal qo‘ysalaring-chi, a? Maslahat-da buyam. Beshyog‘ochning o‘-o‘rtasiga! Tatigan tuzingga tovon-da”* kabi propozitsiyalaridan foydalanilgan. Propozitsiyaning tinglovchi tomonidan to‘g‘ri anglanishi uchun to‘siq vazifasini bajargan. Bu esa do‘sti (hikoyachi) tomonidan “ahmoq”, “beforasat” kabi ma’nolarni anglatuvchi propozitsiyani shakllantirishga xizmat qilgan va: *“Ramazon turish-turmushi bilan shaharga yarashmaydi, shaharga sig‘maydi. Unga qo‘shilib ko‘chaga chiqqani ham uyalasiz. Yurgan yo‘lida lakalov qiliqlar qilib, hammani o‘ziga qaratib, shang‘illagancha allanimalarni vaysab ketaveradi. Lug‘ati ham antiqa: tramvayni “uch tiyinlik” deydi, taksini – “pulyutar”, restoranni – “registron”* kabi xulosalar chiqarishga hamda fikr yuritishga sabab bo‘lgan. Tilshunos olim M.Hakimov to‘g‘ri takidlaganidek, “pragmatik to‘siq tushunchasi, asosan, so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasidagi kommunikativ

munosabatda aniq ko‘rinadi, ayniqsa, nutq ishtirokchilari tasavvurida olam hamda til bilimlarining darajalanishi pragmatik to‘siqning asosi”¹¹⁴ hisoblanadi.

Ma’lumki, so‘zlovchi bayon qilmoqchi bo‘lgan asosiy maqsadli axborot, xabar orqali voqelikning aks etishi propozitsiya hisoblanadi. Nutqiy akt semantik tuzilishidagi propozitsiya masalalarini semantika o‘rganadi. Demak, propozitsiya – til vositasida anglashiladigan nutq predmeti haqidagi asosiy maqsadli nutqiy harakat. Masalan:

Malika ikkimizga boshlab oq fotiha bergan ham shu – Ramazon. Endigina tanishgan, kinoteatrlarga qatnab yurgan kezlrimiz edi. “Yur, sening ham madaniy saviyang oshsin”, deb bir gal Ramazonni teatrga ergashtirib bordim. Madaniy saviyasi oshgan-oshmaganini bilmadim-u, yugurdi-yeldi – bilet topib bizni xursand qildi, tanaffus mahali shampantu muzqaymoq ulashib, Malikaning ko‘nglini topdi. Ammo bir vaqt tomdan tarasha tushgandek, unga qarab salmoqlangancha “Keli-in, endi-i, bizning Boysunlar ham yomon joy emas”, deb qolsa bo‘ladimi! Xijolatdan muzlab ketdim. Malika jimgina kulimsirab qo‘ydi. Teatrda keyin uyiga kuzatayotib, Ramazonning qo‘polligi uchun uzr so‘raganimda, u “Do‘stlaringiz ichida eng yaxshisi shu ekan”, dedi.

Bizning Ramazon ana shunday!

Yuqoridagi matnda oddiy tasdiq akti haqidagi xabar mazmuni propozitsiyadir. Subyektning *“Malika ikkimizga boshlab oq fotiha bergan ham shu – Ramazon”, “Bizning Ramazon ana shunday!” “Yur, sening ham madaniy saviyang oshsin”, deb bir gal Ramazonni teatrda ergashtirib bordim. Madaniy saviyasi oshgan-oshmaganini bilmadim-u, yugurdi-yeldi – bilet topib bizni xursand qildi, tanaffus mahali shampantu muzqaymoq ulashib, Malikaning ko‘nglini topdi”* kabi propozitsiyalardan do‘stidan g‘ururlanish, faxrlanish semalari yaqqol sezilib turibdi. Ammo bir vaqt tomdan tarasha tushgandek, unga qarab salmoqlangancha *“Keli-in, endi-i, bizning Boysunlar ham yomon joy emas”, deb qolsa bo‘ladimi! Xijolatdan muzlab ketdim. Malika jimgina kulimsirab qo‘ydi* kabi propzitsiyalarda esa ekspressiv tagma’no

¹¹⁴ Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 126.

ko‘rinishlarida so‘zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his-tuyg‘ulari ham qo‘shiladi. So‘zlovchi shu akti sodir etar ekan, o‘zi qilgan ishlardan g‘ururlanish, maqtanish ottenkalari aks etgan “zo‘r yigit” yashirin mazmunni propozitsional akt orqali bayon qiladi.

Ramazon qalbi ertalabki shudring kabi pok, ajoyib, bolalikka xos beg‘uborlik, yoshlikka xos samimiyat ila insonlar, davralar sari intiladi. Shunchalik darajada ko‘nglida kiri yo‘q, dali-g‘uli, o‘ta dovdir ko‘ringan Ramazonning o‘ziga xos siyratida hech kim, hatto do‘sti ham tushuna olmaydigan olami borligini his qilamiz.

Erkin A‘zam asarlarida tanbeh, haqorat va qarg‘ish kabi nutqiy ifodalardan o‘z qahramonlari va personajlarining xarakter-xususiyatlari, ma‘naviy-qiyofasini yoritish, axloqiy saviyasi va ruhiy holatini tasvirlashda mohirona foydalanganini kuzatish mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘zbek tilida haqorat va qarg‘ish mazmunini ifoda etadigan leksik birliklar va iboralar anchaginani tashkil etadi. Quyidagi matnga e‘tiborimizni qaratamiz:

Dastlabki tergovning ko‘rsatishicha, qochgan chayqovchi – ishboshi. O‘sha men emishman!

– Kim aytdi, kim? Isbotlang! – deya joyimdan turib ketdim.

– Kim aytardi, sherigingiz – Haydarov!

Quyidagi parchada tergovchi tomonidan fakt sifatida yetkazilgan xabar suhbat jarayoni keskinlashuviga, subyektiv munosabat o‘zgarishiga va shunga bog‘liq holda haqorat mazmunidagi leksik birliklarning muomalaga kiritilishiga zamin yaratgan:

La‘nati Ramazon! O‘zing tushgan chohga meni ham tortmoqchi bo‘libsanda? Nomard, chayqovchi!

– Chaqiring! Yuzlashtiring! – Shosha-pisha yonimni kavlab, xizmat guvohnomamni tergovchining oldiga otdim:

– Mana, ko‘ring!

Tergovchi unga anchayin bir ko‘z tashladi-yu qaytib qo‘limga tutqazdi, sinovchan tikilib so‘radi:

– Og‘ayningiz avval ham chayqovchilik bilan shug‘ullanarmidi? Shunda og‘zimdan chiqqan gap uchun o‘zimni hech qachon kechirmasam kerak:

– *Shug‘ullangan bo‘lsa bordir, men qayoqdan bilay? U og‘aynim emas, shunchaki hamqishloq, hamshaharmiz.*

– *Shunaqami? U sizni og‘aynim, yaqin og‘aynim, dedi-ku?! Hozir olib kelsam, og‘aynim emassan, deb yuziga ayta olasizmi?*

– *Bo‘pti, sizga ruxsat, – dedi tergovchi chaqiruv qog‘oziga imzo chekib berarkan, sovuqqina bir ohang-da.*

– *Iloji bo‘lsa, uyidagilariga xabar qilib qo‘ysangiz – kelasi jumada sud. Ha, shoshmang. U siz haqingizda hech nima degani yo‘q. “Og‘aynim bo‘ladi, ikki kecha uyida yotdim”, dedi, xolos. Keyin tergovchiga anqayib qaradim.*

Hikoya qahramoni Ramazon beg‘ubor, sodda, samimiy. Hayotga ham o‘zining o‘sha samimiy tasavvuri bilan boqadi. Shuning uchunmi, Ramazon doimo muammolar girdobida bo‘ladi. Tergovchi oldiga kelgan do‘stining ***la’nati, nomard, chayqovchi deb, haqorat*** so‘zlarni aytishi ham bejiz emas. Chunki, do‘stining juda sodda, anoyi ekanligi g‘ashini keltirar, doimo Ramazonga tanbeh berar, boshqalar qatori bo‘lishiga undar edi. Shuning uchun ham yuqorida aytilgan haqorat so‘zlar lisoniy shaxs sifatida personajning xarakterini yoritish va o‘sha vaziyatdagi ruhiy holatini aks ettirishga xizmat qilgan. Bu holat quyidagi sud jarayoni tasvirlangan matnda yanada yorqinroq namoyon bo‘lgan. Asar muallifi voqea tavsifini berishda dastlab e‘tiborni voqea kechayotgan joy, suhbat rivojiga qaratadi. Bunda muallif tomonidan qo‘llanilgan ***“qip-qizil hangoma”, “g‘alati sudlanuvchi”*** kabi tavsiflar o‘quvchida muayyan tasavvur uyg‘otishga xizmat qilgan.

Matnda qo‘llanilgan har bir birlik pragmatik vazifa bajarishga yo‘naltirilganligi yaqqol sezilib turadi. Bunda muallif tomonidan verbal va noverbal vositalarning o‘zaro uyg‘unlikda tanlanishi emotsional-ekspressivlikni kuchaytirgan. Mana, **personaj tashqi ko‘rinishi: Sochi tap-taqir olingan**, egnida – yotgan joyidagi allakimning ola-bula, yoqasi ochiq bachkana ko‘ylagi, qo‘llarini orqaga qilgancha burchakda allanechuk kulgili tarzda qoqqayib turibdi.

O‘xshatish hosil qiluvchi birliklar va noverbal vositalar ishtiroki:

Ramazon hozir ayblanuvchidan ko‘ra ko‘proq qiziqchiga, o‘zini

atay merovlikka soladigan **sirk masxaraboziga** o'xshar-di.

Go'yo bu yerda bo'layotgan gaplarning unga sira aloqasi yo'q – to'planganlarni shunchaki kuldirishi, maroqlantirishi lozim, xolos.

Savolni tushunmagandek **ko'zlarini pirpiratib**, xonadagi yigirma chog'liq odamga **bir-bir qarab chiqqandan** so'ng shiftga **tikilgan ko'yi** shunday bir gapni aytib yuboradiki, sudya **ko'zoynagini qo'lga olib baqrayib qoladi: goh yelkasini qisadi, goh boshini changallaydi.**

Noverbal harakat va ruhiyat uyg'unligi: Ramazonning o'zi esa menga qarab xijolatomuz iljayib qo'yadi.

Muallif individual uslubining o'ziga xosligi shundaki, u voqea sodir bo'layotgan joy, vaziyat, ishtirokchilar tashqi ko'rinishi, xatti-harakati, ruhiyati bilan bog'liq tasvirlardan cheklanib, bu boradagi fikrlarini umumlashtirish vazifasini iboraga – “jin chalmoq” frazeologizmiga yuklaydi:

*Tergov beraveriga joniga tekkanmi yoki birga yotgan tajribali sheriklarining turli-tuman yo'l-yo'riqlari gangitib tashlaganmi, xullas, uni qandaydir **jin chalgani** aniq edi.*

Yuqoridagi matnda ham sud jarayonidagi Ramazonning holatini, o'ziga xos samimiy xarakteri, soddaligi, to'g'riso'zligini mahorat bilan tasvirlagan. Yozuvchining monolog, dialog, ichki monologni shakllantirish, voqelikni badiiy aks ettirishda til ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanish mahorati o'quvchini mushohadaga, mulohazaga, fikrlashga undashi, pragmatik mazmun imkoniyatini to'liq aks ettira olishi adabiyotimiz rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilganini e'tirof etish lozim:

– Ayblanuvchi Haydarov Ramazon, oldin ham shu ish bilan shug'ullanganmisiz? – deb so'raydi sudya.

– Men, Haydarov Ramazon, 1950-yili Boysun rayonida tug'ilib edim. Keyin... – deya tutilib qoladi.

– Ayblanuvchi Haydarov, hech kim sizdan tug'ilgan yilingizni so'rayotgani yo'q. Oldin ham chayqovchilik qilganmisiz, deyapman?

– Keyin maktabni bitirib, Sovet Armiyasi safida xizmat qilib edim. Keyin bo'lsam...

– “Keyin, keyin”... – Sudyaning ensasi qotdi. – Hayda-arov! Bu

gaplar hammasi mana – ishingizda yozilgan. Siz bizga ayting: avval ham qilganmisiz shu ishni?

– Qanaqa ishni?

– Uf-f! Chayqovchilik-da!

Ko‘rinyaptiki, sud jarayonida ayblovchi va o‘zini himoya qiluvchi tomon o‘rtasida inson huquqi masalasida tortishuv bo‘lmoqda. “Tortishuv” tushunchasi o‘zida “so‘z muzokarasi, fikrlar kurashi, masala talashmoq, ixtilof” ma’nolarini qamrab oladi¹¹⁵. Sud jarayonlari doirasida esa “bahs, tortishuvning har bir tomonning (ayblovchi va himoyalalanuvchi tomonning) o‘z pozitsiyasini himoyalash shakli” sifatida qaraladi¹¹⁶. Mazkur jarayonni tushunish uchun olimning fikricha, quyidagilar e’tiborga olinishi lozim: Birinchidan, tortishuv muvaffaqiyati uning predmeti aniq ifodalanishiga bog‘liq. Ikkinchidan, sud tortishuvida ochiqlik (bevositalik) xos bo‘lib, uning asosida inson omili yotadi: tomonlar jarayonda yuzma-yuz uchrashadi, o‘zining o‘rniga yozma hujjatlar jo‘natmaydi”¹¹⁷.

Mazkur holatda muloqot ishtirokchilarining til birliklarini tanlashi kasbiy nuqtayi nazardan kommunikativ maqsadga bo‘ysundirilgan. Sud xodimining kommunikativ maqsadi jinoyatchi sifatida gumonlanayotgan kishining aybini fosh qilish, iqror qildirish. Bu jarayonda asosiy kalit so‘z “chayqovchilik”. Buning uchun u gumondorning o‘zini so‘zlatish va uning nutqidan ilmoqli so‘zni topishga harakat qiladi. Sud jarayonida takror, eslatish kabi taktikalar qo‘llaniladi:

– Yo ‘-o ‘q... E, qilganman, qilganman.

– Iya, dastlabki tergovda “Chayqovchilik bilan shug‘ullanmaganman”, degan ekansiz-ku?

– Shug‘ullanmaganman-da o‘zi.

– A, hozirgina nima dedingiz?

¹¹⁵ Павлова Л.Г. Спор, дискуссия, полемика: книга для учащихся старших классов средней школы. – Москва: Просвещение, 1991. – С. 123.

¹¹⁶ Тарасов И.С. Принцип состязательности: понятие и свойства// Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия «Право». 2010. – № 2 (1). – С. 291.

¹¹⁷ Тарасов И.С. Принцип состязательности: понятие и свойства// Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия «Право». 2010. – № 2 (1). – С. 291.

– *Shug ‘ullanmaganman, desam... ishonasizmi?*

Keyingi o‘rinda jinoyatiga iqrор bo‘lgan kishidan bu jarayonda kimlar ishtirok etganligini aniqlash bosqichi boshlanadi. Shu tariqa jinoyat manzarasi oydinlasha boradi:

– *Uf-f... Ayting-chi, sherigingiz kim edi?*

– *Sherigim, sherigim... bilmayman... yo ‘q edi.*

Sudlanuvchi boshqa kishilar ishtirokini rad etgan holatda jarayonga sud xodimi tomonidan jinoyatning bir necha kishi tomonidan bajarilganligi to‘g‘risidagi dalillar kiritiladi:

– *Shuncha yukni bir o‘zingiz qanday ko‘tarib chiqdingiz poyezdga? Biror kishi yordam bergandir?*

– *Hech kim yordam bergani yo‘q, o‘zimiz... e, o‘zim! Nima, chamadon ko‘tarib yurish qiyinmi? Ichida to‘rt-besh kilogina olmasi bor edi, xolos.*

– *Menga qarang, Haydarov, uch chamadon va ikki quti bilan qo‘lga tushgansiz-ku? Qolganlari kimniki edi bo‘lmasa?*

– *Demak, ular boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan. Organ odamlari kuzatayotganini sezib, u sizga tashlab qochgan, shundaymi? A, Haydarov?*

– *Shunday... E, yo ‘q-yo ‘q, meniki edi, meniki!*

Asarda yana bir holat kuzatiladi. Gumondorning hali aybi to‘liq isbotlanmagani hisobga olinib, unga konstitutsion huquqi doirasida xizmatlar, ruhiy holatidan kelib chiqib yordam taklif qilinadi:

– *Ayblanuvchi Haydarov! Esingizni yig‘ib oling. Yo tob-pobingiz yo‘qmi? Qayeringiz og‘riyapti, ayting, sud majlisini to‘xtataylik.*

– *Ebi, nimaga? Soppa-sog‘man.*

– *Bo‘lmasa ayting: buncha uzum-u anorni ko‘tarib qayoqqa ketayotgan edingiz? Nima maqsadda?*

– *Shunday, aylanib kelgani. Barnaul – xizmat qilgan joyim. Zo‘r joy, og‘anilarim ko‘p u yerda.*

Mazkur dialogik jarayonda har bir so‘z qonuniy kuchga ega bo‘lish bilan birga yana qo‘shimcha vazifa bajarishi, ya‘ni suhbatning navbatdagi bosqichiga yo‘l ochishi lozim. Sud xodimi shu o‘rinda tashqi tomondan xayrixohlik tarzida gumondorning gaplarini tasdiqlash bilan

suhbatni davom ettirish, gumondorni so‘zlatish taktikasini qo‘llagan:

– *Shuncha narsani og‘aynilaringizga olib borayot-gan ekansizlar-da?*

– *Yo‘g‘-e, men ularga to‘rttagina olma olgan edim, bo‘ldi. Quruq bormayin deb.*

– *Uzum bilan anor-chi? Ularni sotmoqchi bo‘lgansiz-da?*

– *Nega sotaman? Axir u... Bilasizmi, men Barnaulga... – E, Barnaul, Barnaul!.. Olmani qayerdan oldingiz?*

– *Qayeringiz nimasi? Chorbog‘dan-da. Kuzda boring, chorbog‘imizga to‘lib yotadi, yerga to‘kilib.*

– *O‘sha yoqdan olma ko‘tarib kelish shartmidi? Sovg‘aga ekan, Toshkentdan olaqolsangiz bo‘lardi-ku?*

– *Bu yerning olmasi bo‘lmaydi-da, taxir, dorining ta‘mi keladi. Bizda shunday bir olma bor, Boysunning olmasi, “jaydari olma” deymiz. Boshqa joylarda bitmaydi unaqasi. O‘zi ko‘rimsizrog‘-u, lekin shunday shirin, shunday shirin, yesangiz...*

– *Mayli, mayli, Haydarov, keyin yeymiz olmani...*

– *Zo‘r olma-da lekin. Bu, hozirgi olmlaringizning bari buzilib ketgan. Har baloni payvand qilaverib aynitib yuborishgan-da. Faqat bizlarda qolgan unaqasi. Men o‘zim olmani uncha yaxshi ko‘rmayman. Yesam – ko‘nglim ayniydi.*

– *Ha-a, demak, olma o‘zlaringizniki, uydan olib kelgansiz? – Ie, ishonmasangiz, ana – otam o‘tiribdi, akam o‘tiribdi, jo‘ralarim – so‘rang! Ka-atta olmazorimiz bor! Yo to‘rt kilo olmaga ham spravka olib kelaymi?*

Shu o‘rinda gumonlanuvchi nutqidagi qishloq odamlariga xos bo‘lgan soddalik, samimiylilik parchaning ishonchli chiqishini ta‘minlagan. Ammo uning o‘zining aybsizligini isbotlashga urinishi samarasiz kechmoqda. Sud xodimi esa suhbat uslubini saqlab qolib, o‘rtadagi muloqotni gumondorning aytgan gaplarini tasdiqlash bilan davom ettirib, jarayonda yetakchilik qilish, suhbatdoshini boshqarish yo‘lini tutganligi seziladi:

– *Bo‘pti, bo‘pti, ishondik. Demak, siz uyingizdan to‘rt-besh kilo olma olib, o‘sha o‘zingiz aytgandek, hech joyda bitmaydigan antiqa*

olmadan olib, birga xizmat qilgan og‘aynilaringizni ko‘rib kelgani Barnaulga jo‘nagansiz. Bittagina chamadon bilan, bittagina! A, qolgan narsalar kimniki edi – uzum, anor? – Uka, tushunsangiz-chi, biz sizga yordam qilmoqchimiz. Yaxshilab o‘ylab, to‘g‘risini ayting. Taqdiringiz hal bo‘lyapti, axir!

Dastlab savol-javob tarzida boshlangan jarayonda ishtirok etgan nutqiy aktlar nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, o‘zgarib turadi. Yuqorida sudyaning nutqida maslahat nutqiy akti qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi o‘rinda u tanbeh nutqiy aktiga aylanadi. Muloqotchilarning so‘z tanlashida ularning ijtimoiy nufuzi yetakchi o‘ringa ko‘tariladi:

– Opajon, bir marta kechiring!

– Men sizga “opajon” emasman!

– O‘zingiz “uka” deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

– Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun – grajdanin sudyaman!

– Men ham grajdanman.

– Yo‘q, siz endi – ayblanuvchisiz, aybdorsiz!

– Men... aybdorman?! Aybdorman, kechiring...

Sudya ko‘zlarini qattiq yumib, boshini changallaganicha sarak-sarak qildi. Bu gaplar hammasi tushimda kechayotgandek edi. (Tushda bo‘lmay, hayotda ham shunaqasi bo‘ladimi, axir!).

Hukm o‘qildi. Chayqovchilikda ayblangan Haydarov Ramazon bir yilga ozodlikdan mahrum etildi.

U bo‘ynini qiyshaytirgancha mung‘ayibgina turardi. Hukmni eshitib asta boshini ko‘tardi, nimadandir xijolat chekkan misol g‘alati iljaydi! Iljaydi!

Umuman olganda, yuqoridagi matnda yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan pragmatik g‘oyasi o‘zining yorqin ifodasini topgan, deya olamiz. Albatta, shuni aytish joizki, bu yozuvchining ijod psixologiyasi bilan bog‘liq murakkab ruhiy jarayon. Mazmun va shakl elementlari uyg‘unlashib asar motivini tasavvur qilish hamda pragmatik g‘oyani aniq anglash imkonini bergan. Yuqorida keltirilgan matndagi monologik va dialogik propozitsiyalardan shuni anglash mumkinki, yozuvchining

maqsadi faqat Ramazonning samimiy, sodda, chapani, to‘g‘riso‘z yigit ekanini tasvirlash emas. Bu yerda Ramazon yozuvchi uchun asosiy detal, xolos. Yozuvchi presuppozitsiyasini – O‘zbekistonning mustaqillikgacha bo‘lgan davrda tergov jarayonlarining yuzaki ekanligi, sud tizimining mustaqil emasligi, dalil va isbot topilmagani uchun “inson taqdiri” inobatga olinmagani, tergovchi ham, sud ham Ramazonning aybdor emasligini bilaturib, bir yilga ozodlikdan mahrum etganligi kabi pragmatik mazmun implitsit (yashirin) tarzda sizdirilganida yaqqol sezishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, adib o‘z qahramonlari xarakteridagi soddalik, samimiyluk kabi milliylik tabiatining ildizlarini mahorat bilan yoritish, ularning o‘ziga xos dunyoqarashi bilan xalqona qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash maqsadida o‘zlari yashaydigan hududga xos xususiyatlardan foydalanish, shuningdek, remarkalarda lisoniy shaxs sifatida yozuvchi qiyofasini ham yorqin gavdalantiradi. Darhaqiqat, shoir va dramaturg Xurshid Davronning yozuvchi ijodi haqida: “Erkin akaning hikoyalarini o‘qiy boshlasam, jiddiy qiyofasi va qalam tutgan qo‘lini ko‘rib turaman”¹¹⁸, degan fikrlari bejiz emas.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Til birliklarining badiiy matnlarda ma’lum bir maqsadda qo‘llanilishi ularning alohida guruhlariga ajralishini, nutqning og‘zaki yoki yozma ko‘rinishlari uchun xoslanishini taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida nutqning u yoki bu ko‘rinishlari uchun xos bo‘lgan matn turlarini vujudga keltirgan. Tilimizda mavjud bo‘lgan ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy matnlar o‘ziga xos bo‘lgan leksik birliklari, grammatik qurilishiga ega. Bular ichida inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy matn bo‘yoqdor va ta’sirchan vositalarga boyligi, xilma-xil janrlari mavjudligi, eng muhimi til bajaradigan muhim ijtimoiy vazifalardan biri – estetik ta’sirchanlikni namoyon qila olishi bilan alohida ahamiyatga ega.

2. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrda badiiy matnni tadqiq etish

¹¹⁸ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nurulloh-muhammad-raufxon-ustoz-murtazo-qarshiboy-haqiqiy-boysun.html>

borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular turli yo'nalishda olib borilgan. Ularning bir guruhi badiiy matnni o'rganishning ilmiy-nazariy masalalariga, yana bir guruhi badiiy asarlarda til vositalarining ishtirokini aniqlashga, yana bir guruhi esa shoir va yozuvchilar tili va uslubini o'rganishga bag'ishlangan. Badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o'rganish bo'yicha mustaqillik davrida yaratilgan ishlar ancha mukammal bo'lib, ular zamonaviy talablar darajasida ekanligi bilan ajralib turadi.

3. Badiiy matnni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarda asosiy masala sifatida qaralayotgan lisoniy shaxs til birliklari vositasida ifodalangan nutq sohibi hisoblanadi. U nutq faoliyatini rejalashtirishdan tortib, uni amalga oshirish va ma'lum pragmatik samaraga erishish davrigacha bo'lgan jarayonni boshqarib turadi. Erkin A'zam asarlari misolida aytish mumkinki, lisoniy shaxs o'zi mansub bo'lgan tilga xos xususiyatlarni, emotsional-ekspressivlik, kommunikativlikni ifodalovchi lingvopragmatik vositalar hamda mental xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

4. "Lisoniy shaxs" lingvopragmatik xususiyatlarining namoyon bo'lishida baho tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'ziga o'zi baho berish shaxsning bir o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Bu shaxsning psixoemotiv jihatdan o'zi tomonidan o'ziga, o'z imkoniyatlariga, fazilatlariga, ruhiy holati, atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlariga, xatti-harakatlariga va ma'lum bir sotsiumda egallab turgan o'z o'rniga baho berilishidir. Bu Erkin A'zam hikoyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'z-o'zini baholash inson ruhiyatidan bahs yurituvchi psixologiya fanining ham markaziy tushunchalaridan hisoblanadi. Bu shaxsning o'zini anglab yetishining mazkur fanda ancha dolzarb hisoblangan va eng ko'p tadqiq etilgan jihati hisoblanadi. Psixologik nuqtayi nazardan o'ziga o'zi baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to'g'rilanib, jamiyatda belgilab qo'yilgan tartibga solib turiladi.

III BOB. ERKIN A'ZAM ASARLARIDA NUTQIY MULOQOTNI YUZAGA KELITIRUVCHI VOSITALAR LINGVOPRAGMATIKASI

Lingvopragmatikaning o'rganish maydoni keng. Bunday yo'nalish tadqiqida lisoniy birliklarning nutq vaziyati, kontekst bilan bog'liq jihatlari, hamsuhbatlar o'rtasidagi aloqani ifoda etuvchi nutqiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, kirish, baho bildiruvchi so'z va vositalar, insonning ichki subyektiv ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozitsiya hodisasini o'rganish maqsad qilib belgilandi.

Badiiy matn tarkibida o'rganilishi eng muhim bo'lgan birliklardan biri – nutqiy muloqotda so'z ko'chma ma'nosi tadqiqidir. Demak, matnning lingvopragmatik tahlili til belgilarining badiiy nutqdagi funksional qo'llanishidan iborat bo'lib, uning mazmuni esa muallif nutqi, asar qahramonlari, personajlar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos ifodalash va anglash mezonlari asosida namoyon bo'lishidadir. Lingvopragmatik tahlilda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotning voqelik motivi muhim. Voqelikdan xabardorlik darajasi nutq(suhbat)dan ko'zlangan maqsad, niyatning samarali bo'lishida asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, muloqotda tanlangan strategiya va taktikalarning, ya'ni tinglovchi(eshituvchi)ga ruhiy ta'sir etish uchun fikr ifodasining eksplitsit (ochiq, oshkora) yoki implitsit (yashirin) usullaridan foydalanish layoqatiga ham bog'liq bo'ladi.

Muloqotning samarali yoki samarasiz kechishi suhbatdoshlarning xarakteri, fe'l-atvoriga ham bog'liq. Shuning uchun ham muloqot jarayonida til birliklarining tanlovi, qo'llash layoqati, muloqot ishtirokchilariga ta'siri kabi masalalar ham pragmatik tadqiqot doirasida o'rganiladi. Ushbu tamoyillar kommunikativ vaziyat, shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi matn sifatida o'rganiladi. Albatta, til hodisalarining lingvopragmatik tahlili u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Shu o'rinda aytish kerakki, lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham til tabiatining amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdan iboratdir. Aynan

tilning bu vazifasi pragmalingvistik yondashuvning poydevori hisoblanadi. Pragmatika kommunikativ sintaksis, nutq, nutq faoliyati nazariyasi va tipologiyasi, kommunikatsiya va funksional uslublar nazariyasi, sotsiolingvistika nazariyasi, psixolingvistika nazariyasi, diskurs nazariyasi, ritorika va stilistika doiralarida ko‘p asrli tarixga ega bir qator muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi. Lekin, bunga qaramasdan, pragmatika boshqa ko‘plab fanlar bilan kesishib o‘tgan tadqiqiy qiziqishlarning keng ko‘lamdagi sohalariga ega, u zamonaviy lingvistikaning mustaqil sohasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, lingvopragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib ulgurdi. Bu esa til birliklarining badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlarini o‘rganish asnosida sohaning asosiy tamoyillarini belgilab olishni taqozo qiladi.

3.1. Badiiy matnda so‘z qo‘llash mahorati va pragmatik imkoniyat

Inson olamni aql-idroki va sezgilari yordamida o‘zlashtirar ekan, yangidan yangi ma’lumotlar hisobiga o‘z bilimlarini tobora oshirib boradi. U voqelik faktlariga o‘zining munosabatini bildirishi va baholashida tildan eng muhim aloqa vositasi sifatida foydalanadi. So‘zlovchi til vositasida adresatni ma’lum bir yangiliklardan xabardor qiladi, undan nima haqdadir so‘raydi, qandaydir harakatni bajarishga undaydi yoki ichki kechinmalari, ruhiy holati, his-tuyg‘ularini ifodalaydi, shuningdek, narsalarning belgi-xususiyati, kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatiga baho beradi¹¹⁹. Ma’lum bir kommunikativ niyatni amalga oshirish maqsadida hamsuhbatiga ta’sir etishida muloqot vaziyatining ahamiyati katta. So‘zlovchi bundan maksimal samaraga erishish uchun kommunikativ strategiyaga amal qilishi va tanlab olingan so‘z, ibora hamda ulardan o‘rinli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Yozuvchi badiiy asarda kitobxonga ma’lum bir voqea-hodisa to‘g‘risida ma’lumot beribgina qolmay, uning ruhiyatiga ham ta’sir o‘tkazadi. Har bir badiiy matnni shakllantirishda badiiy-estetik ta’sirchanlikni ta’minlashga alohida e’tiborini qaratadi. Bilamizki,

¹¹⁹ Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. – B. 53-54.

badiiy asar ijodkorlari til birliklaridan foydalanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Chunki, har bir ijodkorning lisoniy vositalarni tanlash va qo'llay olish mahorati uning individual uslubini belgilab beradi. Yozuvchining o'ziga xos uslubini o'rganish asar matnini lingvistik nuqtayi nazardan batafsil tahlil qilish pragmatik faoliyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu turdagi tahlil har bir muallifning tildan foydalanishda o'ziga xosligini o'rganish, uning asar g'oyaviy mazmunini yoritishda, voqelik motivini badiiy bayon qilishda uslubiy vositalarni qo'llash mahoratini o'rganish uchun xizmat qiladi. Har qanday shaxsning lisoniy birliklardan foydalanish mahorati zamirida uning kognitiv til zahirasi yotadi. Pragmatik layoqat u yoki bu shaxsning, yozuvchining individual til xususiyatlari yig'indisini umumlashtiradi. Yozuvchining tilini lingvopragmatik aspektda, lisoniy birliklarni turli guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin va bunda har bir qatlamga oid guruhning tizimiy hamda vazifaviy xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

An'anaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, tasdiq, so'roq, undov mazmunidagi xabarlar, shuningdek, keyingi yillardagi qarashlarda esa sintaktik birliklarning emotsional va emotsional bo'lmagan ifodalar tarzida tasnif qilinishi to'g'ri sanaladi. Biroq odamlar o'rtasidagi kundalik muloqot jarayoni sinchiklab kuzatilsa, tilshunoslikda hali o'rganilishi lozim bo'lgan juda ko'p muammolar mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Jumladan, yuqoridagilardan tashqari, nutq subyektining bir olam ichki his-tuyg'ular muallifi ekanligi, aloqa-aralashuv jarayonida ana shu his-tuyg'ular so'zlovchining xususiy munosabati sifatida namoyon bo'lishi, bularning so'zlovchi nutqiga xos buyruq, iltimos, va'da, ogohlantirish, minnatdorlik kabi ifoda shaklida bayon qilinishi kuzatiladi.

Shunday ekan, bu borada tadqiqot olib borishda pragmatik rejalashtirish muhim o'rin tutadi. So'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrlarini nutq qaratilgan shaxsga yetkazishda o'z oldiga ma'lum bir kommunikativ maqsadni qo'yadi. Shunga ko'ra u tomonidan tanlangan til birliklari ma'lum bir nutqiy muloqot jarayonida turli lingvopragmatik vazifalarni bajarishga xoslangan bo'ladi. So'zlovchi o'zi va nutq

qaratilgan shaxsning ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi, o'ziga yaqinlik darajasi, kasbi, nutqiy muloqot bo'lib o'tayotgan vaziyat, joy kabilarni hisobga olib tilda mavjud bo'lgan birliklarni tanlaydi va o'z kommunikativ maqsadidan kelib chiqib ularni qo'llaydi. Tanlash imkoniyatining mavjudligi bir tomondan til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun xoslab qo'ysa, ikkinchidan ularni ma'lum vazifalar bilan qurollantirib faoliyat sari yo'naltiradi. Bu til birliklarining lingvopragmatik tabiatini belgilab beradi.

Tilning ijtimoiy vazifalari faqat til birliklari vositasidagina namoyon bo'ladi. Til birliklarining o'ziga xos xususiyatlari, faoliyat birligi, ma'lumot yetkazish vositasi sifatida qo'llanish imkoniyatlari matnda to'laligicha amalga oshadi. Matn inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil qiluvchi markaziy tushunchalardan biri sifatida mazkur faoliyatning boshqa qismlari bilan muntazam munosabatda bo'ladi¹²⁰.

Matn va uning turli ko'rinishlari o'z mazmun-mohiyati, tuzilishi va hajmiga ko'ra farq qilishidan qat'i nazar, so'zlovchi kommunikativ maqsadi, nutq qaratilgan shaxsning matn mazmunini idrok etish va qabul qilib olishiga mos bo'lishi lozim. Shuning uchun inson nutqiy faoliyatida uning hayotiy tajribasi, til birliklaridan foydalanish qobiliyati o'z aksini topadi¹²¹.

Badiiy matn ijod mahsuli bo'lib, unda estetik mazmun ifodasi oldingi o'ringa chiqadi, yozuvchi kitobxonga axborotni oddiygina yetkazmaydi, balki uni estetik jihatdan boyitishga, uning inson ruhiyatiga ta'sir qudratini oshirishga harakat qiladi. Ma'lumki, adabiy muloqot bilvosita masofa tanlamaydigan muloqot turi. Ushbu turdagi muloqot vositasida yaratilgan asar matni, ya'ni badiiy matnni tahlil qilishda ularning lingvopragmatik tabiatini va ularga badiiylik bag'ishlovchi vositalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Badiiy matn shakllanishida yetakchi g'oya muhim o'rin tutadi, chunki badiiy asar obrazli tasvir, tarbiya, estetik manba, g'oya targ'iboti

¹²⁰ Сусов И.П. О двух путях исследования содержания текста// Значение и смысл речевых образований. – Калинин, 1979. – 96 с.

¹²¹ Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. – Москва: Наука, 1984. – 114 с.

vazifalarini bajaradi. Shuning uchun yozuvchi voqelikni boshqacha idrok etib, xuddi shu idrok jarayonida yuzaga kelgan obrazli tasavvurni o'zgalarga yetkazish niyatida bo'ladi. Natijada o'quvchi ham yozuvchi tasvirlayotgan voqelikni xuddi matnda bayon qilingan ko'rinishda, yozuvchi tasavvuri doirasida qabul qiladi. Bunday darajadagi estetik mazmun muqobilligiga erishish oddiy holda kechishi mumkin emas. Bu ijodkordan mahorat va iste'dod talab qiladi. Demak, badiiy matnning shakllanishi to'liq shaxs lisoniy faoliyatining yuqori darajada faollashuvi namunasidir. Iste'dod esa yozuvchi uslubi, uning individual lisoniy mahorati darajasini belgilaydi. So'zsiz, badiiy matn tuzilishida janrning umumiy belgilari, til tizimiga oid birliklar ham ishtirok etadi, biroq estetik mazmun matn lingvistik qatlami shakllanishida markaziy o'rinni egallaydi. Aslida individual uslubda shaxsning tilga, uning boy imkoniyatlariga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. Matnning aynan shu xususiy belgi-ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning til tizimi kommunikativ-estetik, g'oyaviy vazifalarini bajarishda tutgan o'rnini o'rganish lingvostilistik tahlilning asosiy maqsadidir¹²².

Yuqorida aytilgan fikrlarni har bir ijodkor individual uslubiga, badiiy matnga nisbatan tatbiq qilish mumkin. Keyingi yillarda badiiy matnlarni pragmatik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda "pragmatik mazmun", "pragmatik vazifa", "pragmatik samara", "pragmatik imkoniyat", "kommunikativ maqsad", "kommunikativ situatsiya", "kommunikativ strategiya" kabi atamalar keng qo'llanilayotganligining guvohi bo'lyapmiz.

Lingvistik tadqiqotlarning pragmatik tashkiliy-tarkibiy qismi, bizning fikrimizcha, nutqda (so'zlashuvda) tilga oid faktlarning o'zaro ta'siri va ularning konkret kommunikativ aks ettirilishini, ya'ni muayyan kommunikativ vaziyatda o'rganishdadir. Shunda ushbu o'zaro ta'sirning usullari va shakllari qo'yilgan kommunikativ maqsad orqali belgilanadi. Kommunikativ maqsadga erishish uchun so'zlashuvchi o'z jumlasini shunday qilib tuzadiki, u uchun eng muhim bo'lgan informatsiyani ta'kidlashi birinchi navbatda turishi lozim. Shu bilan so'zlashuvchi hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo'zg'atib, unga ta'sir o'tkazadi. Shu

¹²² Боймирзаева С. Бадий матнда қўшма гап. – Самарқанд, 2008. – Б. 7-8.

munosabat bilan ta'sirning quyidagi ko'rinishlarini qayd qilish mumkin: hamsuhbatning xabardorligi kengayishini; uning emotsional holatidagi, nuqtayi nazarlari va baholashdagi o'zgarishlarini; u bajargan harakatlarga ta'siri, estetik samara.

Yuqorida aytilgan fikrlarga tayanadigan bo'lsak, har bir badiiy matn tahlilida ana shu usuldan foydalanishimiz, mavzuga kengroq yondashishimiz lozim bo'ladi. Tanlagan tadqiq usulimiz qay darajada to'g'riligini ko'rish uchun Erkin A'zamning asarlaridan biri – "Shoirning to'yi" qissasining tahliliga e'tiborimizni qaratamiz. Yozuvchining **pragmatik maqsadi** – ma'lum bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, ijtimoiy tuzum mafkurasining madaniy-ma'naviy sohaga ta'sirini yoritib berish. Badiiy ijod mahsulining **pragmatik mazmuni** asarda ishtirok etuvchi personajlar nutqida fikr bildirishning ko'chma ma'nolari, turli xil ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hakovzolar vositasida semantik-pragmatik rejani belgilab olish va semantik referensiyani birlashtirish, ya'ni – matnning ayrim mavzuiy masalalar bilan munosabatdorligini ta'minlash tashkil qiladi. Bunda personajlarni so'zlatish orqali davrning siyosiy jihatdan nozik nuqtalariga ishora qilish, personaj faoliyatining o'sha nuqtalarga bog'liqligini ta'kidlash hamda ularning fikrlari orqali modal munosabatlarni aks ettirish, personaj yoki qahramonga oid argumentlashish jarayonining yakka individ fikrlashi doirasidan ijtimoiylashuv bosqichiga ko'tarilishi kabilar matnning illokutiv tavsifi, ya'ni pragmatik mazmunini hosil qiladi. Pragmatik samarasi esa muloqotchilar nutqida so'zlovchining baholash so'zlaridan foydalanib, eshituvchiga ta'sir o'tkazish natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga pragmatik samara tarkibiga faqat pragmatik ta'sir mexanizmlari emas, balki kommunikatsiya jarayonida muayyan ekstralingvistik samaraga erishish imkoniyatini ham kiritgan.

Yozuvchi Erkin A'zam asarlarida muallif to'g'ridan to'g'ri voqealar tafsilotiga berilib ketmay, avvalo, voqea sodir bo'lgan joy tasviriga alohida e'tibor qaratadi. Adibning "Shoirning to'yi" qissasida qo'llanilgan ko'p birliklar – kishi nomlaridan tortib, ularning nutqlarida qo'llangan ko'plab so'zlar bir pragmatik maqsadga – o'sha davr

ijtimoiy-siyosiy hayotini ochib berishga yo'naltirilgan. Asarda ma'lum kommunikativ maqsadlarga erishish uchun lisoniy vositalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini, badiiy asar muallifi tomonidan tanlangan til birliklarining ma'lum bir pragmatik yuk olgan holda faoliyatga kirishuvi pragmatik vazifa hisoblanadi. Erkin A'zam individual uslubining o'ziga xosligi shundaki, muallif joy, peyzaj vositalarini ham pragmatik vazifaga yo'naltiradi. Bu vositalar badiiy asar mazmun mohiyatining kitobxon tomonidan muallif maqsadiga mos holda tushunilishini ta'minlashga xizmat qilgan:

Asarda qo'llanilgan ayrim o'rinlarni keltiramiz: *Bu binoning loyihasini Bessarab dashtlarida tug'ilib, noyob iqtidori bilan "bepoyon o'lka"*ning poytaxtini zabt etgan, uning qoq yuragida *"dunyo yo'qsillarining dohiysi"* maqbarasini ham chizmalab bergan bir me'mor yaratgan. *Qolaversa, bu kabi tarixiy obidalarining tamal toshini yengiltaklikni jini suymaydigan, har ishda haybat-u dabdabaga o'ch mo'ylovdor dohiyning shaxsan o'zi qo'ygan* (E.A'zam "Shoirning to'yi").

Muallif individual uslubining o'ziga xosligi shundaki, asarda kishi nomlari ham ramziy ma'no ifodalaydi. E'tiborlisi, muallif ayrim joy, voqea-hodisa yoki kishilarni o'z nomi bilan atamaydi, fikrlarini implitsit (yashirin) ifodalash orqali o'quvchini mushohada yuritishga undaydi. Asar bilan tanishish jarayonida o'quvchi "bepoyon o'lka" – sobiq ittifoq, *"dunyo yo'qsillarining dohiysi"*, *"mo'ylovdor dohiy"* – I.Stalin ekanligini anglaydi. Darhaqiqat, nutqda ifodalanadigan presuppozitsiyaning murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali ifodalanishi bugungi kunda ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan va tilshunoslik sohasida o'rganilishi muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, yashirin ifodalanadigan presuppozitsion ma'nolar yozuvchining badiiy mahorati, til boyliklarini qay darajada o'zlashtirganligi va til birliklarining uslubiy imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyatiga ham uzviy bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlarda yashirin ifodalash vositalarini aniqlash uchun keng maydon bo'la oladi, degan xulosaga olib keladi. Yozuvchining o'z asari orqali nechog'li implitsit axborot taqdim etish maqsadi, ifodalangan

mazmunning yashirin bayonini anglash adresatning fikrlash qobiliyati hamda olam haqidagi tasavvurlari darajasiga bog'liqdir¹²³.

Erkin A'zamning "Arbob Qulov Parijga boradi" hikoyasi Jiyydalida yashovchi geografiya fani o'qituvchisi Arbob Qulovning Parijga borishi to'g'risida gap chiqishi va buning amalga oshmay qolganligi haqidagi voqea asosiga qurilgan.

Yozuvchining mazkur hikoyadagi maqsadi – Arbob Qulovning Parijga bora olmaganligini tahlil qilish. Yozuvchi nutqiy vaziyat jarayoni kechayotgan hududda yashovchilarni tavsiflash bilan o'quvchini navbatdagi voqealarga tayyorlaydi:

Jiyydaliga qaytsak – serviqor tog'lar etagini ishg'ol etgan, suvi toza, havosi toza, og'ir mehnat yo'q, qo'shni deparalar singari jon koyitib paxta ekmaydi, bor hunari – olmayu uzum yetishtirib, ariq bo'yidagi soya-salqin choyxonada shuning ta'rifini qilib, o'shag-u cho'pchak to'qib o'tirish! Dunyoning g'urbatidan bezgan sof soyaparvar-u bekorchixo'jasi ana shuniyam ko'zlab kelavergan-da bu yerga. Boz ustiga deng, kechagi hukumat yo'qsilparvarlikka da'vogar, foyda-zararga qarab o'tirmas, ismi qorako'z-u ko'kko'zni peshonasini birday silab, bebiliska boqib olaverar edi (E.A'zam "Arbob Qulov Parijga boradi").

Parchada qo'llanilgan "o'shag-u cho'pchak to'qib o'tirish", "dunyoning g'urbatidan bezmoq", "sof soyaparvar", "bekorxo'ja" kabi so'z va iboralar kishilarning faoliyati to'g'risida ma'lumot bermoqda. Matnda "soyaparvar" so'ziga nisbatan qo'llanilgan "sof" so'zi ishyoqmaslik semasini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Shuning uchun ularning pragmatik vazifasi baho ifodalashda reallashadi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, "qorako'z-u ko'kko'z" so'zlari ham pragmatik vazifa bjarimoqda. Bu so'zlar rang ma'nosidan ko'ra, tuzum siyosatiga bog'liq holda "turli millatlar" ma'nosiga ishora qilmoqda.

"Shoirning to'yi" qissasi mavzusi adabiyot rivojiga hissa qo'shgan marhum otashqalb shoirning tavallud xotirasi yig'ilishiga bag'ishlangan.

¹²³ <https://cyberleninka.ru/article/n/nut-da-ifodalanadigan-implitsitlikning-murakkab-semantik-tarkibi>

Voqea joyi “*Nuqul jinnixonayu tanosil kasalliklari shifoxonasi joylashgan kalta-kulta ko‘chalar, shoirning biror satrini bilmaydigan, hatto bilishdan or qiladigan begona qavm istiqomat etadigan bir tupkaning tagidagi xarob mavze...*”. Keltirilgan qisqagina ushbu ta’rifdan o‘quvchi ongida o‘sha davr ijtimoiy tuzumi haqida tasavvur paydo bo‘ladi. Bu mavhum tasavvur asta-sekin tiniqlasha boradi: “*jinnixona*”, “*tanosil kasalliklari*” kabi so‘z va so‘z birikmasi jamiyatning axloqiy holati, sog‘lom hayot tarzining izdan chiqqanligiga ishora qilsa, “*kalta-kulta ko‘chalar*”, “*bir tupkaning tagidagi xarob mavze*” xalqning ijtimoiy hayot tarzini, xalqning sog‘ligi va turmush sharoiti ayanchli holatda ekanligini aks ettiradi va eng daxshatlisi, jamiyatning ma’lum qismi ma’naviy inqirozga yuz tutganligi – “*shoirning biror satrini bilmaydigan, hatto bilishdan or qiladigan begona qavm*” paydo bo‘lganligi o‘quvchi ruhiyatiga ta’sir qiladi. Xuddi ana shu ta’sirni yuzaga keltirish yuqorida qo‘llanilgan til birliklarining pragmatik tabiatini belgilab beradi. Aslida asar muallifi Erkin A’zamning kommunikativ maqsadi ham shu.

Erkin A’zam asarlarida yana bir ko‘zga tashlanadigan holat – bu personajlar portretining berilishi. Bunda personaj tasviriga uning faoliyati, axloqiy, ma’naviy saviyasi kabi jihatlar ham singdirib yuboriladi. Ayrim holatlarga e’tibor qaratamiz:

Arbob Qulov portreti: *Nega kelib-kelib aynan Arbob Qulov tanlandi, xo‘sh? Boshqa muallim, mayli, boshqa jug‘rofiya muallimi topilmabdimi deng bu atrof-javonibda? Negaki... Avvalo **mo‘min-qobil. Yuvoshdan-yuvosh. Batartib, baodob. Ichmaydi, chekmaydi, u yog‘i bizga qorong‘i** – bildirmaydi, pismiql. **Bo‘yinginasidan galstuk tushmaydi, guldor-u endor galstuk, egnida mudom oq ko‘ylag-u qora kostyum-shim.** Xullas, bari **kinodagidek**, yo‘q, kitoblarda yozilgandek, **ayni risolabop!** Shu bormay kim borsin Parijga!*

*Ikki o‘g‘ilchasi-yu ularni tug‘ib bergan **hurkak, gungurs** xotini Zevar bilan u, necha yildirki, shu xonadonda tirikchilik qiladi (E.A’zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).*

Matnda qo‘llanilgan xarakter-xususiyat va tashqi ko‘rinish ifodalovchi lisony birliklar personajning bosh obraz sifatida tanlanishi

sabablarini izohlash vazifasini bajaryapti. Zevarga nisbatan “jussasi katta”, “gavdali”, “gumbazday” ma’nolarini beruvchi “gungurs”¹²⁴ so‘zi ifodada ixchamlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Qolgan personajlar portretidan ularning xarakter-xususiyati, mavqei, axloqi kabi jihatlarni ochib berishda foydalanilgan:

Yana biri – Fail tarang, u ham shu uyda. Ularning yonidagi xonadonni tuman kasalxonasining dongdor jarrohi, so‘qqabosh Shundik egallagan. Bilaklariyu bet-boshini sarg‘ish mo‘y bosgan bu baroqboy ulfatchilikni xush ko‘radi, har hafta unikida “sabantuy”, boshi ochiq hamshiraginalar ertalabgacha xizmatda. Birov miq etolmaydi. Avvalo, nom taratgan arzanda do‘xtir, qo‘shimchasiga – vajohati chatoq, o‘zi ho‘kizdek keladi, tig‘i yaltillagan yarog‘ini shartta olsami yonidan!.. (E.A’zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Bu obrazga berilgan ta’rifda ishtirok etgan til birliklarining vazifasini quyidagicha belgilash mumkin: “jarroh” so‘zi personajning kasbini, “so‘qqabosh” – oilaviy ahvolini, “bilaklariyu bet-boshini sarg‘ish mo‘y bosgan bu baroqboy”, “vajohati chatoq, o‘zi ho‘kizdek keladi” jumlasini – tashqi ko‘rinishni, “tarang”, “ulfatchilikni xush ko‘radi, har hafta unikida “sabantuy” – ichkilikboz va boshqa millat vakili ekanligini, “boshi ochiq hamshiraginalar ertalabgacha xizmatda” – axloqsizligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Shuningdek, hikoyada boshqa personajlar portreti ham xarakter-xususiyatiga uyg‘un holda tasvirlangan: Saraga nisbatan “g‘ozbo‘yin”, “olmabet” sifatlashlari qo‘llanilgan bo‘lsa, uning otasiga nisbatan “o‘zi xo‘ppasemiz – qizg‘ish, taram-taram lunjlariga qo‘shilib qorni ham osilib tushgan, chetlaridan bir tutam tussiz parishon mo‘y mo‘ralab turgich kaftdekkina quroqi shapka kiyib yuradigan bul ko‘rimsiz mardum” sifati berilgan.

To‘ti pason – “rang-ro‘yi ko‘hlikkina, shiringina, o‘zi esa zahargina”. Bu obrazni ifodalovchi til birliklari vositasida sobiq tuzumga xos xususiyatlar ochib berilgan. Tilimizdagi so‘zlar bir predmet yoki voqeaning nomini atashdan tashqari, jirkanish, manmanlik, mensimaslik, masxara, nafrat, g‘azab, kinoya hamda hurmat, erkalash,

¹²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 525.

ko'tarinkilik, ulug'vorlik singari emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalaydi. Shunga ko'ra so'zlar ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar va salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlarga bo'linadi¹²⁵.

Matnda To'ti pasonning xarakter-xususiyati *“azozilning urg'ochisi”, “xunasamijoz komissar xotin”, kasbiga oid jihatlar “er-xotinning qozisi” deb tavsiflangan: Hatto tuman sarkotibi ham bu azozilning urg'ochisidan hayiqibroq turar, uncha-munchaga yon berib, ehtiyotkorona muomala qilar edi. Axir, ra'yiga qarshi borgan har qanday odamni partiya maktablaridan o'rganib kelgan siyosiy diydoyolari bilan dovdiratib tashlaydi-da u. Boshiga bir parcha ro'mol o'ragan yoki azbaroyi sharm-hayo, lozim kiygan xotin-xalajning-ku jonini oladi. Otashinligi huv qizil inqilob zamonidagi xunasamijoz komissar xotinlardan sira qolishmas, egniga qora charm kamzul-u beliga mauzer yetishmas edi, xolos* (E.A'zam *“Arbob Qulov Parijga boradi”*).

“Shoirning to'yi” qissasida ishtirok etuvchi Mafkuraxonim, Ajoyib domla, Ta'qibkor, Oqsoqol shoir, Tepakal, Ma'shuqaxon kabi obrazlar ham o'sha davr kishilarini aks ettiradi.

Ajoyib domla. Shoirning hayoti va ijodi haqida ma'ruza qilish uchun so'z Ajoyib domlaga berildi. Bu odam juda ko'hna, yarim asr burun juvonmarg ketib, mana, bugun xotirlanayotgan Otashqalbning o'zidan ham bir necha yosh katta, ko'p qirg'inlarni ko'rgan, hammasiga chap berib omon qolgan, ya'ni – **kelgan baloga boshqani ro'para qilib, panasida jon saqlagan, zamon har aylanganda shamolning yelparragi qay tarafga yo'nalganini ilg'orlar qatori ilg'ab, o'sha tarafga bayroq ko'tarib yugurgan,** o'zining bu turlanish-tuslanishlariga ilmiy va siyosiy asoslari hamisha tayyor, benihoya **makkor va maddoh** bir zot edi.

Matnda uning xususiyatlari o'ziga xos, balandparvoz, ko'tarinki jumlar vositasida ochib beriladi: – *Azizlar, bir lahzagina tasavvur qiling-a,* – *deb boshladi u so'zini odatdagicha suxandonlik va chechanlik bilan,* – *qani edi, ul ajoyib Otashqalb, isyondil shoirimiz bir*

¹²⁵ Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 31.

damgina tirilib kelib, mana shu muazzam qasri oliyda bazmi nafis qurmoqda bo'lgan siz-u bizning ko'ngillarimizni, ko'ngillarimiz barobari davramiz to'rini-da to'ldirib o'ltirsalar, ofarin-u tasannolarga ko'milib davron sursalar ne baxt-u saodat bo'lur edi!.. (E.A'zam "Shoirning to'yi"). Parchada qo'llanilgan *"isyondil shoir"*, *"muazzam qasri oliy"*, *"bazmu nafis"*, *ofarin-u tasannolarga ko'milmoq"*, *"davron surmoq"* kabi jumla va iboralar individuallikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Ma'shuqaxon. Oldingi qatordan umri pardoz-andoz deb o'tgan, sochi hamon qop-qora (bo'yalgan), yoshligida o'lgudek shayton, jikilloq bo'lgani ayon ko'rinib turgan chittak bir kampir joyidan turib, uzoq-yaqinga allanechuk zavq va hafsala bilan rosa ta'zim qilib chiqdi.

Parchada til birliklaridan anglashilgan pragmatik ma'no *umri pardoz-andoz deb o'tgan, sochi hamon qop-qora (bo'yalgan)*, – hayot tarzi, *o'lgudek shayton, jikilloq bo'lgan* – yengiltak hayot kechirmoq, *chittak bir kampir* – nutq so'zlanib turgan vaqtdagi holati kabilarda ifodalangan. Parchadagi "shayton", "jikilloq", "chittak" leksemalari harakat-holat ma'nolarini ko'rsatishda konnotativ ma'no kasb etgan. Gapiruvchi shaxs yoki muallifning tinglovchi yoki kitobxonning diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'liqlantirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional, baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish zarurati yuzaga keldi. Shunday qilib so'z ifodalaydigan qo'shimcha ma'noni qo'llash kommunikativ-pragmatik ehtiyojlar tufayli ro'y beradi¹²⁶.

Asarda bu personaj axloqiy tasviri quyidagicha berilgan: *Ayniqsa, Otashqalbga o'xshagan sho'x, olov yigit! Kayf-payf bilan bir-ikki bor quchoqlagan bo'lsa bordir. Lekin, zinhor-bazinhor, bu shilqimxonga ko'ngil qo'ygan emas. Ko'ngil qo'yganlari boshqa edi, boshqalar edi. Uni, mana, biz bilamiz. (Bilmaylar ketaylik, iloyim!) O'ziyam she'r yozarmidi, yalla aytarmidi, ishqilib, shu doiralarda izg'ib yuradigan bu xonimning o'sha kezlardayoq ohori ketib bo'lgan, uni o'pmagan,*

¹²⁶ Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015. – Б. 11.

quchoqlamagan shoir-u shuaro kam edi. Otashqalb shulardan biri, bittaginasi edi, xolos. U sovuq o'lkalarga ketib qolgach, ko'pdan ortgan bu sarqit xonim opera aytadigan bir artistgami, undan chiqib allaqanday o'ris polkovnikkami, yana allakimlarga tegib yurdi (E.A'zam "Shoirning to'yi").

Parchada "*shilqimxon*", "*izg'ib yurmoq*", "*ohori ketmoq*", "*sarqit xonim*" kabi so'z va birikmalar salbiy munosabat ifodalash bilan birga personaj faoliyati, hayot tarzini baholashga ham xizmat qilmoqda. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilishicha, **Ohor** [f. – kraxmal; gazlamaga pardozi berish]. 1. maxs. Ip, gazlama yoki kiyimga pardozi berish yoki qotirish uchun ishlatiladigan modda; kraxmal. **Ohor bermoq**. Ohorlab pardozi bermoq, kraxmallamoq. *Chit to'qilgandan keyin ohor beriladi. Buning uchun ko'p miqdorda kraxmal kerak.* Oydin, Suhbati jonon. 2. Shunday modda bilan yangi narsaga, kiyimga berilgan ishlov, pardozi¹²⁷. Shuningdek, sarqit so'zi 1. Birovdan qolgan taom, qoldiq ovqat. 2. *ko'chma*. O'tmishdan meros bo'lib kelayotgan, ba'zan zamona ruhiga to'g'ri kelmaydigan odat, rasm-rusum, tartib va shu kabi ma'nolarni anglatadi¹²⁸. Bundan xulosa qilish mumkinki, "*ohori ketmoq*", "*sarqit*" so'zlarining ko'chma ma'noda insonga nisbatan qo'llanishi ularni pragmatik vazifaga xoslagan. Bu o'rinda "*ohori ketmoq*" birikmasida personajning keksayib qolganligi, "*sarqit*" so'zidan esa harom-harish hayot kechirganligi ma'nosi ularning faoliyatga – yangi ma'no ifodalash vazifasini bajarishga kirishganligini ko'rsatadi.

Asarda Mafkuraxonim obrazining nomlanishi ham ma'lum pragmatik vazifa bajarmoqda. Bu so'z personajni nomlashdan tashqari, ijtimoiy tuzum ma'nosini o'zida jamlagan. *Qirq besh yoshlar chamasidagi bu xotin so'zga nihoyatda chechan, birpasda dunyoni ag'dar-to'ntar qilgudek faol tashkilotchi, oqni qora, qorani oq deb isbotlamoqqa ayniqsa mohir edi. U tagi oqsuyak xo'jalar avlodidan*

¹²⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Учинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyati, 2020. – Б. 196-197.

¹²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Учинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyati, 2020. – Б. 456.

bo'lib, markscha-lenincha ta'limotga azbaroyi mehri zo'rligidan nasl-nasabini inkor etgan, o'zi xushbichim, oqbadan, lekin yupqa lablari har qanaqa odamni chimdishga shaygina ayol ediki, mansab pillapoyalaridan yengil-yengil hatlab o'tishiga va nihoyat muhim bir jabhaning quloqboshiga mahkam o'rnashuviga ana shu sifatlari ham tirgovuch bo'lgan edi (E.A'zam "Shoirning to'y").

Bu ta'rifda qo'llanilgan oqni qora, qorani oq deb isbotlamoqqa mohir, tagi oqsuyak xo'jalar avlodidan bo'lib, markscha-lenincha ta'limotga azbaroyi mehri zo'rligidan nasl-nasabini inkor etganligi kabi ta'riflar personajni shaxs sifatida baholab kelmoqda.

Erkin A'zam asarlarida yana bir holat – tanlangan til birliklarining personajlar xarakter-xususiyatiga mosligi e'tiborlidir. Umuman olganda, nutqda maqsadga erishish imperativ, ishontirish va moyillik uyg'otish kabi turlardan foydalaniladi.

1. Imperativ – nutqiy ta'sirning kuchga tayangan usuli. Bu usul avtoritar nutqning asosini tashkil etadi (buyruq, qo'rqitish, shaxsiyatga tegish va h.k.).

2. Inontirish – demokratik nutq asosini tashkil etadi va asoslash orqali o'z qarash va nuqtayi nazarini o'zga odam ongiga singdirish (isbotlash, tushuntirish, yo'naltirish va h.k.).

3. Moyillik uyg'otish – liberal nutqning asosini tashkil etadi va axborot olish istagi bilan bog'liq (bahs-munozara, so'roqlash va h.k.)¹²⁹.

Mafkuraxonim nutqida imperativ usul yetakchilik qiladi va ifodalanayotgan fikrlarida buyruq, qo'rqitish, shaxsiyatga tegish kabi ma'nolar bo'rtib turadi.

Yozuvchi o'z maqsadi – personajlar xarakter-xususiyatini ochib berishda alohida so'zlarga ham pragmatik vazifa yuklaydi. "Arbob Qulov Parijga boradi" hikoyasida muallif qo'llagan "qitiqlamoq" so'zida shu holat kuzatiladi:

*Xullas, Fail tarang har kecha shuni **qitiqlarmish**. Daroz xonim esa uning bo'ynidan quchib qiqirlagani qiqirlagan emish. Er-xotin bo'lgandan keyin qitiqlamoq ham, qiqirlamoq ham o'zlarining ishi-da.*

¹²⁹ Саидов У. Бошқарув ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 17.

Mayli-yu, bir oqshom nechanchi karradir “Janob 420” kinosini ko‘rib qaytayotgan Turdash sirri portveyning kayfi bilan ne bir xayolda o‘sha derazaning tagiga borib qoladiyu ne bir xayolda asta ichkariga mo‘ralaydi. Bunday qarasa, ana shu ahvol! Devonada es bormi, bu “yangilik”ni o‘sha zahoti ko‘cha-ko‘yga doston qiladi: “Ko‘rdim! Xudo ursin agar, o‘zim ko‘rdim! Anovi Raz-dva maallim bor-ku...” Buni eshitgan el tashvishda deng: “Tinmay tosh ko‘targani bilan Failboy otasiga tortib jikkakkina, anovi otday narsa uginani ezib tashlamasmikan?” (E.A’zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Matndan ma’lum bo‘ladiki, muallif personajlarning odob-axloq mezonlariga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlarini ochiq-oydin ifodalashdan qochib, bu vazifani “qitiqlamoq” so‘ziga yuklaydi. Bunda “qitiqlamoq” so‘zining semantik maydoni, pragmatik vazifasi kengayib, axloqsizlik qilmoq qo‘shimcha ma’nosini ham ifodalay boshlaydi.

Oqsoqol batamom dovdirab qoldi. U hammasini kutgan, lekin bu qadar shafqatsiz hujumga tayyor emas edi. Qo‘lida titrayotgan ko‘zoynakni minbar peshtaxtasiga qo‘yib, ovoz kelgan tarafga tikildi. O‘rtaroqdagi qatordan **chorpaxil** bir **bashara** unga qarab tirjayib turardi. Anovi! Hah, haromi ko‘rnamak! Shoirlik da’vosida yuradigan, ellikka yetib ham tozaroq biror narsa yozmagan bu yaramas mana shunday ma’rakabuzarligi bilan mashhur edi. Allaqayda yosh havaskorlar to‘garagini boshqargan bu “murabbiy” u yerda bir norasidani **bulg‘ab qo‘yib**, ko‘p sharmandalik bo‘lgan, bir to‘p shoir-yozuvchi uning tashkilotdan badarg‘a etilishini talab qilgan; ammo Oqsoqol, nodon Oqsoqol ko‘krak tutib shu murdorning himoyasiga chiqqan edi. Chunki uch-to‘rt kun oldin u yig‘lab, tavallo bilan Oqsoqolning huzuriga kelgan, “O‘zi **buzuq** ekan, ustoz, amakivachchasi **buzib qo‘ygan** ekan, uylan desangiz – uylanaman”, deya ishni bosti-bosti qilishga ko‘maklashishni so‘ragan edi. “Ustoz”ning ko‘ngli iyidi. Mayli, **yigitchilik deb itlik qilib qo‘yibdi**. Uylanmoqchi, aybini yuvmoqchi. U prokuraturaga oshirib-toshirib ijobiy tavsifnoma yozib berdi, jamoatchilikning g‘azabini pasaytirdi. Nega? Avvalo, anovi zamonlarni ko‘rgan odam, oxirat oldidan qo‘lni sal poklab olgani ma’qul, bu yog‘i endi bo‘lgan ish bo‘pti, juvonmarg bo‘lib ketmasin,

dedi. Qolaversa, o‘zi boshliq boobro‘ tashkilotda bundoq sharmandalik sodir bo‘lgani elaro ovoza etilmog‘i ravo emas. Bugun kelib ana shu yuvuqsiz... (E.A’zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Matnda muallif kommunikativ maqsadining yuzaga chiqishida “*bashara*”, “*buzuq*”, “*yuvuqsiz*” so‘zlaridan hamda “*bulg‘ab qo‘ymoq*”, “*buzib qo‘ymoq*”, “*itlik qilib qo‘ymoq*” kabi iboralardan foydalanilgan. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da berilgan yuz bilan bog‘liq sinonimik qatorda ta’kidlanishicha, aft so‘zi bet so‘ziga nisbatan salbiy ottenkaga ega. Bashara so‘zida salbiy ottenka aft so‘zidagiga nisbatan ham kuchli¹³⁰. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa buzilib, yaroqsiz holga kelgan, ishdan chiqqan, singan, vayron bo‘lgan ma’nolarini ifodalovchi *buzuq*¹³¹ so‘zining bir necha ma’nosi bo‘lib, muallif tomonidan insonga nisbatan “axloqi yomon, suyuq; niyati yomon” ma’nolarida qo‘llanilib subyektiv munosabatini badiiy ifodalashga xizmat qilgan. “Buzib qo‘ymoq”, “itlik qilib qo‘ymoq” frazeologizmlariga “nomusiga tegmoq” semasi singdirilgan. “Yuvuqsiz” so‘zi esa adresatning pala-partish, axloqsiz hayot tarziga ishora qilmoqda. “Frazeologik birliklar so‘zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birlikning asosiy qismi ma’no jihatidan insonga qaratilgan: ular kishini biror fizik, ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, xatti-harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik birliklarning ma’no tarkibida ko‘pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birlikning denotativ ma’nosiga emotsional-ekspressivlik yuklaydi”¹³².

“Hulo‘l” hikoyasida muallif tasvirlanayotgan ayolga nisbatan “zotdor” leksemasini qo‘llaydi: *Jiydalidan bo‘lmasa-da, yuqoriroq – tog‘ taraflardan chiqar. Qosh-ko‘zi surma surtilgan misol qop-qora,*

¹³⁰ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 234.

¹³¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 366.

¹³² Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 12.

istarali, zotdor. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilishicha, zotdor so‘zi “yaxshi zotga mansub, nasldor” ma’nosini ifodalaydi¹³³. Tilimizda aslida hayvonlarga nisbatan qo‘llanadigan zotdor so‘zi matnda ayolga nisbatan aslzodalik konnotativ ma’nosidan tashqari “kalondimog‘”, “olifta”, “kekkaygan” kabi presuppozitsiyalarni ham ifodalab kelmoqda.

Erkin A‘zam uslubining o‘ziga xosligi shundaki, u personajlarni tavsiflashda fikr ifodalashning qisqa yo‘lini tanlaydi va oddiy so‘z yoki iboraga pragmatik yuk berish bilan ironik mazmunni kuchaytiradi:

Biz endi bir qishloqi-da, Jadad, padxo‘dni bilmaymiz. Ha, bulog‘ingni tomosha qilyapsanmi? Zo‘r buloq bu!

– *Yoshbuloq de! Ichgan odam yashararmish-ku!*

– *Nima, sen qarib qopsanmi?! Qarigan deb, ana, Adolni aytsa bo‘lar.*

Hozirdanoq aftiga qaraging kelmaydi – hammayog‘i bujmaygan. Bo‘lmasa, sendan to‘rt-besh yoshlar kichik u!

– *Qo‘ysang-chi! Xotining bippa-binoyi! **Sen bilan yashasam edi, men undan beshbattar bo‘lardim*** (E.A‘zam “Zabarjad”).

Matnda qo‘llanilgan “*sen bilan yashasam edi, men undan beshbattar bo‘lardim*” propozitsion gapidagi **sen** olmoshi va boshqa birliklar qurshovida, jumladan, **beshbattar bo‘lardim** birikmasi orqali nutq subyektining tinglovchiga bo‘lgan kesatq, ironik pragmatik mazmuni yorqin ifodalangan. Umuman olganda, pragmatik mazmun nutq vaziyati, kontekst tarkibida oydinlashadi. Muallif tomonidan o‘rinli qo‘llangan bu til birligi matnda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishga, fikrni obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

Quyidagi matnga e’tibor qaratamiz:

*Ma’shuqaxonim yana turib o‘zini ko‘z-ko‘z qildi. **O‘l-a**, dedi ichida Oqsoqol shoir, **bet degan narsa qolmabdi bunda**. Endi bu **tasqaraning tovusdek tovlanmoqchi bo‘lib qiltillashini qarang!** Erta-indin o‘laman deyapti-yu, hamon bir nimadan umidvor. ... Ma’shuqaxonimni eng zo‘r zarrabinga solib qaraganda ham ko‘zi moviy emasligi ayon. Nahotki, shuni farqlamoq uchun ham odamzod fan*

¹³³ Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 161.

do'ktiri bo'lishi kerak, tavba! Yoki bu tannozning ko'zi yoshligida moviy bo'lib, "sevikli yori" – Otashqalbning firoqida kuya-kuya qorayib qolganmikan?

(E.A'zam "Shoirning to'y").

Muallif quyidagi parchada ayolning axloqsizligini ifodalashni "ochiq yotgan qozon" jumlasiga yuklaydi: *Bu telba ishqning istiqbolsizligini unisi ham, bunisi ham bilardi. Ammo unisi ham, bunisi ham yosh edi, mag'rur edi. Unisi ham, bunisi ham o'sha kezlar Moviyo'zdan ajralishni jondan ayrilish deb hisoblardi. Bir tomon unga egalik qila boshlagach, ikkinchi tomonning ishqibozligini kechirib bo'lmay qoldi. Uchinchi tomonning "ochiq yotgan qozon" ekanligi hisobga olinmadi* (E.A'zam "Shoirning to'y").

Bu o'rinda "ochiq yotgan qozon" jumlasini avvalo, ayolning yengiltak hayotiga, ikkinchidan, xalqimizdagi "ochiq yotgan qozonni it hidlaydi" naqliga ishora qilmoqda. Muallif tomonidan o'rinli qo'llangan bu til birligi matnda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishga, fikrni obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

Pragmatik vazifa bajarib, yangi ma'no kasb etgan, o'z ma'nosiga zid qo'shimcha ma'no ifodalash imkoniyati quyidagi parchada qo'llanilgan "ekstremist" va "musulmon" so'zlarida ham kuzatiladi:

– *Mana, nihoyat, jonajon partiya va hukumatimizning sovet adabiyotiga, e'jod ahliga cheksiz g'amxo'rliqi tufayli Otashqalb shoirimizning pok nomi oqlandi, mana, bugun tantanavor yubileyi o'tkazilmoqda. Biz bu kunni ellik yil, ya'ni yarim asrdan ko'proq kutgan edik. Yana bir "ekstremist"ning sabri chidamadi:*

– *Yolg'on, kutganingiz yo'q! Hay'atdagilardan kimdir mikrofonni qattiq, tahdidkor ohangda tiqillatib qo'ydi. U yer-bu yerda sergak turgan norg'ul yigitchalarning ko'zi battar olazarak bo'ldi.*

Dastlab so'z so'rab hay'atga xat yuborganida ikki notanish yigit uni tashqariga olib chiqib, rosa asabini qaqshatdi. Novcharoq biri devorga tirab qayta-qayta tirg'aldi: "Xo'sh, so'z berilsa, nimani gapirasan?" "Nega men senga hisobot berishim kerak, kimsan o'zing?" Xuddi gapni eshitmagandek yana asabni burg'ildirdi: "Nima haqda so'zlamochisan, qani, ayt-chi?" U desa, bu deyishdi, bu desa – u.

Tavba, oxiri osongina qutuldi-qo‘ydi: *“Hoy, musulmonlar, ishoninglar axir, men Uzoq Sharqqa borib, shoir qabrini ziyorat qilib kelganman, shuni gapirmoqchiman”*. *“Boyadan beri o‘jarlik qilmay shundoq demaysizmi, og‘ayni!”* dedi **“musulmon”**lardan biri (E.A‘zam “Shoirning to‘yi”).

Matnda qo‘llanilgan, lug‘aviy jihatdan “ekstremizm tarafdori, keskin fikr va choralarni yoqlovchi, amalga oshiruvchi”¹³⁴ ma‘nosini bildiruvchi ekstremist so‘zi bu o‘rinda implitsit tarzda nutq so‘zlovchilarga oppozitsiyada turish mazmunini ifodalamoqda. “Musulmon” so‘zi esa tartib saqlovchilarga nisbatan salbiy munosabatdan tashqari ironik mazmunga ham ega.

Badiiy matnlarda til birliklari qatori noverbal vositalardan ham o‘rinli foydalanilgan. “Chindan ham, turli jestlar, yuz ifodasi, boshni qimirlatish, gavda harakatlari, makon yaqinligi, ovoz tabiati, kiyimlar, so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy yoki boshqa maqomi kabi xilma-xil omillar kommunikatsiya jarayonida alohida qimmatga ega”¹³⁵. Noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari “Shoirning to‘yi” qissasi va “Arbob Qulov Parijga boradi” hikoyasida aniq ko‘zga tashlanadi.

*Bu gapga suyuq-siyrakkin chapak bo‘ldi. Sevikli Tepakalga qaray-qaray shirin xotiralar og‘ushida o‘tirgan Mafkuraxonimning o‘zi bu lutfga “rahmat” degandek mamnuniyat bilan bosh irg‘adi-yu, mohiyatni kechroq anglab, minbardagi notiqqa yuzlanib bosh chayqadi: xato, siyosiy kaltabinlik! So‘ngra shosha-pisha Oqsoqol shoirdan bu kaltabinning nomini (opaxon bunaqa do‘ppi-po‘ppi kiyib yuradigan arboblarni yaxshi tanimasdi) so‘rab olib, “Maddoh aka, hov Maddoh aka!” deb chaqirdi va **ko‘rsatgich barmog‘ini tepaga nuqib ishora qildi**; bu harakat ham “birinchi” ma‘nosini, ham “eng yuqori” degan mazmunni ifodalardi.*

Diyydiyo ohangiga tushib ketib, mazmun-mohiyatni allaqachon xayolidan soqit qilgan ma‘ruzachi birdan sergak tortib, lekin imo-ishoraning fahmiga bormay olazarak bo‘lib qoldi. “Eng kattamiz, eng

¹³⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Бешинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriёti, 2020. – Б. 29.

¹³⁵ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. – Б. 40.

kattamiz!” deya jonholatda shipshidi majlisga mas’ul Oqsoqol shoir xatarning oldini olmoq bo’lib.

– Kattamiz? Kattamiz...

– Eng, eng!

– Ha-ha, albatta. Kattamiz, eng kattamiz ham-da, axir! – dedi Ajoyib domla nafasi ichiga tiqilib, yo’l qo’ygan qaltis xatosini to’g’rilarkan.

– Men u kishining muborak nomlarini alohida ta’kidlab aytmoqchi edim (E.A’zam “Shoirning to’yi”).

“Arbob Qulov Parijga boradi” hikoyasida ham noverbal vositadan foydalanish kuzatiladi:

Shu choq xuddi hozirgina noz uyqudan turgandek chala – yarim libosda To’ti pason chiqib keldi. “Men Guli Asqarovnaning oldiga boraman! Yakka-yolg’iz sovet xotin-qiziga e’tibor qani?!” Juvonning ochiq-sochiq, bir qo’lini quymuchiga tirab, ko’kragi do’ng, tarang holda turgani quruvchi yigitlarning zavqini qo’zg’ab, pardozi ishlarini shunikidan boshlamochi bo’lishgan edi, brigadaning serkasi ko’rsatkich barmog’ini tahdidomuz tepaga nuqidi (E.A’zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Yuqoridagi ikki parchada ham “ko’rsatkich barmoqni tepaga nuqmoq” noverbal harakati tegishlilikka ishora ma’nosidan tashqari adresatni ogohlantirish vazifasini ham bajarmoqda. Bu esa badiiy matnlarda noverbal vositalarning ham ma’lum bir pragmatik vazifa bajarishi, matn mazmunini aniq ifodalashga xizmat qilishini ko’rsatadi.

3.2. So’zning ko’chma ma’noda ishlatilish imkoniyatlari

Til mahsulotining qanday bo’lishi uni yaratuvchi shaxs – so’zlovchiga bog’liq. Demak, olamni bilish, uni tasvirlash, uni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish so’zlovchi insonga bog’liq. Moddiy borliqdagi voqea-hodisalarning tildagi in’ikosi til elementlari orqali amalga oshirilgan ekan, bir tomondan sifat, miqdor, me’yor kabi falsafiy kategoriyalar bilan, ikkinchi tomondan esa, ekspressivlik, emotsionallik, baholash, obrazlilik kabi kategoriyalar bilan uzviy bog’liq bo’ladi.

Ekspressiya – inson ichki kechinmalarining namoyishchisi, inson qadriyatlar olamining eng nozik qirralariga ta'sir o'tkazuvchi benazir qurol sifatida, obrazli metaforani olamning lingvopragmatik manzarasidagi menomen vositaga aylantiradi. Ekspressivlik (lot. *expressio* – ifoda) – til birligining kommunikativ aktda so'zlovchining nutq mazmuniga yoki adresatiga munosabatini subyektiv ifodalash vositasi sifatida harakat qobiliyatini ta'minlovchi semantik va stilistik xususiyatlarning majmui¹³⁶.

Denotativ ma'no har qanday emotsional-ekspressivlikdan holi bo'ladi. Konnotativ ma'no esa "ust" ma'no bo'lib, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'ladi, emotsional-ekspressiv bo'yoq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Konnotativ ma'no denotativ ma'noning ustiga qo'yiladi, uning keyingi bosqichi hisoblanadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, leksik birlikning konnotativ komponenti tushunchasi ham mavjud bo'lib, bu odatda shu tilda gapiruvchi shaxsning ongida shakillangan odamlarga, voqea-hodisalarga nisbatan uning subyektiv munosabatini anglatadi. Bunday munosabat lisoniy birliklar orqali ifodalanib, nutqda obyektga nisbatan yaxshi, yomon yoki neytral pragmatik munosabatni belgilab beradi. Kishilarning real borliq obyektlariga nisbatan baholovchi munosabatlari til sistemasida, jumladan shu tilning leksik birliklarida pragmatik munosabatlar sifatida o'z ifodasini topadi.

Lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan pragmatik konnotatsiyaning baholovchi komponentining ikki tipi mavjud: a) atrof-muhitni, subyektini, hodisalarni ratsional (aqliy) baholash; b) ularni inson psixikasi ishtirokida emotsional baholash. Ratsional baholash so'z ma'nosining denotativ aspektda voqelanishi natijasida hosil qilinadi. Emotsional baholash esa, so'z ma'nosining baholovchi semalari konnotativ aspektda voqelanishi natijasidir.

So'z ma'nosining pragmatik ifodalangan konnotativ komponentlari o'zaro bir-birlari bilan integratsiyalashgan, ya'ni doimiy aloqada, ammo, ularning har birining miqdoriy o'ziga xosliklari mavjud. Baholash

¹³⁶ Языкознание. Большой энциклопедический словарь. / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд. – Москва: Научное издательство «Большая Российская энциклопедия» 1998. – С. 591.

konnotatsiyaning boshqa komponentlari bilan birga soʻz maʼnosining ekspressivligini (pragmatik taʼsirini) oshirishga xizmat qiladi va aynan ular kommunikativ aktda subyektiv munosabatlarni yanada kuchliroq, taʼsirchanroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ekspressivlik shu jihati bilan soʻz maʼnosining pragmatik komponenti hisoblanadi va u muloqot jarayonida soʻz tanlash, uni muloqot vaziyatiga koʻra qoʻllash va shu orqali suhbatdoshga kommunikativ taʼsir oʻtkazishni koʻzda tutadi.

Pragmatik maʼno, asrlar davomida qoʻllanib kelinayotgan denotat yoki konnotat toʻldira olmayotgan boʻsh oʻrinlarni, oʻzi qoniqmayotgan jihatlarni ifodalash uchun muayyan millat vakillari tomonidan foydalaniladigan amaliy maʼno boʻlib, shu millatning ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy, areal-geografik, diniy-etnografik, tarixiy-adabiy va boshqa jihatlarini oʻzida mujassamlashtiradi.

Boshqacha aytganda, pragmatik maʼno – adresat, guruh tinglovchilari tomonidan ogʻzaki nutqda mavjud boʻlgan maʼlumotlarning oʻziga xos idrok etilishi. Shuningdek, pragmatik maʼno pragmatik munosabat bilan belgilanadi. Yaʼni, biror bir maʼnoni anglatish maqsadida qoʻllanilgan belgi va undan foydalanuvchi oʻrtasidagi munosabat pragmatik maʼno hisoblanadi.

Muloqot jarayonida ifodalangan pragmatik maʼnolarning ifodalanish yoʻllari ustida olib borilgan kuzatuv va tahlillar shuni koʻrsatadiki, vaziyatga qarab soʻz maʼnosining maqbuli tanlanishi kerak. Ogʻzaki nutqqa xos boʻlgan soʻz va uning maʼnolarining muloqotda qoʻllanilishiga asosan pragmatik maʼnoni aniqlashning ustunligi shundaki, u muloqot jarayonida kontekstdan kelib chiqib vaziyat mazmuniga mos boʻlgan soʻzlardan foydalanish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, adresat ongida voqelikni aks ettirib, mazmunni anglashga koʻmaklashadi. Ana shunday vositalardan biri metafora hisoblanadi.

Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bogʻliq hodisa hisoblanadi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, yaʼni borliqni subyektiv munosabatini qoʻshib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy

jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi¹³⁷.

Dunyodagi jamiki tillarning o‘xshash ko‘rinishlardagi xossalarini metaforik ko‘chimlarsiz tasavvur qilish qiyin. Sh.Maxmaraimova ta’kidlaganidek, “til insonning eng avvalo, tafakkuriga qaratilgan tarjimonidir. Uning ushbu “tarjimonlik” ishida, asosan, ekspressiv-baholovchi konnotatsiyalarni ifoda etuvchi obrazli metaforalar yuzaga chiqadi. Ushbu jihat metaforaning pragmatik qimmatini oshiradi, metaforaning konseptual hamda nominativ vazifasi negizida ontologik yangi bosqich – keyingi bilish bosqichi uchun dastlabki darajani ifoda etuvchi kategoriyanı yuzaga chiqaradi”¹³⁸. Shu sababli metafora inson konseptual olamining kategoriyalovchi vositasi hisoblanadi.

Dastlab, sinestetik metaforalarga to‘xtalib o‘tsak. Sinesteziya (yunoncha synaisthesis – “aralash tuyg‘u”) – sezuvchanlikning turli sohalari sifatlarining birlashishi, unda bir modallikning sifatleri boshqasiga o‘tadi¹³⁹. “Sinesteziya keng ma’noda – deyarli har qanday odamning tovushlar va ranglar, hidlar va tovushlar hamda shu kabilarni birgalikda idrok etish qobiliyatidir”¹⁴⁰. Sinesteziyaga dastlab psixofiziologik hodisa sifatida qaralgan bo‘lsa, XIX asrning 80-yillaridan boshlab tilshunoslikda ham faol qo‘llanila boshladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan “sinesteziya” atamasi sezgilararo assotsiatsiyalar jarayoni va uning natijalarini anglatadi.

Shunday qilib, sinesteziya intermodal yoki intersensor

¹³⁷ Kurbanova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: “Universitet”, 2014. – B. 67.

¹³⁸ Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. док. (DSc) ... дис. автореф. – Самарқанд, 2020. – Б. 32.

¹³⁹ Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии: учеб. пособие. – СПб.: Питер, 2007. – С. 593.

¹⁴⁰ Моисеева С.А. Синкретизм эмпирических прилагательных и синестезия // Современные проблемы языкознания, литературоведения, межкультурной коммуникации и лингводидактики = Actual problems of linguistics, literature studies, intercultural communication and linguodidactics: сб. науч. ст. междунар. науч. конф., – Белгород, 12-14 мая 2014 г. – С. 47.

assotsiatsiyaga asoslanadi¹⁴¹. Bu bizga ushbu hodisani o‘ziga xos metafora sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Sinestetik ko‘chirish jarayonida qo‘llanilgan leksik birliklar sememasidagi emotsional baho semalarining aktuallashuvi ham sodir bo‘ladi. Sinestetik ko‘chirish – bu tilning leksik va frazeologik tizimini boyitish va turli sezgilarni tasvirlashda qo‘llaniladigan leksik vositalarni to‘ldirish muammosini hal etish jarayonidir.

M.Mirtojiyev ta’kidlab o‘tganidek, metafora hosila ma’no referentini hosil qiluvchi ma’no referentiga qiyoslash, o‘xshatish orqali sodir bo‘ladi. U oddiy metafora, personifikatsiya, sinesteziya kabi ko‘rinishlarga tasnif qilinadi. *Oddiy metafora* referentlarning oddiy qiyosi, o‘xshashligiga asoslansa, *personifikatsiya* jonsiz referentning jonli referentga o‘xshatilishiga; *sinesteziya* bir sezgida his qilingan referentni boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o‘xshatilishiga asoslanadi¹⁴².

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosida hosila ma’no yuzaga keladi. Masalan: shirin tabassum, shirin gap, shirin tashvish, shirin xayol, shirin orzu; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, yengil harakat, yengil taom; og‘ir tush, og‘ir gap, og‘ir masala, og‘ir savol, og‘ir kun; yumshoq ko‘ngil, yumshoq fe’l, yumshoq tabiat kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og‘ir, yumshoq sifatlari sinestetik metaforani yuzaga keltirgan. Masalan, *yumshoq* so‘zining genetik ma’nosi qo‘l botadigan, oson eziladigan; muloyim, mayin bo‘lib, birovga qattiq gapirmaydigan, dag‘allik qilmaydigan, muloyim kabi hosila ma’nolarni yuzaga keltiradi. Mulohazalarimizni Erkin A’zam asarlaridan olingan misollar yordamida kengroq yoritib berishga harakat qilamiz:

Birinchi kundan boshlab “diktora bola” Rahmon akada ana shunday sovuq taassurot uyg‘otdi. Shu kundan boshlab u Rahmon akaga

¹⁴¹ Галеев Б.М. Синестезия в мире метафор // Обработка текста и когнитивные технологии (материалы межд. конф.). – Москва-Варна, 2004. – С. 38.

¹⁴² Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: «Mumtoz so‘z», 2010. – Б. 100.

qo'l bermadi, keyiniga salomini ham uzdi. Bora-bora "domla" ham yo'qoldi, "talaba" ham (E.A'zam "Zinapoya").

Matndagi "sovuq + taassurot" sinestetik metaforani yuzaga keltiradi. Bu yerda sovuq ko'ngilga yoqmaydigan, xush kelmaydigan, yoqimsiz ma'nolarini anglatib, bir sezgi orqali qabul qilingan ma'lumot ikkinchi bir sezgi orqali qabul qilinadigan ma'lumot bilan birikkan holda hosila ma'no yuzaga keltirmoqda.

– *"Hayotning yorqin tarafi"yu "musaffo hayot"ni, yana burasangiz – allaqanday tomosha-shouning markazida javlon urmoqda, tag'in burasangiz – qaysi bir cho'zma serialda bosh qahramon, yana birida giyohvand bangi yigitning **achchiq qismatini** o'xshatib berayotir* (E.A'zam "Shovqin").

Yuqoridagi kabi ushbu matnda ham "achchiq + qismat" sinestetik metaforani yuzaga keltirib, azob-uqubat, xor-zorlikda yashab o'tgan inson taqdirini, uning g'am-iztirobli, alamli umr yo'lini anglatuvchi hosila ma'noni ifodalamoqda.

O'rganishlarimiz davomida ko'rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta'm bilish sezgilari, teri sezgilari kabi asosiy sezgilar orqali qabul qilinadigan ma'lumotlarning o'zaro birgalikda idrok etishi natijasida shakllanadigan o'ziga xos sinestetik metafora qoliplari mavjud ekanligi kuzatildi. Masalan, "eshitish, (ovoz) + ta'm sezgisi", "ko'rish + teri sezgisi", "hid + ta'm sezgisi", "hid + eshitish sezgisi", "hid + teri sezgisi", "ko'rish, (rang) + eshitish", "ko'rish, (rang) + hid" va hokazo. Shuningdek, "rang + his-tuyg'u" qolipi ham mavjud bo'lib, aynan mana shu qolip muallif asarlarida ko'proq kuzatildi:

Ota turib-turib mendan noliy ketdi:

*A, jiyanjon-a, siz-ku o'qigan, esliroq edingiz, jo'rangizni yo'ldan qaytarmabsiz-da! Nima kasofat urdiki... Ramazonning sudi ham o'ziga o'xshadi – **qip-qizil hangoma!*** (E.A'zam "Anoyining jaydari olmasi").

Ushbu matnda sinestetik metafora orqali butunlay, to'lig'icha kabi hosila ma'nolar ifodalangan.

Keltirib o'tilgan misollardan ko'rinadiki, sinestetik metafora qoliplari o'zaro paradigma hosil qiladi:

Ramazonning ortidan qarab qolarkanman, negadir uning sevimli

qo'shig'i esimga tushdi: "Xush qol en-di-i, Zuhroxonim..." – Jo'rang qip-qizil g'alcha ekan, – dedi sudga birga borgan yozuvchi do'stim qaytishda. – O'zini o'zi qamatdi (E.A'zam "Anoyining jaydari olmasi").

Bu kabi paradigmatic qatorlarni uzoq davom ettirish mumkin va bir xil qolip asosida yuzaga kelgan sinestetik metaforalardagi hosila ma'nolar o'rtasida semantik bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Bizni real dunyo bilan bog'laydigan barcha hislarni o'z ichiga olgan sinestetik metaforalarni reallik va xayol o'rtasidagi ko'prik sifatida ko'rish mumkin. Badiiy matnda sinestetik metaforalarning qo'llanilishi nutqning hissiy baholash ta'sirining kuchayishiga va u orqali ifodalanayotgan mazmunning o'quvchilarga sodda, ravon va tez yetkazib berilishiga xizmat qiladi:

– Anavi nima? – dedi bir payt qiz dahshat ichida. U yigitning yelkasidan qattiq g'ijimladi. Yigit ilkis bosh ko'tarib, qiz ko'rsatgan tomonga qaradi. Bulardan to'rt daraxt naridagi keksa arg'uvon tagida nimaningdir junli boshi ko'rinardi. Bir juft sovuq ko'z cho'g'day yiltillab turibdi!.. (E.A'zam "Ajina").

O'ziga jalb qilmaydigan, yoqimsiz hosila ma'nosiga ega bo'lgan sinestetik metafora bir vaqtning o'zida alanga, otash, taftni ifodalashda qo'llaniladigan cho'g'day sifati bilan semantik oppozitsiya hosil qilgan.

U ham shuni sezarmidi, Farhodni ko'rganda nimanidir aniqlab olmoqchidek sovuq-sovuq tikilib qo'yardi (E.A'zam "Shovqin").

Paradigmatic qatordagi ikki matnni o'zaro qiyoslasak, birinchi matnda ko'zning yoqimsizligi, ikkinchi matnda esa qarashning yoqimsizligini ifodalangan.

Yuqoridagilardan tashqari sinestetik metaforalarning yana bir o'ziga xos stilistik-pragmatik xususiyati shundan iboratki, ular qahramonlarning psixologik va jismoniy holatlarini aks ettirish vazifasini ham bajaradi:

– Xa-e, – dedi Xolnazar moyli qo'li bilan terlagan burnini ishqab. So'ng "Burningni art avval", degan Omonqulovning boloxonaga chiqqaniga ishonch hosil kilgach, changitib so'kindi (E.A'zam "Sabil").

Xolnazarning Omonqulovni "changitib so'kishi"ning asosida

uning ruhiy holati va ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi yotadi. Bolaning otaga bu kabi qo‘pol munosabatda bo‘lishining zamirida otaning o‘gayligi, oilaviy munosabatlarda ayolning eridan ustunligi, oilada erlik va otalik o‘rni yo‘qligi, ikkinchi turmushi bo‘lishi bilan birga o‘z uyini tashlab xotining uyida yashashi, ayolning undan mavqe jihatdan ham ustunligi turadi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, “sinesteziya o‘quvchiga yozuvchi va shoirning dunyoqarashi va munosabatining o‘ziga xosligini, uning atrofdagi voqelikka qarashini ochib beradigan o‘ziga xos stilistik belgidir”¹⁴³.

Shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, har qanday turdagi metaforaning ekspansiya ko‘lamida antroposentrik xarakterli nishon mavjud bo‘lib, metaforaning pragmatik tabiatini busiz tushuntirib bo‘lmaydi:

*So‘loqmonimizning o‘zi ham boyadan beri imi-jimida uch-to‘rttasini qulqillatib qo‘ygan. Mashqi durust, bu ketishda ko‘p “yorlig‘”larga ega bo‘lsa ajab emas. Ertasini o‘ylarmikan o‘zi bu yigit? Yo‘q narsaning nimasini o‘ylasin? Buguni o‘tsa bo‘ldi-da. Kun-ku, mana, o‘tdi hisob, ammo kechasi anovi **alvasti** bu yuvosh, bo‘ynibo‘sh bolani tek qo‘yarmikan? Ikkalasi ham “obi-tobi”da hozir (E.A’zam “Shovqin”).*

Ushbu matndagi so‘loqmon so‘zi ikki xil ma’noda qo‘llaniladi: 1-yug‘on tayoq, so‘yil. 2-(ko‘chma salibiy) gungursday, xirsday, barvasta odam¹⁴⁴. Bu yerda so‘loqmon ko‘chma ma’noda qo‘llanilib barvastalikdan tashqari ertasini o‘ylamaydigan, hayotga yengil qaraydigan, kim nima desa osongina ko‘nib ketadigan, “bu yog‘i bir gap bo‘lar” qabilida faqat bugungi kuni bilan yashaydigan, o‘z qadrini bilmaydigan bo‘shang insonni anglatadi.

Alvasti esa mifologiyaga ko‘ra har xil qiyofada ko‘rinadigan afsonaviy maxluqni bildirib, ko‘chma ma’noda asosan xotin-qizlarga nisbatan qo‘llaniladi. Muallif bu ikki personajni: “bo‘ynibo‘sh” yigit va

¹⁴³ Смолина А. Н. Синестезия как троп метафорического типа // Журнал Сибирского Федерального университета. Гуманитарные науки. – 2009. – Т. 2 – С. 101-108.

¹⁴⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 613.

“alvasti” ayolini bir-biriga o‘zaro qarshi qo‘yadi.

Metafora xuddi bir vaqtning o‘zida nominativ va kommunikativ maqsadlarni yaqinlashtiradigan boshqa lisoniy birliklar singari, olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vositadir. Biroq, ushbu vosita boshqalardan farqli o‘laroq til tizimida oldindan mavjud bo‘lgan ma’nolardan foydalanib, yangi konseptlarni yaratish uchun xizmat qiladi. Demak, metafora faqat ma’noning mavjudligini ta’minlash uchun xizmat qilibgina qolmasdan, balki ushbu ma’noni shakllantirish mexanizmi va uni kommunikatsiya sharoitida uzatish vositasi hamdir¹⁴⁵.

Tanka-yu bronetransportyorlari bu yoqqa bostirib kirolmagan, negaki hammayoq tumonat odam, maydonning tevaragi har turli mashinalar bilan to’sib qo’yilgan – mudofaa mustahkam edi. Hatto, “bo’yinturug‘i”dan chiqarib kelingan uzun-uzun bir-ikki trolleybus ham hujumga ko‘ndalang (E.A’zam “Shovqin”).

Bo‘yinturuq omochning ish hayvoni bo‘yniga taqiladigan qismi. Ko‘chma ma’noda jabr-zulm, asorat, og‘ir mehnat¹⁴⁶. Bundan tashqari xalq tilida ot, eshak kabi hayvonlarga arava qo‘shish uchun ularning bo‘yniga taqiladigan maxsus abzalga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bo‘yinturug‘idan chiqarmoq o‘sha yumushni bajarishdan yoki o‘sha jismdan xolos bo‘lishini anglatadi. Bu yerda muallifning trolleybusga nisbatan bo‘yinturuq so‘zini qo‘llashi obrazlilik, estetik ta’sirchanlikni oshirish bilan birga kommunikativ samarani ham yuzaga keltiradi. Bejizga N.D.Arutyunova “nutqni metaforadan ko‘ra yorqinroq tasvirlab beradigan go‘zal usul yo‘q”¹⁴⁷, deb ta’kidlab o‘tmagan.

M.Mirtojiyev faqat metafora va metonimiya natijasida hosila ma’no pragmatik semaga ega bo‘lishini ta’kidlab, “pragmatik semali hosila ma’nolarda so‘z hosila ma’nosi tushunchada ifodalangan refrentini aks ettirish bilan birga, unga bo‘lgan subyektiv munosabatini

¹⁴⁵ Сафаров Ш. Метафора ходисаси талқинига янгича ёндошув имкониятлари//Хорижий филология. 2020 йил. № 1. – Б. 7-8.

¹⁴⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 403.

¹⁴⁷ Арутюнова Н.Д. Номинация, референция, значение // Языковая номинация. Общие вопросы. – Москва, 1979. – С. 188.

ham bildirishi”ni qayd etib o’tadi¹⁴⁸.

– *Qo’shdaryo viloyat komsomollariga **serkalik** qilib yurgan davrim. Tog’dagi olis bir qishloqdan shaxsan o’zimning nomimga shikoyat xati keldi* (E.A’zam “Shovqin”).

Bizga ma’lumki, odatda, qo’ylar suruviga bo’yniga mis qo’nqiroq osilgan serka yo’lboshchi, yetakchilik qiladi. Serka qaysi tomonga qarab harakatlansa qo’ylar suruvi uning ortidan ergashadi. Mazkur matnda Baynalmilalchi bobo o’zi haqida gapirayotib “serkalik qilib yurgani”ni aytganda serkaning aynan mana shu jihatiga nisbat berib o’zining viloyat komsomollariga rahbarlik qilganini nazarda tutadi. Serkaning insonga nisbatan qo’llanilishi pragmatik ma’noni yuzaga keltirish bilan birga muallifning individual metafora yaratish mahoratini ham namoyon etadi.

Yana bir matnga e’tibor qaratamiz:

*Namoyishchilarning xatti-harakati, ahvol-ruhiyasi ham bu yerda boshqacha. Kurashga shay, chinakam fidoyi **serkalari** yig’ilgan-da* (E.A’zam “Shovqin”).

Bu yerda serkaning yetakchilikdan boshqa yana bir xususiyatiga nisbat berilgan bo’lib, serkalar boshqa suruvlarga oralab ketmaydi, tashqi xavf-xatardan suruvni ogohlantiradi, shu jihatdan bu yerda o’z to’dasiga, tarafdorlariga sodiqlik, jonfidolik ham ifodalangan.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, zoomorfik metaforalar yuqoridagi kabi insonlarning xatti-harakati va fe’l-atvorini yoki tashqi ko’rinishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda ular ijobiy yoki salbiy konnotativ ma’noni ifodalaydi. Masalan: It – (*ijobiy ma’noda*) vafodorlik, sodiqlik, qo’riqchilik (*salbiy ma’noda*) betga choparlik, qopog’onlik; Eshak – (*ijobiy ma’noda*) mehnatkashlik, (*salbiy ma’noda*) qaysarlik, ovsarlik va h.k. Bunday umuminsoniy xarakterdagi metaforalarning ijobiy yoki salbiy ma’no ifodalayotgani matnda oydinlashadi.

*Mabodo, **g’unajin** o’zi ko’z suzganmi desa, bilmagan bilmas, lekin Farhodga ma’lum: Zebo zinhor-bazinhor ko’z suzadigan xilidan emas*

¹⁴⁸ Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: «Mumtoz so’z», 2010. – Б. 109.

(E.A'zam "Shovqin").

Mazkur matnda Farhod o'zining Zebo haqidagi o'y-fikrlarini "g'unajin ko'z suzmasa, buqa ip uzmas" maqolidan kelib chiqqan holda bildirib o'tadi. G'unajin odatda ayollarga nisbatan salbiy ma'noda qo'llaniladi, ammo Farhodning Zebo haqidagi fikrlari ijobiy bo'lganligi sababli u haqda bunday xayolga borishni nojoiz deb biladi. Shuning uchun ham unga nisbatan aynan "g'unajin"ni ishlatmasdan maqol orqali ishora berib o'tgan.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, zoomorfik metaforalar insonning salbiy emotsiyalarini tasvirlashda sermahsul vositalardan biri hisoblanadi.

*Eri bir piyonista maxluq, shundoq xotini turib, qo'shni beva bilan don olishib yurarkan, Zebo ularni o'z to'shagida qo'lga tushuribdi. "Shu ishni bevanikida qilsa bo'lmasmikan?" degan sho'xroq o'y kechgan o'shanda Farhodning xayolidan. Hazillashib bu gapni xotinining izidan yo'qlab kelgan boja bo'lmishga ham aytganida, "Разнообразие!" deb tirjaygan u **ho'kiz** (E.A'zam "Shovqin").*

Asarda Zeboning erining ismi ham keltirilmasdan unga nisbatan "ho'kiz" deyilishining o'ziga xos ikkita sababi bor. Birinchidan, u Zeboga xiyonat qilgan. Ikkinchidan, muallif ta'kidlab o'tganidek Farhod pedinstitutda o'qigan bu ikki opa-singil (Zebo va Zuhra) bilan bir kunda tanishgan; biri "zerikarli" tarixchi, biri chet tillarga ishqiboz. Qayoqqa bormasin, uchovlon birga borgan, birga yurgan. Xuddi qizo'rtoqlardek. Ikkalasiga ham munosabat deyarli bir xil. Masalani bir yoqli qilish mavridi kelganda esa, hamqishloq bir akaxonining maslahati bilan, yoshroq deb Farhod Zuhrani tanlagan. Lekin hamon ro'zg'oridagi biror nimadan ko'ngli to'lmasa, "O'shanda adashgan ekanman, Zeboga uylansam bo'larkan", deb Zuhrani kuydiradi. Shu sababdan Farhodda Zeboni xo'rlagan odam – bojasiga nisbatan salbiy emotsiya shakillangan.

Metafora ko'magida endi biz tasvir obyektini faqatgina "ko'rib qolmasdan", balki his qilamiz, uni go'yo o'z boshimizdan kechiramiz. U bizning hissiyotimizga, ongimizga ta'sir etish bilan birga yozuvchini

ham uzundan-uzoq bayondan qutqaradi”¹⁴⁹.

*Og‘ir yurak xurujidan keyin dam olgani kelganmish bu yerga. Ammo “cepdua”si chatoq odamga kim qo‘yibdi ishqibozlikni? “Buryot malikasi” ko‘rindi deguncha **dingillab qoladi**: “Qarang, qarang, Farhodjon!”. Farhodning u jilvagar juvonga hech bir da‘vosi yo‘g‘-u, bu **keksa ayg‘ir**ning gapiga g‘ashi kelaveradi (E.A‘zam “Shovqin”).*

Odatda “dingillamoq” hayvonlar harakatiga nisbatan qo‘llaniladi. Bu yerda qo‘qqisdan harakatga kelish, o‘zini qo‘yarga joy topa olmay qolish ma‘nosini ifodalaydi. Baynalmilalchi boboning “buryot malikasi”ni uchratib qolgandagi holati, o‘zini tutishi aynan mana shu ifodaga mos tushadi.

“Ayg‘ir” umumiy ma‘noda erkak otni anglatadi. J.Lapasov “ot” so‘zi betaraf xarakterga ega ekanligi va uning ijobiy yoki salbiy ma‘no kasb etishi matndan oydinlashishini qayd etib o‘tadi¹⁵⁰. So‘zlashuvda o‘jar, qaysar kishilarga nisbatan “ayg‘ir” sifati ishlatilishi ham kuzatiladi. Baynalmilalchi boboning yoshiga va jismoniy holatiga nomuvofiq xatti-harakatlari, aytgan gaplari Farhodning g‘ashini keltiradi va unga nisbatan o‘zining fikrlarini bildirib o‘tishda “dingillab qolmoq”, “keksa ayg‘ir” metaforalaridan foydalanadi. Muallif shu orqali qisqalik, emotsionallik va pragmatik ta‘sirchanlikni yuzaga keltiradi.

*Farhod Ramazonning maslahatiga kiribmi, “akaxon” keyinchalik “Semurg‘” degan yallachi qizlar dastasini tuzadi. Se murg‘ – uch tovuq, yo‘q, jo‘ja degani. Bora-bora **jo‘jalari** ko‘payib, “Simurg‘” bo‘ladi; “si murg‘”, ya‘ni jo‘jalar soni, iya, uyat-a, sanog‘i deganimiz ma‘quldir – ishqilib, o‘ttizga yetadi. Kinokompaniyaning ham nomi shunday. Bari **murg‘ak jo‘ja** – raqqosasi ham, yallachilari ham (E.A‘zam “Shovqin”).*

Semurg‘ sharq xalqlari og‘zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi, murg‘ – tovuq. Muallif semurg‘ so‘zini turlicha talqin qilish orqali metafora hosil qiladi. Semurg‘ni avval uch tovuq deydi, keyin esa yallachi qizlar guruhi yosh qizlardan iborat bo‘lganligi uchun muallif ularni jo‘ja, “murg‘ak jo‘ja”lar deb ataydi. Yozuvchi asar

¹⁴⁹ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б. 18.

¹⁵⁰ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995. – Б. 21.

qahramonlarining yoshiga ko'ra tafovutlarini "jo'ja" va "tovuq" metaforalaridan foydalangan holda ifoda etadi:

*Ular orasida endi Muniraxonim yo'q. U allaqachon **tovuq** bo'lib ketgan bo'lsa kerak. **Qaqag'lab** yurgandir bir yoqlarda* (E.A'zam "Shovqin").

"Murg'ak jo'ja"lardan biri bo'lgan Muniraxon "Shodiyona" raqs guruhining yetti raqqosasi ichida eng ko'zga yaqini bo'lib, o'sha kezlari uni ko'rganda Farhodning entikkani, unga zimdan oshiq bo'lgani ham bor gap. Keyinchalik Farhod kinochilarga rahbar bo'lgandan keyin Muniraxon suratga olinajak yangi filmning bosh rolga davogarlik qilib keladi. Ancha yillar oldin bo'lib o'tgan voqealar, raqqosaning aktrisalikka da'vo qilishi, kamiga bosh rolni ijro etmoqchiligi, o'zaro suhbat jarayoni Farhodning g'ashini keltiradi, ochiqdan ochiq unga qarshi boradi. Muniraxon qaysarlik va boshqalarning aralashuvi bilan zo'rg'a bosh rolni ijro etgan film "badiiy yaroqsiz" deb topilib ekran yuzini ko'rmaydi. Muniraxonning "tovuq"qa aylanishi ham allaqayerlardadir "qaqag'lab" yurgani ham Farhodning u haqidagi tasavvuri va xulosasi natijasi bo'lib, Muniraxonning yoshi o'tib qolgani va san'at sohasidan uzoqlashganini anglatadi.

Muallif parranda nomlari yordamida hosil qilingan metaforalardan personajlar tashqi ko'rinishi, xarakteri, ruhiy holati, kundalik mashg'ulotini tasvirlashda ham keng foydalangan:

*So'ngra tag'in har alvon mishmishlar yurib qoldi: "Qochibdi! Qochib ketibdi! Qo'rqoq, sharmanda! Iye, to'g'ri qilgan-da, bu yerda o'tirib manovi **quzg'unlarga** yem bo'lsinmi?! To'g'ri qilgan, yashasin demokratiya!"* (E.A'zam "Shovqin").

Bu yerda namoyishchilarning hokimiyat binosini o'rab olishi quzg'unlarning o'limtikka yopirilishiga o'zshatiladi. Shahar hokimining namoyishchilar qo'liga tushmasdan qochib ketgani haqidagi xabarni eshitganlar uning quzg'unlarga yem bo'lmaganligini aytishadi. Namoyishchilarning o'z maqsadlariga erishish yo'lida hech narsadan qaytmasliklari, har qanday ishga tayyorligi va hokimiyatni qurshab turishi quzg'unlar to'dasiga qiyoslanadi. Quzg'un och qolsa, tirikni ham cho'qir maqoli ham ularning o'z nafsini yo'lida har qanday harakatni

amalga oshirishga qodirligini ko'rsatadi.

Olimlarning fikricha, “metafora bizning butun kundalik hayotimizga kirib boradi va o‘zini nafaqat tilda, balki tafakkur va harakatda ham namoyon qiladi. Biz o‘ylaydigan va harakat qiladigan kundalik kontseptual tizimimiz asosan metaforadir”¹⁵¹. Metaforalardan foydalanish ijodkordan muayyan bilimlarni talab etsa, so‘zlovchi va tinglovchidan idrokni talab etadi. Metaforani qo‘llash jarayonida uning millatning etnik xususiyatlari va mental madaniyatiga nechog‘lik muvofiqligi inobatga olinishi lozim. Zero tilshunoslarimiz qayd etib o‘tganlaridek “metafora o‘zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, chunki metafora madaniy-milliy dunyoqarashga asoslangan”¹⁵² bo‘ladi.

Bizga ma'lumki, “Erkin A'zam so‘z qadrini zargar kabi qadrlaydi. U so‘zdan avaylab asrab foydalanadi, shu bois adibning roman, qissa, hikoya va badiiy-publitsistikasida so‘zning ming xil badiiy tovlanishlari jilolanib turadi. Yozuvchi nasrida kinoya, yengil kulgi, zaharxanda, qahqaha, piching, kesatiq, masxaraomuz, mazaxlovchi hazil qatlamlari, sarkazm, so‘z o‘yinlari, parodiya, paradoks, parodiyaviy obrazlilik, niqoblangan obrazlar kuzatiladi”¹⁵³. Endi so‘zning ko‘chma ma’noda ishlatilish imkoniyatlaridan yana biri – kinoya haqida mulohaza yuritsak.

“Kinoya. Til birligini uning haqiqiy ma’nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochiriq, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim”¹⁵⁴ bo‘lib, kinoyali nutqiy harakatlar bajarilishidan ko‘zlanadigan asosiy maqsad – tinglovchiga ta’sir o‘tkazish va uni ushbu ta’sir doirasida hosil bo‘ladigan faoliyatga undashdir. Bu undov esa bilvosita kechadi, ya’ni so‘zlovchi tinglovchiga o‘z ta’sirini tagma’noli muloqot vositasida o‘tkazish yo‘lini tanlaydi. Tilshunos olimlarimiz ta’kidlaganlaridek, “kinoyada muallif voqeani

¹⁵¹ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 50.

¹⁵² Саидова М., Қўзиев У. *Лингвокультурология*. – Наманган, 2017. – Б. 115.

¹⁵³ Эркин Аъзам бадий олами: / Тўплам. – Тошкент: “Turon zamin ziyo” нашриёти, 2014. – Б. 3. Нашрга тайёрловчилар: Нормат Йўлдошев, Обид Шофиев. Масъул муҳаррир: Мархабо Қўчқорова.

¹⁵⁴ Ҳожиёв А. *Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати*. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 49.

jiddiy bayon qilganday bo‘ladi, ammo til vositalarini o‘z ma’nosiga qarama-qarshi qo‘llab, biror shaxs yoki voqelik ustidan kesatiq bilan kuladi. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi nutqining zaminida haqiqiy ma’noga teskari bo‘lgan yashirin kulgu ma’nosi yotadi”¹⁵⁵.

Kinoya vositasining badiiy asar tili, uning estetik qimmatini oshirishdagi ahamiyati xususida juda uzoq muhokama qilish mumkin. Ayniqsa, uning mohiyatiga pragmatik nuqtai nazardan yondashib, asar badiiyatini ta’minlashdagi o‘rnini muayyan yozuvchi asarlari misolida tadqiq qilish bugungi kundagi eng muhim izlanish mavzularidan bo‘la oladi. Chunki “kinoya va uning ko‘rinishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib uni pragmatika sohasi bilan bog‘lamay turib, undagi yashirin mazmun ko‘rinishlarini aniqlamay turib, u haqda fikr yuritib bo‘lmaydi”¹⁵⁶.

Ma’lumki, badiiy asarda ijobiy va salbiy xususiyatli shaxslar obrazlari farqlanadi. Ular yozuvchi tomonidan o‘ziga xos xarakter darajasida shakllantiriladi. Badiiy asar matnida tasvirlanayotgan har bir obraz o‘ziga xos tilda so‘zlab, o‘zining xarakteri, dunyoqarashi haqida kitobxonga ma’lumot beradi. Shuningdek, biror qahramon nutqi vositasida yozuvchining obrazga va voqyelikka subyektiv munosabati ham ifodalanadi. Demak, kinoya nutqiy aktidan muallif o‘zining subyektiv bahosini bildirib o‘tish, asar qahramonining ruhiy holati yoki xarakterini ochib berish, jamiyatda ildiz otgan illatlar, yo‘qolib borayotgan qadriyatlar va ularning fojiaiy oqibatlarini ko‘rsatib o‘tishda ham foydalanishi mumkin. Fikrimizni “Piyoda” hikoyasidan olingan misollar orqali davom ettiramiz:

– *Mana men, akajon!*

Berdiboy yalt etib ayvon tarafga qaradi. Deraza tagida yotib hamma gapni eshitgan chog‘i, panjaraga suyangancha, hech narsadan tap tortmaydigan bir vajohat bilan sho‘x-shaddod Gulsanam turardi. Boshyalang! Ana, ko‘rdinglar, musulmonlar, aytmabmidim!

– *Yo‘l bo‘lsin, singlim? – dedi Berdiboy nosini tupurib.*

¹⁵⁵ Мамажонов А., Ибрагимова Э. Киноя – субъектив муносабат ифодалаш усуллари дан бири //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – № 4. – Б.14.

¹⁵⁶ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. ...диссертацияси. – Тошкент, 2001. – Б. 191.

- Toshkentga!
- Toshkentda pishirib qo‘ygan ekanmi?!
- **Sizga sallalik, Oyro‘zi chechamga paranjilik opkelmoqchiman!**

– *Xo‘sh, qanday o‘qishga ekan?* – dedi Berdiboy uning kesatig‘ini eshitmagandek, atay merovsirab. – *O‘qib kim bo‘lasiz endi?*

- *Xudojnik-modeler! Bichiqchi rassom (E.A’zam “Piyoda”).*

Ushbu matnda Gulsanam tomonidan qo‘llanilgan kinoya nutqiy akti orqali hikoya avvalida keltirib o‘tilganidek, Berdiboyning “eskilik sarqiti” ekanligiga shama qilinadi. Unga eski zamon odami sifatida qaraladi. Buning sababi esa Berdiboyning yon-atrofidagi, jamiyatdagi o‘zgarishlarga ko‘nika olmaganligi, qizlarda ibo, hayo, yigitlarda or-nomus yo‘qolib borayotganligiga qayg‘urishida edi.

Gulsanamning boshyalang yurishi, mulla Shodining sochi taqimini o‘padigan, qushdek hurkak, qo‘ydek yuvosh qizi Gulchehraning ko‘chaga velosiped minib chiqishi, qiz-juvonlarning hayo atalmish dahmazaga qo‘l siltab, ko‘chada ishvakorona qadam tashlashi, yigit-yalangning sochi yelkasiga tushib, surnaypoycha shim-u zaifona guldor ko‘ylak kiyishiga televizor sababchi deb hisoblagan Berdiboy atrofdagi bunday o‘zgarishlarning bosh aybdori sifatida Rajab bodini ko‘rsatadi, chunki u birinchi bo‘lib televizor olib keladi. Keyin qolganlarda ham paydo bo‘ladi.

Aslida Berdiboy singlisining o‘qishiga qarshi emas edi. Negaki, o‘zi ham qishloq xo‘jalik bilim yurtida o‘qigan. Faqatgina u singlisining o‘zligini yo‘qotmasligini istar, uning or-nomusini o‘ylab xavotir olar, begona yurtlarga, jigarlaridan olislarga kelin bo‘lib ketishi mumkinligi, sog‘inch azobida qiynalishini o‘ylab shaharga o‘qishga borishini xohlamas edi.

Navbatdagi matnga e’tibor qaratamiz:

Yo‘q, Gulsanam zahrini so‘nggi tomchisigacha to‘kmasa, naq o‘lib qolardi!

– *Siz, aytaymi...* – dedi u Berdiboyga chaqchayib qarab, – *o‘tgan asrdan qolgan odamsiz, akajon!*

- ***Bo‘pti! Bu zamonda akalik qolmabdi, ukalik qolmabdi.***

Buni surishtirmoqchi bo‘lgan odam o‘tgan asrga qaytishi kerak ekan, bo‘pti, qaytamiz! – dedi Berdiboy g‘aribnolalik bilan. – Otang rozi, enang rozi, biz nima der edik, singlim? Biz bu uydan etak silkiymiz-u chiqamiz-ketamiz-da! (E.A’zam “Piyoda”).

Berdiboyning bu gaplarni aytishiga birinchi sabab singlisining baribir o‘z bilganidan qolmasligi, akasining maslahatiga quloq tutmaganligi bo‘lsa, keyingi o‘rinda hikoya boshida o‘zidan o‘n yoshlar kichik ukasi Samandarning “aka” emas, “Huv Berdiboy” deb murojaat qilishi va katta ukasi Muzaffarning bir gal (Berdiboy kelinining kiyinishi to‘g‘risida onasi va ukasiga e’tiroz bildirganda) “aka to‘g‘ri aytasiz” deyish o‘rniga “E, Berdiboy-e, qip-qizil chudaksiz-da!” deganligidir.

Berdiboy yoshligidan ota-onasi, uka-singillaridan uzoqda, qishloqda buvisinikida katta bo‘ladi, shuning uchunmi jigarlari unga begonalardek munosabatda bo‘ladi. U goho barcha oila a‘zolari bir joyda, buvisining bog‘ida bir qo‘ra, bir qo‘rg‘on bo‘lib birga yashashi, topgan-tutganlarini kechqurun bir qozonga solib, birga baham ko‘rishi, otasi dasturxon to‘rini to‘ldirib o‘tirishi, singlisi ham shu yaqin atrof xesh-hamsoyaga uzatilishi, yaxshi-yomon kunda bir-birlarining issiq-sovug‘idan xabardor bo‘lib turishini orzu qiladi. Ana shunda mehr-oqibat ham, og‘a-inichilig-u, ota-bolalik deganlari ham boshqacha bo‘ladi deb o‘ylaydi.

Kuzatishlarimizdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, “kinoyaning ijtimoiy ma’nosi shundaki, uning vazifasi nafaqat jaholat bosgan hayotga qarshi kurash, balki shaxsning ma’naviy (ruhiy) o‘zini anglash usuli ham hisoblanadi”¹⁵⁷. Muallif birgina Berdiboy obrazi, uning kinoyaviy nutqi orqali, jamiyatda mavjud muammolar, or-nomus, ibo, hayo tushunchalarining hayotimizdagi o‘rni, yo‘qolib borayotgan qadriyatlar, insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, qarindosh urug‘chilik rishtalarining sovib borayotganligini yoritib beradi. Berdiboyning muammosi bugun jamiyatimizda yashayotgan har qanday insonda ham kuzatilishi, uning ruhiy kechinmalari siz-u bizning ong-u shuurimizda ham kechishi mumkin.

¹⁵⁷ Shofiyev O. Erkin A’zamning badiiy mahorati. Monografiya. – Mersin: Mer Ak Publishing House, 2020. – B. 50.

3.3. Dialektizmlarning pragmatik imkoniyatlari

Yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadi. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga "badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir"¹⁵⁸. Demak, badiiy matn yoki kinofilmlarda asar qahramonlari nutqining haqqoniyligini ta'minlash maqsadida dialektal so'zlardan foydalaniladi. Lekin bu bilan "dialektal leksema adabiy tilda o'rnashdi degani emas, albatta. Badiiy adabiyot va kinofilmlarda shevaga xos unsurlarni ishlatishda quyushqondan chiqib ketish yaxshi emas. Ularni qo'llash me'yor doirasida bo'lmog'i lozim"¹⁵⁹.

Erkin A'zam asarlari tili shevaga xos lisoniy vositalarga boyligi bilan ajralib turadi. Adib o'z qahramonlarini o'zlari istiqomat qiladigan joy va turmush tarziga bog'liq holda tasvirlash, asar bilan tanishayotgan kitobxonni unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida o'rni bilan *anovinaqa*, *qo'sqi*, *o'shak*, *uytib-buytib*, *ulim*, *shishinib*, *galdir*, *shipirmoq* (*yemoq*), *g'alcha* kabi shevaga xos so'zlarni ishlatadi.

"Shoirning to'yi" qissasidagi voqealar, asosan, Toshkentda kechadi. Shuning uchun ham asar tilida Toshkent shevasiga xos fonetik, morfologik, leksik xususiyatlar o'z ifodasini topgan. "Biror dialektal so'zning adabiy nutqqa ko'chish hodisasi bilan dialektal so'zlarning badiiy asarda ishlatilishi hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning ma'lum mahalliy belgisini bildirsaгина dialektal so'zlardan

¹⁵⁸ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 24.

¹⁵⁹ Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 143.

foydalanishlari mumkin”¹⁶⁰. “Arbob Qulov Parijga boradi” hikoyasida dialektizmlar mahalliy mansublikni berish, Anvar mirzo nutqini individuallashtirish vazifasini bajargan:

Anvar mirzo hujjatni raso xushxati bilan bezayturib, bir nuqtaga kelganda yosh otadan so‘raydi: **“Qoniy, Beg‘amboy uka, mana, bachamizning otlarini Boyqobilboy deduk, millatlarini ne deylik: qo‘ng‘irotmi, chag‘ataymi, yo “shumo-shumo” bo‘lsunlarmu?”** “Eng zo‘rini yozaberasiz-da endi, mirzo bobo!” deydi dala kezmoqdan o‘zgasiga no‘noq qo‘ychivonimiz. **“Shunday bo‘lsunmu?** – deydi mug‘ombir mirzo mug‘ombirona iljayib. – O‘zimning elatimni yozib bersammi yo – dunyoda eng zo‘r elat?!” “E, shundan keling, bobojon, bizdan ham zo‘r chiqsin-da! – deydi Beg‘amboy og‘zi qulog‘iga yetib. – Bir sovliq bizdan! Qo‘zisi bilan!” (E.A‘zam “Arbob Qulov Parijga boradi”).

Bunday birliklarda bugungi kun nuqtayi nazaridan so‘zlashuv uslubi bo‘yog‘i yaqqol sezilib turadi. Bu kabi birliklar tilimizdagi nafaol lug‘aviy qatlamga tegishli bo‘lib, ular badiiy nutqda ma‘lum bir vazifalarni bajaradi. Bunday so‘zlarni qo‘llashda Erkin A‘zam davr tilini aniq va yorqin aks ettirish, personajlar nutqini individuallashtirishni asosiy pragmatik maqsad qilib olgan. Yozuvchi ayrim shevaga xos bo‘lgan yoki eskirgan so‘zlarga tegishli o‘rinlarda oddiy so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladigan ko‘rinishlariga ham murojaat qiladi va shu orqali shu so‘zga izoh berishga intiladi, bu esa o‘z navbatida kitobxonga o‘sha davr to‘g‘risida ma‘lumot bersa, ikkinchidan, uning asardagi o‘ziga notanish bo‘lgan so‘z pragmatik mazmunini bilib olishiga ko‘maklashadi.

Onasining luqmasi:

– *O‘lgur Mayramingizning o‘ziyam do‘lkigina-da, har yog‘ini selkillatib iljayganmi-qo‘yganmi deng...* (E.A‘zam “Hulo‘l”).

Parchadagi “do‘lki” so‘zi kelishgan, durkun ma‘nosida kelgan. Bu dialektizm matnda tavsiflash vazifasida kelib, kitobxon diqqatini jalb qilish uchun qo‘llanilgan.

¹⁶⁰ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 58.

Y.A.Skorodumov fikricha, ilmiy adabiyotlarda dialektizmning quyidagi vazifalari mavjudligi qayd etiladi:

1) tavsiflovchi vazifa – dialektizmlar qahramonning qayerdan ekanligi, qaysi toifaga mansubligini aniqlashga yordam beradi;

2) modellash vazifasi – haqiqiy xalq nutqini yetkazadi, “asarga haqqoniylik bag‘ishlaydi”;

3) nominativ vazifa – dialektizmning vazifasi ma’lum predmetni nomlash uchun xizmat qiladi;

4) emotiv vazifa – bunda adresantning o‘z gaplariga subyektiv munosabatini ifodalashi, hissiyotiga ta’sir etish maqsadi;

5) yuksak vazifasi – o‘quvchi diqqatini aniq dialektizmga qaratish¹⁶¹.

Biz yuqoridagi fikrlar isboti sifatida “Shoirning to‘yi” qissasidagi Jiyanbeka nutqiga e’tibor qaratmiz:

Jiyanbeka mana shu oliymaqom anjumandagi oliy-sha’n minbarda turib go‘yo yaltirab yotgan sip-silliqlik yo‘lka bo‘ylab yaxmalak otdi: u yoqdan – bu yoqqa, bu yoqdan – u yoqqa. “Biza Sibirga borib keldivuz: man, Zahmatkash domla, Mas’ul okamiza va Yosh shoir. Amakimlani qabrligini ko‘rib keldivuz: ja obod, atrofi panjara minan o‘ralgan. Byustlariyam bor. O‘tta amakimlani ja yaxshi ko‘risharkan, maktabga nomligini berishibdi. Bitta xotin bor ekan, eriyam bor, o‘sha amakimlani... amakimlani... bilar ekan, gapirib berdi. Umuman, ja zo‘r bo‘ldi. Buning uchun Mafkuraxon opavuzaga, Oqsoqol domlaga ko‘pdan-ko‘p rahmat. Bizaga sharoit yaratib berishdi. Amakimla ja zo‘r shoir bo‘lganla, ja ko‘p she’rlar yozganla-de. Biza, butun oilavuz ulani doimo eslab, quvonib yuravuz. Sho‘rlik amakim! Mana shundoq kunlarni ko‘rmay ketdila-ya!...” (E.A’zam “Shoirning to‘yi”).

Keltirilgan parchada personaj nutqining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari ushbu nutqning Toshkent shevasiga taalluqli ekanligiga ishora qilishdan tashqari yana bir muhim pragmatik vazifa – personajning dunyoqarashi, fikr ifodalash uslubi, saviyasi kabi jihatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qilgan. Talaffuzdagi ana shunday shevaga xos

¹⁶¹ Скородумова Я.А. Функции диалектной лексики в автобиографической прозе В.П.Астафьева. Филология и лингвистика. – Казан, 2015. – № 1 (1). – С. 7-9.

farqlarning badiiy asar tiliga kiritilishi avtorning obrazni, personajni individuallashtirish, turmush, sotsial muhit, turli sharoitlarni badiiy ishonchli va etnografik aniq, real tasvirlash kabi maqsadlari bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. So‘zlar talaffuzidagi bunday minimal o‘zgarish va farqlar badiiy asarda juda katta ekspressiv vazifani bajaradi¹⁶².

Lingvistik adabiyotlarda dialektal birliklarning fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida guruhlanishi keng kuzatiladi. So‘zlardagi tovushlar o‘zgartirib qo‘llanilishi, tovush tushishi va orttirilib ishlatilishi fonetik dialektizmlar hisoblanadi.

“Aytgandek, uning otasi yo‘q edi. To‘g‘rirog‘i bor edi-yu, yo‘q hisobi edi. Bilganlar bilardi, ammo bilmaganga olardi. Jig‘iga tegish uchunmi, Ko‘kalni jo‘rttaga tergashardi:

– *Kimdi uli bo‘lasiz, Ko‘kalboy?*

– *Enamdi.*

– *Enangiz kim?*

– *Mayram tog‘chi.*

– *Otangiz-chi?*

– *Otam yo‘q.*

– *Nima, o‘lganmi?*

– *Yo‘q.*

– *Bo‘lmasa, kim?*

– *Bilmayman.*

– *Odam otasiz ham tug‘iladimi, bachchag‘ar?!*

Hamma balo shundaki, Ko‘kal otasining kimligini bilardi. Bilardi-yu, kimsaga aytolmasdi. Peshonasining sho‘ri ham shu edi-da uning” (E.A’zam “Bog‘bololik Ko‘kaldosh”).

Yuqoridagi matnda **uli** (tovush almashishi, tushishi), **enamdi** (tovush almashishi, morfologik) kabi fonetik va **bachchag‘ar** leksik dialektizmlardan qahramon nutqini individuallashtirish, hududga xos so‘zlashuv nutqini namoyon etish maqsadida foydalaniladi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Erkin Azam asarlarida **g‘ar** so‘zi bilan yasalgan, so‘kish denotat ma’nosini ifodalovchi **bachchag‘ar**, **enag‘ar**, **ukkag‘ar** dialektal so‘zlar ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, ular

¹⁶² Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 28.

erkaklar nutqida faol va odatiy holda ishlatilgan. **G‘ar** – (*forscha*) fohisha, buzuq ayol, xotinchalish¹⁶³ ma’nolarini bildirishi o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan. Janubiy viloyatlar, ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo dialektlarida **bachchag‘ar**, **enag‘ar**, **ukkag‘ar** so‘zlari negativ ma’no ifodasidan ko‘ra, pozitivlikka moyil pragmatik semaga o‘tib qolganday taassurot qoldiradi. Erkin A’zamning biz ko‘rib chiqqan asarlarida **ukkag‘ar** so‘zi 89 marta, **bachchag‘ar** 54 marta, **enag‘ar** so‘kish dialektizmi 36 marta qo‘llanilgan.

Misollarga e’tibor qaratsak qiziq bir holatni kuzatish mumkin:

Ota – Anvar Is’hoqovning o‘zi o‘lgudek kordon-u omilkor edi-da. Zamon har qancha evrilmasin, bariga tayyor, bariga mos kalitni topabilardi. “Bu ukkag‘ar juhudning qo‘lidan kelmaydigan kasb-u amal yo‘qdir”, deydi el (“Arbob Qulov Parijga boradi” hikoyasidan); Sizlarni bir mehmon qilgisi kelganmi? Isinib olsin, deganmi? Qiyomat odam. Fe’liga tushunish qiyin. O‘rligi tutsa, aytganini qildirmay qo‘ymaydi. Arzimagan bir gapning ustidan tug‘ishgan ukasi bilan necha yildan beri gaplashmaydi. Lekin o‘zi zo‘r cho‘pon, yaxshi odam. Obbo, chatog‘-ey, sizlarni rosa boplabdi-da.

– **Ukkag‘ar** “Qalantir”! Bayramni uyda o‘tkazolmadig-a! – dedi Malik (“Qor bosgan dovon” hikoyasidan); *Yolg‘iz o‘g‘il, erkaroq o‘sgan. Bo‘lmasa, shunday odamning farzandi, nobop chiqdi. Xotinini urib g‘ilay qilib qo‘ydi. Bir yilmi, ikki yil qamoqdayam yotib keldi. Ukkag‘ar bobo aralashmadi, ko‘rgani ham bormadi (“Ta’ziya” hikoyasidan).*

Yuqorida keltirilgan misollarda personajlar nutqida qo‘llanilgan **ukkag‘ar** so‘zining asl semantik ma’nosi ancha xiralashganini sezish mumkin. Professor Miraziz Mirtojiyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “so‘zning genetik ma’nosi shu so‘zning fonetik tarkibida dastlabki leksik ma’nosidir. Undan yangi-yangi leksik ma’nolar hosil bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi. Hosila ma’nolarning o‘zidan ham bir qator hosila ma’nolar hosil bo‘lishi yuzaga keladi”¹⁶⁴. Ya’ni, **ukkag‘ar** so‘zi asl leksik

¹⁶³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Бешинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 436.

¹⁶⁴ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – Б. 137.

ma'nosi referent xususiyati bo'lgan so'kish ma'nosi chegarasini buzib yuborgan. Yuqorida keltirilgan birinchi misolda (*ukkag'ar juhudning qo'lidan kelmaydigan kasb-u amal yo'qdir*) **ishbilarmon**, ikkinchi misolda (*Lekin o'zi zo'r cho'pon, yaxshi odam. Obbo, chatog'-ey, sizlarni rosa boplabdi-da. – Ukkag'ar “Qalantir”! Bayramni uyda o'tkazolmadig-a!*) **qaysar**, uchinchi misolda (*Ukkag'ar bobo aralashmadi, ko'rgani ham bormadi*) **bechora** ma'nosi reallashgan. Karantin so'zini aytolmagani, ya'ni buzib **kalantir** deb talaffuz qilgani uchun *ukkag'ar “Qalantir”* laqab sifatida qo'llangan. Shu o'rinda aytish kerakki, adibning personajlar nutqida bunday (*ukkag'ar*, *enag'ar*, *bachchag'ar*) dialektizmlarni qo'llashi voqea va hodisaga mahalliy tus berish pragmatik maqsadi ekanini anglash mumkin. Adib haqida adabiyotshunos va jurnalist Murtoza Qarshiboyevning ushbu fikrlarini keltirish o'rinli: “Erkin A'zamov qahramonlari – o'z dardi dunyosi bilan qorishib, sarkash-u qaysar tuyg'ulari bilan mamnun bo'lib yashaydigan odamlar. Yozuvchi ataylab ularni “*tiyib*” qo'ymaydi. Ba'zan “*tiyib*” qo'yishga “*kuchi*” ham yetmaydi”¹⁶⁵.

Umuman olganda, yozuvchi Erkin A'zamov ijodida fonetik, leksik, etnografik, semantik, grammatik dialektizmlarning qo'llanilishi asar qahramonlarining ishonarli va jonli tasvirini hamda hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqning estetik qiymatini oshirish hamda o'ziga xos pragmatik vazifalarni bajargan. Ayniqsa, dialektal vulgarizmlarning nutqiy faoliyatda qo'llanilishi sotsiumlarning ilmi, ijtimoiy mavqei, qaysi muhitda, qanday oilada tarbiyalanganlik va axloqiy saviyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ayrim hollarda vulgar so'zning asl denotativ ma'nosini anglamasdan, bilib-bilmay, odatiy holda hududlarda, mahalla va xonadonlarda faol ishlatilgani uchun katta-kichik erkaklar, ayrim hollarda ayollar nutqida qo'llanishi keng kuzatilishini etnosotsiopragmatik holat sifatida baholash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham biz tadqiqot ishimizning keyingi qismida Erkin A'zam asarlarida qo'llanilgan vulgar so'zlarning lingvopragmatik imkoniyatlari

¹⁶⁵ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nurulloh-muhammad-raufxon-ustoz-murtazo-qarshiboy-haqiqiy-boysun.html>

tahliliga e'tiborimizni qaratamiz.

3.4. Vulgar soʻzlarning nutqiy muloqotdagi pragmatik vazifasi

Haqoratli soʻzlar ilmiy adabiyotlarda vulgarizmlar deb yuritiladi. Badiiy asarlarda esa haqorat mazmunini ifodalovchi lisoniy birliklar personajlarning oʻzaro muloqoti, ya'ni diskurs jarayonida ishlatiladi. Bu esa tadqiqotchidan vulgar soʻzlarni sotsiopragmatik aspektda – tilshunos olimi Laylo Raupova aytganidek, lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni qaysi sotsial tipning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilari) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qoʻllanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim boʻladi¹⁶⁶. Haqoratli soʻzlarni qoʻllashda muallif oʻzi tasvirlayotgan nutqiy jarayonni, undagi ziddiyatli holatlarda personajlarning kuchli ruhiy zoʻriqish tufayli oʻzini boshqara olmaslik holatiga kelib qolganligini koʻrsatib berish kabi pragmatik maqsadni vazifa qilib oladi. Muloqot soʻzlovchi va tinglovchiga bogʻliq holda rivojlanib boruvchi oʻziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun fikr ifodalayotgan kishi oʻzi bilan muloqotga kirishayotgan odamga koʻnglidagi gaplarini har doim ham eksplitsit (ochiq, oshkora) aytish, unga boʻlgan munosabatini har doim ham oʻzi istaganiday ifodalay olish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Tatyana Lomtyevaning fikricha, ifodada nostandart, ayniqsa, odobsiz soʻzlarning mavjudligi emotsional zoʻriqishning yuqori darajasi indikatorini hisoblanadi, personaj kommunikativ muomalasidagi koʻpincha tajovuzkorlik uni ijtimoiy asimmetriya va shaxslararo ziddiyatni yuzaga keltiruvchi nutqiy agressiya deb belgilashga imkon beradi¹⁶⁷. Masalan: *Hamma yerda shuning gapi, shuning muhokamasi. Hah, **enagʻar** Arbob-a! Hah, **ukkagʻar** Qulov-a! Qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan bir sodda-bayov koʻrinarding – **qip-qizil** ichidan **pishgan shayton ekansan-ku!***

¹⁶⁶ Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив birliklarнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 79.

¹⁶⁷ Нестандартная лексика в коммуникативно-прагматическом аспекте (на материале языка романов С. Кинга): дисс. ... канд. филол. наук. – Ставропол, 2005. <https://cheloveknauka.com/nestandardnaya-leksika-v-kommunikativno-pragmaticheskom-aspekte>

*Ro'zg'oringning o't-u cho'g'iga balogardon mushtiparing bu yoqda turib sen boshqasi bilan suratlarga tushasanmi, **nomard! Endi Parijingga ham olaket shu baytalni!*** (E.A'zam "Arbob Qulov Parijga boradi").

Muloqotchilar o'rtasidagi munosabatlar o'ta ziddiyatli bo'lgan qiyin holatlarda so'zlovchi ba'zan fikr ifodalashga qiynalib qoladi, u tinglovchiga narsa va voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot yetkazishda, unga nisbatan salbiy munosabatini bildirishda ba'zan adabiy til me'yoridan chekinishga majbur bo'ladi. Bunday holatlarda kundalik nutqda faol ishlatilib kelingan so'zlar uning ehtiyojini qoplay olmay qoladi. O'zaro muloqot jarayonida fikr ifodalash imkoniyatining cheklanganligi, suhbat ishtirokchilari munosabatining salbiy tusda ekanligi haqorat mazmunidagi til birliklarining muomalaga kiritilishiga sabab bo'ladi. "Shoirning to'yi" qissasida vulgarizmlar personaj nutqida ichki nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi:

*Darbon xotin uni ko'rib, ko'zining paxtasi chiqib ketayozdi: bu kim, qanaqa **maxluq**, qayoqdan paydo bo'ldi, bu yerda nima qiladi, kim qo'ydi uni bunday joyga, hey, bu yoqqa qaranglar, odam bormi?..*

*Oqsoqol shoir munosabati: Anovi! Hah, **haromi ko'rnamak!** Shoirlik da'vosida yuradigan, ellikka yetib ham tozaroq biror narsa yozmagan bu yaramas mana shunday ma'rakabuzarligi bilan mashhur edi.*

*Mamnuniyat bilan Mafkuraxonga so'z berishga berdi-yu, Oqsoqol shoir ichida g'ijinib qo'ydi: "Endi shu **manjalaqi** bizga katta!"* (E.A'zam "Shoirning to'yi").

Badiiy matnda haqorat mazmunini ifodalovchi lisoniy birliklarning ishlatilishi muallif tomonidan o'z munosabatini ifoda etish maqsadida u ongli ravishda hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek ularning xatti-harakatlarini bildiruvchi so'zlarni metaforik ma'noda ifoda etishga, shu orqali nutq qaratilgan shaxsga o'z munosabatini anglatishga hamda baholashga intiladi:

*Oqsoqolning battar peshonasi tirishdi: **he..., o'l-a, befarosat!** Bunisining nima keragi bor ekan endi?*

– Qani, ***muhtarama Ma'shuqaxonim**, lutfan o'rningizdan turib*

*elga bir ko‘rinish berib qo‘ysangiz. Oldingi qatordan umri pardoz-andoz deb o‘tgan, sochi hamon qop-qora (bo‘yalgan), yoshligida o‘lgudek **shayton, jikilloq** bo‘lgani ayon ko‘rinib turgan **chittak** bir kampir joyidan turib, uzoq-yaqinga allanechuk zavq va hafsala bilan rosa ta‘zim qilib chiqdi. Oqsoqol ko‘zoynagini rostlab o‘sha tomonga tikildi.*

***Iya, kepti-da? Hali tirik ekan-da? O‘lmaydi bu!** Umr bo‘yi shu yolg‘onga o‘ziniyam, o‘zganiyam ishontirib keldi-ya, tavba! Anovi maddoh aytgandek, Otashqalb tirilib kelsa, xudo haqqi, bu **jodugarni** tanimagan ham bo‘lardi. Toshkentga ko‘chib kelganimizda Jukovskiyo ko‘chasidagi hovliga bir-ikki marta o‘zi suyaklab borgan edi. **Ochiq yotgan qozonni kim yalamaydi**, deydilar. Ayniqsa, Otashqalbgaga o‘xshagan sho‘x, olov yigit! Kayf-payf bilan bir-ikki bor quchoqlagan bo‘lsa bordir (E.A‘zam “Shoirning to‘yi”).*

Yuqoridagi matnda qo‘llanilgan ko‘p birliklar – kishi nomlaridan tortib, muallif va personajlar nutqida ishlatilgan so‘z, ibora va grammatik vositalar negativ munosabat qaratilgan personaj tasvirini berish va baholashida muhim pragmatik vazifalarni bajargan. Badiiy asar muallifi tomonidan matndagi tanlangan til birliklarining deyarli barchasi ma‘lum bir pragmatik yuk olganligini kuzatish mumkin. Agar matn mazmunini umumiy bir maxrajga keltirsak, axloqi buzuq, fohisha pragmatik ma‘nosi reallashadi. Yuqorida keltirilgan matnda **“he..., o‘l-a, befarosat”** so‘zlari so‘kish, qarg‘ish, tarbiyasiz ma‘nosi, **“muhtarama”** so‘zi kesatish, **“shayton”, “jikilloq”** so‘zlari o‘zini ko‘z-ko‘z qiluvchi, **“chittak”** so‘zi kichkina, ozg‘in, **“Iya, kepti-da? Hali tirik ekan-da?”** hayrat, hayron qolish, **“O‘lmaydi bu!”** “yomonga o‘lim yo‘q” maqoliga ishora **“jodugar”** ayyor, **“ochiq yotgan qozonni kim yalamaydi”** fohisha, suyuq oyoq kabi ma‘no presuppozitsiyalari ifodalangan.

“Guli-guli” qissasidan olingan matn ifodasida o‘ziga xos uslubdan foydalangan:

*Nimayam derdingiz, **Maymunimiz** o‘sha **odamkushning** pushtikamaridan bino bo‘lgan bir **maxluq-da!** Aytganday, qishloqqa ko‘chma zoopark kelib ketganidan keyin u rostakam maymunga aylandi – ilgari oddiygina Mo‘min yo **Mo‘min daroz, Mo‘min naynov, enag‘ar***

*Mo‘min, yo‘q-yo‘q, Mo‘min kal edi, Mo‘min kal! Kal emish, uning boshida mo‘ysiz joyi yo‘q, bodroqdek, jingala-jingala! Bultur Qo‘shdaryoga paxta terimiga borganimizda shu bo‘y-basti, shu jingalaklari bilan u kun-uzzukun paykal oralab yurib atigi to‘rt kilogina “oq oltin” tergan, kechqurun “shtab” chog‘i jismoniy tarbiya o‘qituvchimiz Orziqulov uni xoliroq xonaga olib kirib, jingalak sochlaridan mahkam changallab, kirza etik bilan rosa qorniga tepgan – qani, miq etsa-chi, qani, bir tola sochi yulinsa-chi! Buni so‘ngra Vahshiy (bolalar qo‘ygan laqab) Orziqulovning o‘zi ham taajjub aralash talay vaqt naql qilib yurgan: “Shu solaman deng, sasi chiqmaydi-ya! Joni toshdan ekan bu enag‘arning. Sochiyam qayishday, shuncha g‘ijimlab tortaman – bir mo‘yini uzolmasam-a, tavba! Ancha-muncha kayfim ham bor edi o‘zi”. Maymunning talqini esa o‘zgacharoq: “**yepti shu gapiga!** Necha kun chatanog‘ini kerib yurdi-ku, qayeriga tepganimni so‘ranglar o‘zidan!” (E.A‘zam “Guli-guli”).*

Yuqoridagi matnda qo‘llanilgan haqorat, so‘kish, kamsitish xarakteridagi eksplitsit va implitsit emfemik vositalarga ma‘lum bir pragmatik vazifa yuklangan. Albatta, bu muallif yaratilari. Matn mazmunining mag‘zini chaqish, kosa tagidagi nimkosani topish esa kitobxon zimmasiga yuklatiladi. “Implitsit ifodada tabulashtirilgan voqelikning evfemik vositasi ko‘pincha qo‘llanmay, ular zamiridagi tushunchalar kontekst va intonatsiya (ohangning birdan kesilishi, to‘xtab qolish, cho‘zilishi, tugallanmaganligi, sukut, davomlilik kabilar) orqali anglashilib turadi. Negaki, matn mohiyatan shunga yaqin tushunchani kishi ongiga yuboradi. Baribir, birinchi yarq etib paydo bo‘lgan fikr to‘g‘ri bo‘lib, aytish noqulay, nutqiy etikaga mos kelmasligi sababli madaniyat yuzasidan qo‘shirnoqda beriladi yoki ko‘p nuqta bilan yoziladi”¹⁶⁸.

Haqorat so‘zlari ijobiy yoki salbiy ma‘no ifodalash xususiyatiga ko‘ra farqlanadi. Tilimizda g‘ayriaxloqiy so‘zlarning ham kattagina qismi ana shunday so‘zlardan tashkil topgan. Baholash va munosabat ifodalashga xizmat qiluvchi metafora sifatida qo‘llana oluvchi bunday so‘zlar haqida prof. E.Qilichev shunday fikr bildiradi: G‘ayriaxloqiy

¹⁶⁸ Қодирова Х. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм. — Тошкент, 2013. — Б. 20.

soʻzlarning turlari, maʼnosi va ularning badiiy adabiyotdagi oʻrni hamda vazifasini oʻrganish uslubshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Gʻayriaxloqiy soʻzlar oʻz xarakteriga koʻra soʻkish, haqorat va qargʻish soʻzlariga boʻlinadi. Ikkinchidan, ular erkaklar va ayollar nutqiga xosligi bilan ham farqlanib qoʻllaniladi. Soʻkish, haqorat soʻzlarni semantik uslubiy jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: a) axloq madaniyati (haromi, laʼnati, muttaham); b) hayvon nomlari (it, eshak, choʻchqa); d) hasharot nomlari (chivin, chayon, gʻoʻnda); e) qush nomlari (boyoʻgʻli, qargʻa, chittak) va hokazolar bilan bogʻliq boʻlgan gʻazab-nafratni ifodalovchi soʻzlar.

Badiiy asarlarda gʻayriaxloqiy soʻzlar salbiy qahramonlarning nutqini individuallashtirish, ularga xos salbiy tomonlarni yanada boʻrttirish uchun ishlatiladi. Ayrim hollarda ijobiy qahramonlar nutqida ham bunday soʻzlar ishlatilishi mumkin. Bunda ular shu personajning oʻta hayajonlanganligi yoki gʻazablanganligi, oʻzini tuta olmasligi oqibatini haqqoniy aks ettirish uchun qoʻllanadi¹⁶⁹.

Shuni albatta qayd etish kerakki, vulgarizmlar, yaʼni haqorat soʻzlar badiiy matnda, asosan dialogik nutqda personajlar nutqini individuallashtirish maqsadida, kuchli subyektiv munosabatini ifodalashda muhim pragmatik vazifa bajarishda qoʻllaniladi. “Bogʻbololik Koʻkaldosh” hikoyasida quyidagi pragmatik vazifalarni bajargan:

Bilimsizlikda ayblash, koyish maʼnosida: *Odam otasiz ham tugʻiladimi, bachchagʻar?!*

Qargʻish ifodalashda: *Birgina onasi goʻrdan olib, goʻrga solishni qoʻymasdi:*

– **Suvsab oʻlgur** Koʻkal, suv opke!..

– **Oʻt-olovsiz oʻtgur** Koʻkal, oʻtin yor!..

– *Ogʻilni murdashoʻying kuraydimi, juvonmarg?!*

– *Eshakka qara, boʻyning uzilgur, nima deb hangrayapti?! Koʻkal jimgina borib Doniyorovning hovuzidan suv keltirar, jimgina oʻtin yorar, jimgina ogʻil kurar, jimgina eshagini sugʻorar edi. Hamma ishni*

¹⁶⁹ Қиличев Э. Нутқда ғайрияхлоқий сўзларнинг ҳам ўз ўрни бор. Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 225-226.

jimgina, bo'yin burmay bajarardi. Onasi esa guzarga jar solib javrardi:
"Ko'ka-al, Ko'ka-al!.." Ko'kal butun Bog'bologa dastyor edi.

– Ko'ka-al! – deb qichqiradi onasi. – **Ko'kingni kiyay, Ko'ka-al! Bo'ying go'rda chirigur Ko'ka-al! Zotingga tortmay noming o'chgur Ko'ka-al! Onasi o'riklilik tog'chilar urug'idan edi. Bu mardum xiyla badfe'l, jangari keladi, bilasiz, g'alvani pulga sotib olay deydi (E.A'zam "Bog'bololik Ko'kaldosh").**

Personajning adresatni haqoratlash orqali o'ziga baho berishi:
Qo'lida satil, Doniyorovning darvozasidan chiqar-chiqmas, onasining shang'illagani eshitiladi:

– *Suvga ketib cho'kib o'ldingmi, Ko'ka-al?! Men sen sag'irni deb...*

Nikohsiz tug'ilganiga ishora qilish:

Ko'kal nimadir degan edi, muallim uning basharasiga shart-shurt tushirib: "Bepadar haromi!" deya o'shqirdi.

Personaj harakatining ko'pchilik tomonidan baholanishi, ironik mazmun ifodalashi:

Xotin degani buncha shirin bo'lmasa, jonivor! Ko'ziga allanimator ko'ringan-da bachchag'arning! Obbo, Ko'kal-ey, obbo, sherimard-ey!

Ko'kal fig'on aralash zovita qildi: "Nimaga begona deysan, enag'ar, qaynatang bo'ladi; qaynatang!"

"Hulo'l" hikoyasida adresatni baholash vazifasini bajargan:

Chol karavotdan turib na'ra tortadi:

– *Bas qil, ho'v esipast!*

Onasiga sira o'xshamaydi-ku u – xunuk, qoqichak, mishiqi...

"Pakananing oshiq ko'ngli" hikoyasida haqoratlash: *Qari qanjiq! baholash uchun qo'llanilgan: "Ko'rgazma"siga olib kelgan ekan-da... Ablah!*

Keltirilgan misollardan ham ko'rish mumkinki, so'kish ko'proq erkaklar nutqiga xos bo'lsa, qarg'ash ayollar nutqiga xos. Ba'zan ayollar nutqida ham so'kish so'zlari ishlatilishining guvohi bo'lamiz va xalq orasida bunday ayollarni "erkakshoda" deb ataydilar:

Uchastka qurmoqchiman. "Dom" jonga tegdi – burilolmaysan,

tang-u tor. Keyin – men ham odamday yashashga haqqim bormi, yo‘qmi?!

– Yasha, yasha. Ruxsat berdim.

– Kulma, Zabar. **Anovi so‘takning ahvolini o‘zing bilasan.** Uyga bir so‘m topib kelolmasa! Qo‘lidan bir ish kelmasa! **Ketiga tepganimga ikki yil bo‘ldi, o‘rtadagi o‘g‘il bahona, sirtiga suv yuqtirmaydi-ya!** Xuddi hech nima bo‘lmagandek, “Uyingning kalitini tashlab ket” emish! Ijaraga qo‘yib pul ishlamoqchilar! **“Yebsan”, dedim.** Eshitding-ku hali. Ijara qo‘yadigan bo‘lsam, o‘zim qo‘ymasdim! K chemu eto mne! To‘rt pul chiqadimi, yo‘qmi, shuncha remontinning dabdalasini chiqazib tashlaydi. **Bilaman, marjabozlik qilmoqchi bu. O‘rgildim sizday marjabozdan! Holing menga ma‘lum-ku. Qo‘lingdan biror ish kelganida men bunday sarson bo‘lib yurarmidim!** (E.A‘zam “Zabarjad”).

Dilyaning sobiq eri haqida dugonasiga qilgan hasratidan ayon bo‘ladiki, “erkakshoda”likning ham o‘ziga xos ijtimoiy-ruhiy sabablari bor. Bu yerda Dilya eridan ajrashib farzandini o‘zi yolg‘iz katta qilayotgani, sobiq erining moddiy manfaat uchun uning atrofida girdikapalak bo‘lishi, erlik or-nomusi yo‘qligi va shunga o‘xshash bir qator faktorlar mavjud.

Matn mazmunida so‘zlovchi yoki muallifning axborot uzatishdan tashqari, uni tinglovchi(o‘quvchi)ga tushuntirish, biror bir harakatga undash, uning harakatlaridan qoniqmaslik, haqoratlash maqsadlari ham ifoda topadi. O‘zbek tilida vulgarizmlarning qo‘llanishi sotsiumlar nutqida o‘zaro farqlanadi. Shuning uchun ham erkaklar nutqida ishlatiladigan vulgarizmlar so‘kish, haqorat, tahdid; ayollar nutqida esa qarg‘ish xarakterida bo‘lishi ko‘proq kuzatiladi.

Kommunikativ maqsadning bu turlarining faollashuvi natijasida hosil bo‘ladigan matnlar turli mazmuniy guruhlariga ajraladi. Masalan, adresatni faollashtirish maqsadi ko‘zlanganda ishontirish, qiziqtirish, biror bir his-tuyg‘u uyg‘otish, harakatga undash kabi mazmundagi nutqiy tuzilmalar yuzaga keladi:

– Opangizni bilasiz-a? – dedi Akobirov Farhodga sinovchan tikilib. – **Bu yerlarniyam sug‘orib yuribdi, jalab.**

*Bir vaqtlar xushro‘ygina, qaddi-qomati ham joyida bo‘lgan, keyin negadir o‘ziga qaramay qo‘ygan, kinoyu kinochilikdan boshqa tashvishi yo‘q, qirqlarga yaqinlashgan **sho‘rtumshuq** bir ayol! Nimadan so‘z ochsangiz – fikringizni qo‘llab-quvvatlab, kimni tilga olsangiz – albatta biror fazilatini topib, maqtab ta’riflab ketadi. Odam ham shu qadar **nekbin, mushfiq** bo‘ladimi? Yo‘q, ayollar yaxshi, bizdan ming chandon yaxshi!*

*Qizning siyosiy ongi past, ammo o‘larcha **pismi****q**, **qaysar** otasi bilan gaplashib masalani bir yoqli qilgach, sherigim ikki kunga javob so‘rab qishlog‘ida qoladigan, men yolg‘iz qaytadigan bo‘ldim (E.A’zam “Shovqin”).*

Yuqoridagi matnlarda qo‘llanilgan haqorat ifodalovchi so‘zlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vulgarizmlar muallif nutqida qo‘llanilganda ekspressiv, personaj nutqida esa ekspressiv va apellyativ maqsadlarning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Modomiki, muloqot tadqiqida badiiy asar obyekt sifatida olinar ekan, uning tabiatini boshqa kommunikativ vosita – gap bilan muqoyasada o‘rganish qulay ko‘rinadi. Zero, kommunikativ birlik sifatida ularning qator mushtarak jihatlarga ega ekanligi shubhasizdir. Avvalo, so‘zlovchi gap vositasida o‘zgalar bilan muloqotga kirishganidek, yozuvchi ham asari vositasida o‘quvchi bilan muloqotga kirishadi. Muloqotga kirishayotgan shaxs esa, ma’lumki, har vaqt uchta asosiy maqsadni ko‘zlaydi:

a) reprezentativ – tinglovchi(o‘quvchi)ga muayyan informatsiyani yetkazish;

b) ekspressiv – informatsiyaga o‘z munosabatini ifodalash;

d) apellyativ – tinglovchi(o‘quvchi)ga muayyan ta’sir o‘tkazish.

Aytish kerakki, kommunikativ birlikda shu uchala maqsad har vaqt hozir bo‘lgani holda, har bir konkret birlikda ulardan biri yetakchilik qiladi¹⁷⁰.

Demak, vulgarizmlar faqatgina qo‘pollikni ifodalash uchungina emas, balki muloqot ishtirokchilarining ruhiy holati, ijtimoiy turmush tarzi, xarakteri, muloqot vaziyati va shu kabilar haqida kitobxonda aniq

¹⁷⁰ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: «Шарқ», 2004. – Б. 69.

tasavvur paydo qilishga ham xizmat qiladi. Yozuvchi Erkin A'zam asarlari g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta, teranligi, tasviriyligi, ifoda rang-barangligining kengligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini o'qir ekansiz personaj tasviri ishonchli, ularning tilida kinoyaviy, qochirimli so'zlar, iboralar ustalik bilan qo'llanganligi bois o'zgacha joziba va estetik zavq kasb etgani o'quvchi diqqatini tortadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Badiiy asar tahlilida muallifning individual uslubini o'rganish, uning asar mazmunini badiiy bayon qilishda lingvopragmatik vositalarini qo'llash mahoratini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Matnda adresant ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zlab, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita hamsuhbatiga ta'sir o'tkazadi. Bunda maqsad, shuningdek, munosabat, aloqada bo'lish kommunikativ vaziyatning o'zi ham tilga oid vositalarning tanlanishiga, qo'shimcha ma'no ifodalashiga ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, adresant pragmatik samaraga erishish uchun qat'iy kommunikativ strategiyaga rioya qilishi lozim. Ana shu talab til birliklarining pragmatik tabiatini belgilab beradi.

2. Erkin A'zam asarlarida personajlar nutqida turli xil lingvostilistik vositalarni qo'llash orqali semantik-pragmatik rejani belgilab olish, ya'ni matn va mavzu uyg'unligi ta'minlanganligi zahirida verbal va noverbal vositalarni pragmatik yo'naltirish yotadi. Bunda turli sohalarga tegishli personajlarni so'zlatish orqali davrning siyosiy jihatdan nozik nuqtalariga ishora qilish, personaj faoliyatining o'sha nuqtalarga bog'liqligini ta'kidlash hamda subyektiv munosabatlarni aks ettirish, personaj yoki qahramonga oid dalillarning adresatning fikrlashi doirasidan ijtimoiylashuv bosqichiga ko'tarilishi kabilar matnning illokutiv tavsifi, ya'ni pragmatik mazmunini hosil qilgan.

3. Erkin A'zam asarlarida personaj nutqining lisoniy xususiyatlari, dialektizmlar ushbu nutqning ma'lum shevaga taalluqli ekanligiga ishora qilishdan tashqari yana bir muhim pragmatik vazifa – personajning dunyoqarashi, fikr ifodalash uslubi, saviyasi kabi jihatlarini ko'rsatib

berishga xizmat qilgan.

4. Haqoratli soʻzlarni qoʻllashda Erkin Aʼzam oʻzi tasvirlayotgan nutqiy jarayonni, undagi ziddiyatli holatlarda personajlarning kuchli ruhiy zoʻriqish tufayli oʻzini boshqara olmaslik holatiga kelib qolganligini koʻrsatib berishni maqsad qilib oladi. Bu dinamik jarayonda adresant oʻzi bilan muloqotga kirishayotgan odamga koʻnglidagi gaplarini har doim ham ochiq aytish, unga boʻlgan munosabatini har doim ham oʻzi istaganiday ifodalay olish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Bu esa badiiy asarda ichki nutqdan foydalanishga yoʻl ochadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Badiiy asar yaratish uchun yozuvchining tafakkurdagi idroki (matnni shakllantirish motivi, strategiya va taktikalari) ham lisoniy voqelanishi murakkab kognitiv, stilistika, semantika va pragmatika doirasida yuzaga keladi. Xuddi shu sababga ko'ra **pragmatika** – semantika, stilistika va sintaksis sohalarida o'rganiladigan masalalarni qamrab oladi hamda o'ziga xos umumlashtiruvchi soha vazifasini o'taydi. Matnning pragmatik tadqiqida semantika, stilistika kabi sohalardan ayro tahlil qilishning iloji yo'q. Demak, lingvopragmatika muloqotning real sharoitda mavjudligi va vazifa bajarishi bilan bog'liq masalalar to'g'risida bahs yuritadi, boshqacha aytganda, pragmatika kontekst tarkibidagi ma'noni tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

2. Badiiy matnda tilning estetik vazifasi va ifoda imkoniyatlari keng. Bu imkoniyatlarning ta'minlanishida semantik-stilistik vositalarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular g'oyaviy pishqlik va estetik ta'sirchanlikning muhim omillaridandir. So'zlovchi yoki matn muallifi tomonidan bayon etilayotgan fikr ma'lum pragmatik maqsadni nazarda tutadi: o'z tuyg'ularini, munosabatini tinglovchiga bildirish, shuningdek, suhbatdoshni ma'lum kommunikativ harakatga da'vat etish, unga ta'sir ko'rsatish natijasida uni navbatdagi nutq jarayoniga jalb etish bo'lishi mumkin. Matn ijodkori har bir fikrni ma'lum bir pragmatik maqsad bilan bog'laydiki, u kommunikatsiyada shu fikrning pragmatik mazmuni sifatida shakllanadi.

3. Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, jo'yaliligi, ifodaviyligi kabi sifatlar muloqot samarasining asosiy omillaridir. Muloqot samaradorligi – bu nutq madaniyati nazariyasini amalda qo'llashni yengillashtiruvchi omil hisoblanadi. Pragmatik samaradorlik kommunikativ maqsadga erishishning eng maqbul usulidir. Muloqotning kommunikativ maqsadi esa til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalar bilan chambarchas bog'liq.

4. Badiiy matn yaratish bu adabiy muloqot ijrosidir. Badiiy matnda estetik mazmun ifodasi oldingi o'ringa chiqadi, yozuvchi o'quvchiga axborotni oddiygina yetkazmaydi, balki ushbu axborot mazmunini estetik jihatdan boyitishga, uning inson ruhiyatiga ta'sir qudratini

kuchaytirishga harakat qiladi. Ma'lumki, adabiy muloqot bilvosita masofa tanlamaydigan muloqot turi. Ushbu turdagi muloqot vositasida yaratilgan asar matni, ya'ni badiiy matnni tahlil qilishda ularning lingvopragmatik tabiatini va ularga badiiylilik bag'ishlovchi vositalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Badiiy matn muloqotchilar orasidagi munosabatga ko'ra o'rganilganda nutqiy muloqot shakllari (xabar mazmunidagi dialog, do'stona suhbat, bahslashuv va sh.k.); nutqning ijtimoiy-etiketli tomoni (murojaat shakli, muloqot uslubi); u yoki bu nutqiy aktda aloqa ishtirokchilari orasidagi munosabat (qiyoslang: iltimos va buyruq) hisobga olinadi.

6. Badiiy matn tarkibida eng muhim birliklardan biri – nutqiy aktlardir. Pragmatika mazmun-mohiyatiga ko'ra, faoliyat tushunchasi bilan bog'liq, uning lug'aviy ma'nosi amaliy ish mazmuni bilan reallashadi. Demak, pragmatika til belgilarining nutqdagi funksional qo'llanishidan iborat, uning mazmuni esa muloqotchilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos ifodalash va anglash mezonlari asosida namoyon bo'lishidadir.

7. Pragmatik vazifa turli kommunikativ maqsadlarga erishish uchun nutqda (so'zlashuvda) til birliklarining potensial kommunikativ-pragmatik xususiyatlaridan foydalanish. Pragmatik samara so'zlovchi o'z nutqida baholash so'zlaridan foydalanib, eshituvchiga ta'sir o'tkazish natijasidir. Pragmatik samara o'z tarkibiga faqat pragmatik ta'sir mexanizmlarini qo'shib qolmasdan, balki kommunikatsiya jarayonida muayyan ekstralingvistik samaraga erishish imkoniyatini ham kiritgan.

8. Zamonaviy kognitiv paradigmada lisoniy faoliyat – subyektning bilish, idrok qilish, ta'riflash qobiliyati, ya'ni kognitsiya turlaridan biri sifatida qaraladi. Demak, tilshunoslikda inson omili va xususan, muayyan “lisoniy shaxs” masalasi ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim. Darhaqiqat, lisoniy shaxs – bu nutqiy harakatni uzatish, qabul qilish, nutqni tuzish va lisoniy tizimdan foydalanish layoqatiga ega bo'lgan shaxs. Lisoniy shaxs tushunchasi kommunikativ shaxs tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Lisoniy shaxs muloqot jarayonida

kommunikativ shaxs sifatida qaralishi mumkin. Shu nuqtayi nazarga ko'ra lisoniy shaxs – fikriy, lisoniy, nutqiy, kommunikativ ko'rinishga ega va “super kategoriya” sifatida talqin qilinadi.

9. Badiiy matnni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarda asosiy masala sifatida qaralayotgan lisoniy shaxs til birliklari vositasida ifodalangan nutq sohibi hisoblanadi. U nutq faoliyatini rejalashtirishdan tortib, uni amalga oshirish va ma'lum pragmatik samaraga erishish davrigacha bo'lgan jarayonni boshqarib turadi. Erkin A'zam asarlari misolida aytish mumkinki, lisoniy shaxs o'zi mansub bo'lgan tilga xos xususiyatlarni, emotsional-ekspressivlik, kommunikativlikni ifodalovchi lingvopragmatik vositalar hamda mental xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyaga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси// Халқ сўзи, 2017 йил 4 август. – № 153 (6847).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сон «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4664611>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. <https://lex.uz/ru/docs/4561730>

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. <https://president.uz/uz/lists/view/3909>

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ-27-сон «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги фармони. <https://lex.uz/pdfs/6396146>

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

6. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 60 б.

7. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.

8. Боймирзаева С. Бадиий матнда қўшма гап. – Самарқанд, 2008. – 114 б.
9. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – 206 б.
10. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 124 б.
11. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
12. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2008. – 120 б.
13. Йўлдошев Н., Шофиев О. Эркин Аъзам бадиий олами. – Тошкент: “Turon zamin ziyo” нашриёти, 2014. – 304 б.
14. Каримов С. Бадиий матннинг услубий аломатлари. – Самарқанд, 1992. – 44 б.
15. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – 72 б.
16. Kurbanova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: “Universitet”, 2014. – 116 b.
17. Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015. – 185 б.
18. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995. – 88 б.
19. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989. – 42 б.
20. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. – 188 б.
21. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 288 б.
22. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.
23. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
24. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент, 2012. – 276 б.

25. Пардаев А.Б. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикаси. – Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2008. – 157 б.
26. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. – 104 b.
27. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 28.
28. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультуроология. – Наманган, 2017. – 128 б.
29. Саидов У. Бошқарув ва нотиклик санъати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 176 б.
30. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 318 б.
31. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – 39 б.
32. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yoʻldosheva D.N. Hozirgi oʻzbek tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 200 b.
33. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 224 б.
34. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2003. – 86 б.
35. Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2005. – 60 б.
36. Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 96 б.
37. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 114 б.
38. Shofiyev O. Erkin A'zamning badiiy mahorati. Monografiya. – Mersin: Mer Ak Publishing House, 2020. – 204 b.
39. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
40. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 87 б.
41. Қиличев Э. Ўзбек тили практик стилистикаси. – Тошкент:

Ўқитувчи, 1985. – 104 б.

42. Қиличев Э. Нутқда ғайриахлоқий сўзларнинг ҳам ўз ўрни бор. Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 225-226.

43. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000. – 36 б.

44. Қодирова Х. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм. – Тошкент, 2013. – 48 б.

45. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.

46. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.

47. Ҳусанов Б., Ғуломов В. Муомала маданияти. – Тошкент, 2007. – 89 б.

2) Xorijiy nashrlar

48. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. – Ленинград, 1975. – 276 с.

49. Баранов, А.Г. Текст в функционально-прагматической парадигме. – Краснодар: Кубанский Госуниверситет, 1988. – 90 с.

50. Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. – 88 с.

51. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 1999. – 352 с.

52. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Эдиториал УРСС, 2004. – 144 с.

53. Гаспаров М.Л. Античная риторика как система/ в сб.: Античная поэтика: Риторическая теория и литературная практика. – Москва, 1991. – 256 с.

54. Головин В.Н. Основы культуры речи. – Москва: Высшая школа, 1980. – 335 с.

55. Зеленщиков А.В. Пропозиция и модальность. – Санкт-Петербург, 1997. – 244 с.

56. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи [Текст]/ О.С. Иссерс. – Москва: ЛКИ, 2008. – 284 с.

57. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
58. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.
59. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л., 1972. – 218 с.
60. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. – Москва: Наука, 1984. – 174 с.
61. Конецкая В.П. Социологии коммуникации: [Учебник]/ В.П.Конечкая. – Москва, 1997. – 302 с.
62. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 241 p.
63. Наумов В.В. Лингвистическая идентификация личности. – Москва, 2006. – 240 с.
64. Ожегов С.И. Очередные вопросы культуры речи. – Основы культуры речи. Хрестоматия. – Москва: Высшая школа, 1984. – 312 с.
65. Павлова Л.Г. Спор, дискуссия, полемика: книга для учащихся старших классов средней школы. – Москва: Просвещение, 1991. – 127 с.
66. Шатуновский И.Б. Семантика предложения и нереферентные слова. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 399 с.
67. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд. – Москва: Научное издательство «Большая Российская энциклопедия» 1998. – 685 с.

III. Lug‘atlar

68. Лингвистический энциклопедический словарь (гл. ред. В.Н.Ярцева и др.) – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 709 с.
69. Ўзбек тилининг изохли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 680 б.

70. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Иккинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 672 б.

71. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Учинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 688 б.

72. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Тўртинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 608 б.

73. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Бешинчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 592 б.

74. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 811 с.

75. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 126 б.

76. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – 168 б.

77. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 272 б.

IV. Badiiy adabiyotlar

78. Аъзамов Э. Байрамдан бошқа кунлар. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 272 б.

79. A‘zam E. Ertak bilan xayrlashuv. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 200 b.

80. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. Бир йил битиклари. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2007. – 128 б.

81. Аъзамов Э. Олам ям-яшил. Ҳикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 160 б.

82. Аъзам Э. Отойининг туғилган йили: Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 184 б.

83. Аъзам Э. Пақананинг ошиқ кўнгли: уч қисса ва уч ҳикоя. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 208 б.

84. Аъзам Э. Танҳо қайиқ: Киноқиссалар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2017. – 256 б.

85. Аъзам Э. Танланган асарлар: 1-жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2021. – 544 б.

86. Аъзам Э. Танланган асарлар: 4-жилд. Роман, янги аср ҳикоялари, эски дафтар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2021. – 552 б.

87. Аъзам Э. Шовқин: роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 288 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

88. Азимова С.Х. «Рад этиш» нутқий актларининг лингвопрагматик хусусиятлари (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 54 б.

89. Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Фарғона, 2021. – 223 б.

90. Bayjigitov O.I. O‘zbek muloqot nutqidagi frazeologik birliklar: kognitiv va lingvokulturologik tamoyillari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 53 b.

91. Безменова Л.Э. Функционально-семантические и прагматические особенности речевых актов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2001. – 20 с.

92. Боймирзаева С.Ў. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 124 б.

93. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-

прагматик мазмунини шакиллантирувчи категориялар: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 49 б.

94. Дмитриева М.М. Семантико-прагматические и стилеобразующие характеристики экспрессивных единиц языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2000. – 16 с.

95. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 24 б.

96. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

97. Каримова Ф.С. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.

98. Кобиров Н.Ў. Тоғай Мурод қиссаларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – 140 б.

99. Кубиц Г.В. Профессионализация языковой личности (на примере юридического дискурса): дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2005. – 258 с.

100. Ломтева Т.Н. Нестандартная лексика в коммуникативно-прагматическом аспекте (на материале языка романов С.Кинга): дисс. ... канд. филол. наук. – Ставропол, 2005. – 24 с.

101. Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 72 б.

102. Мирсанов Ғ.Қ. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг когнитив-прагматик асослари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 75 б.

103. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 47 б.

104. Пардаев А.Б. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг

функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2005. – 156 б.

105. Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 77 б.

106. Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 79.

107. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 24 б.

108. Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 63 б.

109. Сафаров Ш. Этносоциопрагматика речевого общения (принципы сопоставительно-типологического описания): Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Л., 1991. – 33 с.

110. Степанов В.Н. Прагматические способы номинации речевой интенции говорящего: На материале спонтан. публич. речи [Текст]: дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01 / Степанов Валентин Николаевич. – Ярославль, 1998. – 213 с.

111. Тоирова Г.И. Нутқий мулоқот ситуатив прагматик ситема сифатида: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 35 б.

112. Тоирова Г.И. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.

113. Тошхужаева Ш.Г. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.

114. Тоҳиров З.Т. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага келиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 22 б.

115. Турдиева Ҳ.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар

асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 167 б.

116. Умурзақова М.Э. Ўзбек тилида сегмент курилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 55 б.

117. Xojiyeva M.Y. O‘zbek tili so‘z birikmalarida shaxs tavsifi (substansial va sotsiopragmatik aspektlarda): Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 63 b.

118. Холмуродова М.И. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – 132 б.

119. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

120. Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 52 б.

121. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.

122. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.

123. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

124. Ҳамроева Н.Н. Ўзбек нутқий мулоқотида фатика (илтифот мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. – 148 б.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

125. Арискина О.Л., Дрянгина Е.А. Языковая и коммуникативная личность: различные подходы к исследованию// Вестник Челябинского государственного университета. Вып. 58. – Челябинск, 2011. – С. 15-18.

126. Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики// Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1985. – Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. – С. 3-42.

127. Арутюнова Н.Д. Номинация, референция, значение // Языковая номинация. Общие вопросы. – Москва, 1979. – С. 188-206.

128. Ашурова Н. Эркин Аъзам услубининг айрим хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 65-67.

129. Давронова Ш. Эркин Аъзамнинг характер яратиш маҳорати// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2002. – № 4. – Б. 53-55.

130. Данияров Б.Х. Ўзбек тилида лексик синонимларининг лингвопрагматик хусусиятлари// *Ilm sarchashmalari*. – Urganch, 2019. – № 10. – Б. 48-54.

131. Дейк ван Т.А. Вопросы прагматики текста// Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1978. – Вып. VIII: Лингвистика текста. – С. 259-336.

132. Дейк ван Т.А. Стратегии понимания связного текста [Электронный ресурс]/ Т.А. ван Дейк, В.Кинч// Новое в зарубежной лингвистике. Когнитивные аспекты языка. – Вып. 23. – Москва, 1988. – С. 164. <https://www.booksite.ru/fulltext/novoelingv/text.pdf>

133. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода// Вопросы языкознания. 1994. – № 4. – С. 17-33.

134. Галстян С.С. Языковая личность – основа телевизионной коммуникации/ С.С.Галстян// Вестник электронных и печатных СМИ: научно-теоретический журнал. – Вып. – № 3.

135. Грушевская Т.М. Модулярный подход к анализу текста/дискурса: вклад женеvской лингвистической школы [Электронный ресурс]/ Т.М.Грушевская, Н.Ю.Фанян// Вестник Адыгейского государственного университета. Сер.: Филология и искусствоведение. Лингвистика. 2012. – Вып. 3. – С. 199-203.

136. Иванова К.А. Стратегии в речевой коммуникации: теоретический аспект [Текст]/ К.А. Иванова// Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. 2017. – Вып. 1(192). – С. 39-44.

137. Иванцова Е.В. О термине «языковая личность»: истоки, проблемы, перспективы использования// Филология. Вестник Томского государственного университета. – Томск, 2010. – № 4 (12). – С. 24-32.

138. Исупова М.М., Коптелова И.Е. Концептуальные метафоры в корпоративном праве// Вестник университета имени О.Е.Кутафина (МГЮА). – Москва, 2018. – № 11. – С. 59-67.

139. Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослигида матн ва уни ўрганиш муаммолари// Лингвопоэтика, структур филология ва когнитив таълим муаммолари (халқаро илмий анжуман материаллари). 2-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – Б. 24-28.

140. Кенжаева П. Эркин Аъзам – моҳир ҳикоянавис// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 6. – Б. 62-63.

141. Кочеткова Т.В. Проблема изучения языковой личности носителя элитарной речевой культуры (обзор)// Вопросы стилистики. – Саратов, 1996. Вып. 26. – С. 14-24.

142. Мамажонов А., Ибрагимова Э. Киноя – субъектив муносабат ифодалаш усулларида бири //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – № 4. – Б.14-16.

143. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 6. – Б. 26.

144. Мухаммедова Д. Матн ва унинг турлари// Истиқлол ва тил. 3-қисм. – Тошкент, 2007. – Б.17-19.

145. Мухаммедова Д. Микроматн кўринишида кесимларнинг тенг алоқага киришуви// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 6. – Б. 90-91.

146. Нурмонов А., Хакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – № 4. – Б. 54-58.

147. Нурмонов А., Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Мустақиллик

даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 5.

148. Odinayev B.I. Grafonning pragmatik xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari misolida)// Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2022. – № 1. – Б. 28-29.

149. Odinayev B.I. Disfemizmning pragmatik xususiyatlari haqida// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2022. – № 1. – Б. 231-235.

150. Odinaev B.I. Lexikalische Dialektik, die in den Geschichten von Erkin A'zam verwendet wird// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – Germany, 2022. Vol. 2 No. 1.6 Philological sciences (2022). – P. 144-152.

151. Odinayev B.I. Erkin A'zamning metaforadan foydalanish mahorati// Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Samarqand, 2023. – № 2 (138). – Б. 33-37.

152. Odinaev B.I. Methodological and Pragmatic Factors That Ensure the Effectiveness of Communication// International Journal of Social Science Research and Review. – Germany, 2023. Volume 6, Issue 8, August, 2023. – P. 87-93.

153. Odinaev B.I. Considerations on Speaking Communication// American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – United States of America, 2023. Vol. 1 No. 8 (2023). – P. 8-12.

154. Odinayev B.I. Lisoniy shaxs: ta'rif, tahlil, talqin// «Scienceproblems.uz» – Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari elektron jurnali. – Samarqand, 2023. – № 10. – Б. 202-210.

155. Odinayev B.I. Badiiy matnda so'z qo'llash mahorati va pragmatik imkoniyat// Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Samarqand, 2024. – № 4 (146/1). – Б. 61-67.

156. Остин Дж. Слово как действие [Электронный ресурс]/ Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. – 1986. – Вып. 17. – С. 122-129.

157. Pardayev A.B., Odinayev B.I. Pragmalingvistika o'zbek tilshunosligining alohida yo'nalishi sifatida// Наманган давлат

университети илмий ахборотномаси. – Наманган, 2022. – № 2. – Б. 222-226.

158. Пардаев З. Маслаҳат нутқий актида баҳо// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 72-76.

159. Пардаев З.Н. Мактанчоқлик нутқий актида баҳо// Хабаршысы. Вестник. – Нукус, 2010. – № 2. – Б. 74-78.

160. Сафаров Ш. Метафора ҳодисаси талқинига янгича ёндашув имкониятлари// Хорижий филология. – Самарқанд, 2020. – № 1. – Б. 7-11.

161. Серль Дж. Что такое речевой акт? [Электронный ресурс]/ Дж.Серль// Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. 1986. – Вып. 17. – С. 151-169.

<http://philology.ru/linguistics1/searle-86.htm>

162. Скородумова Я.А. Функции диалектной лексики в автобиографической прозе В.П.Астафьева// Филология и лингвистика. – Казан, 2015. – № 1 (1). – С. 7-9.

163. Сусов И.П. О двух путях исследования содержания текста// Значение и смысл речевых образований. – Калинин, 1979. – С. 90-103.

164. Тарасов И.С. Принцип состязательности: понятие и свойства// Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия «Право». 2010. – № 2 (1). – С. 291-296.

165. Тўлаганова С. Янгиланаётган қаҳрамонлар талқини// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 4. – Б. 95-99.

166. Холмуродов А. Янги қаҳрамонлар талқини// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 55-57.

167. Худайбергана Д. Ёзувчи услуби ва насрий матннинг лисоний хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – № 6. – Б. 65.

168. Шаҳобиддинова Ш., Исоқов З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 6. – Б. 75-76.

169. Қурбонов С. Эркин Аъзам ижодида эврилаётган инсон тасвири// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2.

– Б. 67-69.

170. Қурбонов С. «Шовқин» романида образлар тизими// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 4. – Б. 99-104.

VII. Internet saytlari

171. <http://tapemark.narod.ru/les/389e.html>

172. <http://vestnik.ipk.ru/index.php?id=1544>

173. <https://cyberleninka.ru/article/n/nut-da-ifodalanadigan-implitsitlikning-murakkab-semantik-tarkibi>

174. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nurulloh-muhammad-raufxon-ustoz-murtazo-qarshiboy-haqiqiy-boysun.html>

175. <https://proza.ru/2014/11/07/1722>

BEKQUL ODINAYEV

**O‘ZBEK NUTQIY MULOQOTI
LINGVOPRAGMATIKASI**

MONOGRAFIYA

**Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir
Dizayner**

**N. Choriyev
O. Sharapova
X. Raximova
O. Mirzayev**

ISBN 978-9910-9858-6-7

2026-yil 06-yanvarda SamDU Tahririy nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2026-yil 10-yanvarda original maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84_{1/16} “Times New Roman” garniturasini.

Ofset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i – 10,25.

Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 782

***SamDU Tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.***



